ISSN 3030-3400

# Nordic

Scientific-practical e-journal

7

XALQARO NORDIK UNIVERSITETI

# Nordik ilmiy-amaliy elektron jurnali

Nordic scientific-practical e-journal

7-SON · VOLUME 7 · 2026

IQTISODIYOT | PEDAGOGIKA | FILOLOGIYA | PSIXOLOGIYA | TARIX

**MILLIY ILMIY NASHRLAR RO‘YXATIDA**

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati

www.journal.nordicuniversity.org

ISSN 3030-3400

Nordic

Scientific-practical e-journal

# NORDIC SCIENTIFIC-PRACTICAL E-JOURNAL

## VOLUME-7

# NORDIK ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNALI

## 7-SON

© Nordic International University

# TAHRIRIYAT KENGASHI HAY'ATI



**Sherzod MUSTAFAKULOV**

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Tahririyat kengashi raisi**



**Odil QO'YSINOV**

Pedagogika fanlari doktori, professor

**Tahririyat kengashi bosh muharriri**



**Oybek RAXIMBERDIYEV**

Akademik ishlar departamenti boshlig'i

**Tahririyat kengashi mas'ul kotibi**



**Abdurauf TO'QLIYEV**

Tayanch doktorant

**Tahririyat kengashi texnik muharriri**



**Muxtasar ISAQOVA**

Matbuot kotibi, jurnalist

**Tahririyat kengashi a'zosi, matn muharriri**



**Akbar MANSUROV**

Web dasturchi

**Tahririyat kengashi a'zosi, texnik xodim**



**Sherzod URALOV**

Web dasturchi

**Tahririyat kengashi a'zosi, texnik xodim**



**Hasan MAQSUDOV**

Dizayner

**Tahririyat kengashi a'zosi, sahifalovchi-dizayner**

# Muassis

XALQARO NORDIK UNIVERSITETI

Xalqaro Nordik universiteti O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining №057216 raqamli Guvohnomasi asosida “Nordic” ilmiy-amaliy elektron jurnalini nashr etish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Jurnalda maqolalar o‘zbek, rus, ingliz va fin tillarida nashr etiladi.

## KENGASH A’ZOLARI

| | | |
|---|---|---|
| **Saidahror G‘ulomov** | Iqtisodiyot fanlari doktori, professor | **O‘zbekiston** |
| **Marat Raxmutlaev** | Texnika fanlari doktori, professor | **O‘zbekiston** |
| **Baxtiyor Salimov** | Iqtisodiyot fanlari doktori, professor | **O‘zbekiston** |
| **Olim Murtazayev** | Iqtisodiyot fanlari doktori, professor | **O‘zbekiston** |
| **Shavkat Hasanov** | Iqtisodiyot fanlari doktori, professor | **O‘zbekiston** |
| **Mahammadsiddik Amonboyev** | Iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor | **O‘zbekiston** |
| **Nuriddin Murodullayev** | Xalqaro Nordik universiteti prorektori | **O‘zbekiston** |
| **Petri Juhani Raivo** | Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) | **Finlandiya** |
| **Pekka Auvinen** | Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) | **Finlandiya** |
| **Alisher Jo‘rayev** | Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) | **O‘zbekiston** |
| **Nizomiddin Urmonov** | Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent | **O‘zbekiston** |
| **Bruno Dallago** | Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) | **Italiya** |
| **Kobil Ruziyev** | Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) | **Angliya** |
| **Ihtiyor Bobojonov** | Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) | **Germaniya** |
| **Odiljon Abdurazzakov** | Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) | **O‘zbekiston** |
| **Mirza Tulayev** | Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent | **O‘zbekiston** |
| **Munis Abdullayev** | Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent | **O‘zbekiston** |
| **Xasan Sabirov** | Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent | **O‘zbekiston** |
| **Zulfiya Xamidova** | Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent | **O‘zbekiston** |
| **Lochin Raxmonov** | Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) | **O‘zbekiston** |
| **Alijon Ergashev** | Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) | **O‘zbekiston** |
| **Musoxon Isakov** | Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent | **O‘zbekiston** |
| **Maxammadmurod Shomirzayev** | Pedagogika fanlari doktori, professor | **O‘zbekiston** |
| **Xusniddin Jo‘rayev** | Pedagogika fanlari doktori, professor | **O‘zbekiston** |
| **Qurbonniyoz Panjiyev** | Pedagogika fanlari doktori, professor | **O‘zbekiston** |
| **Dilafro‘z Miraliyeva** | Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) | **O‘zbekiston** |
| **Nigora Lutfullayeva** | Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) | **O‘zbekiston** |
| **Dilshod Nasriddinov** | Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) | **O‘zbekiston** |
| **Elbek Qosimov** | Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD | **O‘zbekiston** |

7-SON · VOLUME 7 · 2026

# MUNDARIJA

CONTENTS

Nordic
Scientific-practical e-journal

1 TILYABAYEV KAMIL
Til dekolonizatsiyasida sohalararo integratsiya ahamiyati: adabiyotlar sharhi — 4

2 ABDURAXMANOVA IQBOLXON
Biologiya o‘qitish jarayonida ekologik-integrativ yondashuvlar — 14

3 HAYDAROVA KAMOLA
Embedding external quality assurance in credit-modular systems: how Malaysia’s qualifications architecture bridges the policy-practice gap for Uzbekistan — 20

4 MU ZHENDI
Last-mile interface bottlenecks and collaborative optimization mechanisms in seaport–dry port multimodal transport systems: evidence from the Ningbo–Zhoushan–Tashkent corridor — 28

5 MAHMUDOV BEKZOD
Ekologik barqarorlik: inson faoliyatida muvozanatni saqlashning falsafiy asoslari — 38

6 HABIBJONOV USMONJON
Analysis of factors affecting the volume of foreign investment in Uzbekistan — 48

7 AMONBOYEV MAHAMMADSIDIK
Directions for effective long-term management of higher education institutions in Uzbekistan — 62

8 OTABOYEV UMRBEK
Yashil texnologiyalar ta’riflarini qiyoslash va o‘lchov asosini tanlash — 74

9 UMAROV BAHROM
Tushuntiruvchi darslik matnini o‘qib tushunish uchun matn treyleriga asoslangan mediatopshiriqlarning nazariy-didaktik modeli — 80

10 RAXMATOV ZIYODULLO, ODILOV AHMADJON
The evolution of the ESG concept and its role in the corporate governance of joint-stock companies — 92

11 MUSTAFAKULOV SHERZOD, MAKSUDOV MASHXURBEK
Ta’limda sun’iy intellekt: undan foydalanishning etik me’yorlari va akademik halollik — 100



**Kamil Tilyabayev**
**Toshkentda Xalqaro Vestminster universiteti katta o‘qituvchisi, ta’lim va ijtimoiy adolat bo‘yicha falsafa doktori (PhD)**
HTTPS://ORCID.ORG/0009-0009-0983-1656

# Til dekolonizatsiyasida sohalararo integratsiya ahamiyati: adabiyotlar sharhi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada til dekolonizatsiyasida sohalararo integratsiya ahamiyatiga e’tibor qaratiladi. U tegishli adabiyotlarning sharhi bo‘lib, to‘rt qismga bo‘lingan. Avvalo, til ta’limi va dekolonizatsiyasini birga o‘rgangan tadqiqotlar tahlil qilinadi. Ikkinchidan, til ta’limida his-tuyg‘ular o‘rni haqidagi izlanishlar ko‘rib chiqiladi. Uchunchidan, til dekolonizatsiyasi, ta’limi va tegishli his-tuyg‘ular kabi uchta soha kesishgan yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar tahlili tadqim etilib, muhim bo‘shliqlar aniqlanadi. To‘rtinchidan, dekolonizatsiya bilan hamisha yonma-yon turuvchi ijtimoiy adolat yetishmasligining asosiy ko‘rninishlari muhokama qilinadi. Maqola so‘ngida tahlil qilingan adabiyotlardan kelgusi izlanishlar uchun xulosalar chiqariladi.

**Kalit so‘zlar:** til, dekolonizatsiya, ta’lim, his-tuyg‘ular, ijtimoiy adolat

## Kirish

Dekolonizatsiya deyilganda, keng ma’noda mustamlakachilik asoratlaridan voz kechish tushuniladi. Mustamlakachilar o‘z hokimiyatini o‘rnatmoqchi bo‘lganda, eng avvalo o‘ziga qaram xalqning ta’lim tizimini, xususan til ta’limini isloh qilishga shoshadi. Bunday “islohotlar” qaram xalqning ona tilini ahamiyatsizlantirishga, ikkinchi til sifatida o‘rganishga yoki umuman yo‘q qilishga xizmat qilishini tasqidlovchi tarixiy misollar talaygina. Ma’lumki, til - dil kaliti, millat ko‘zgusi, uning dunyoqarashini aks ettirayotgan bo‘lib, qaram xalq esa ushbu ko‘zguga va umuman tashqi dunyoga o‘z ko‘zi bilan emas, balki, mustamlakachining ko‘zi bilan qarashi kerak deb hisoblangan. Aynan shuning uchun til dekolonizatsiyasi til ta’limidan boshlanishi kerak.

Mustamlakalikning yana bir e’tiborga molik jihati bor. U mustaqillikni qo‘lga kiritish bilan o‘z o‘zidan yo‘qolib ketmaydi, chunki mustamlakachining mantig‘i mustaqillikka erishgan xalqning turmush tarzida yoki rasm-rusumlarda bo‘lmasa ham, uning oldin isloh qilingan ta’lim tizimida, tilida va til orqali tafakkurida yashrin davom etadi. Bunday yashrin mustamlakachilikka esa faqat his-tuyg‘ular bilan zarba berish mumkinligi ta’kidlanadi (Zembylas, 2022). Ko‘rinib turibdiki, ushbu uchta soha, ya’ni til dekolonizatsiyasi, til ta’limi va his-tuyg‘ular o‘rtasida muayyan bir boq‘liqlik borga o‘xshaydi. Ammo shu bog‘liqlik qanchalik o‘rganilgan? O‘rganilsa, ilmiy hissasi bo‘ladimi?


Ilmiy hissaning o‘ziga xosligi nafaqat noyob geografik va ijtimoiy-siyosiy kontekstga aloqadorligida, balki tadqiqotning kengroq ahamiyatida namoyon bo‘ladi (Baptista va boshq., 2015). Shuning uchun mazkur sohalarda ilmiy tadqiqotlarni ko‘rib chiqish juda muhimdir. Quyidagi kichik bo‘limlar ikkinchi til ta’limi, til dekolonizatsiyasi va his-tuyg‘ular kesishmasidagi asosiy ilmiy yutuqlarni umumlashtiradi hamda ba’zi e’tiborga loyiq bilim bo‘shliqlarini aniqlaydi.

## Ikkinchi til ta’limi va dekolonizatsiya

Ikkinchi til ta’limi tadqiqotlari 1990-yillarda sohada ijtimoiy-madaniy burilish yuz berguniga qadar mustamlakachilik va unga aloqador masalalarni ko‘rib chiqmagan (Chen va Lin, 2023). So‘ngra, ikkinchi til ta’limi va dekolonizatsiya o‘rtasidagi muammolar izlanuvchilarning ilmiy qiziqishini uyg‘otib (masalan, McIvor, 2020), mustamlakachilik va uning til o‘rganishga ta’sirini yaxshiroq tushunishga olib keldi (masalan, Migge va Leglise, 2008; Jahan, 2024). Soha olimlari mustamlakachilik til iyerarxiyalarining rivojlanishiga hissa qo‘shganini, turli tillarga turli maqomlar, kuchlar, kapitallar va foydalanish doiralarini berganini hamda shular orqali postkolonial jamiyatlarda ularga nisbatan tegishli munosabat shakllanganini ta’kidlaydilar (masalan, Phillipson, 1992; Pennycook, 2002; Igboanusi va Peter, 2004; Migge va Leglise, 2008; Brenziger, 2017; Macedo, 2019).

Bu sohadagi hozirgi tadqiqotlar til ta’limi dekolonizatsiyasi, ya’ni uning rivojlanishi va qo‘llanilishi bilan ham bog‘liq. Tadqiqotchilar (masalan, Ortiz, 2009; Chew, Leonard va Rosenblum, 2023; Phyak va boshq., 2023) bunday ta’lim yashirin mustamlakachilikni fosh qilib, ozchilik so‘zlashadigan tillarni o‘quv dasturiga kiritib, hukmron til mafkuralariga tayanmasdan madaniy jihatdan mos usullarda o‘qitish orqali ularni kuchaytiradi, deb ta’kidlaydi. Ikkinchisini, ayniqsa o‘zlikni anglash bilan kesishgan nuqtada o‘rganish alohida tadqiqot yo‘nalishidir. Adabiyotlardan (masalan, Gu, 2010; Norton va Toohey, 2011; McKay, 2013; Lou, 2021; Meighan, 2023) shunisi ma’lumki, hukmron til mafkuralari ko‘pincha: 1) “standart” tillar “nostandart” tillardan ustun degan fikrni ilgari surib, oxirgisining chetga surishi; 2) til ta’limiga ta’sir ko‘rsatib, muayyan bir tilni o‘rganishda kim muvaffaqiyatli, kim esa muvaffaqiyatsiz ekanligini belgilab qo‘yishi; 3) odamlarni hukmron til standartlariga rioya qilishga majburlab, ularning qadrini pasaytirishi va milliy o‘zligini anglashlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Bundan tashqari, ikkinchi til ta’limi va dekolonizatsiya kesishmasidagi zamonaviy tadqiqotlar asosan til jonlantirish va saqlashga qaratilgan (masalan, Fishman 1991; Fettes, 1992; Reyhner va Tennant, 1995; Maurais, 1996; Kirkness, 1998; McCarty, 2008; Hinton, 2014; King va Hermes, 2014; Stacey, 2016; Johnson, 2017; Green va Maracle, 2018; McIvor, 2020). Bu esa Afrika, Amerika qit’alari va Okeaniyadagi ko‘plab yo‘qolish xavfi bor mahalliy tillar uchun katta ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotlardagi asosiy argument - til orqali birovning madaniy merosini tiklash, tub aholining fikrlarini hisobga olish, ularga kuch-g‘ayrat bag‘ishlash, ikkinchi til o‘rgatish metodikalarini moslashtirish va ko‘p tillilikni targ‘ib qilishni o‘z ichiga olgan ko‘p qirrali strategiya zarurligi. Ko‘p tillilik esa



translingvizm bilan birga, hozirda eng jadal o‘rganilayotgan sohalardandir (masalan, Ortega, 2019; Duff, 2019; Wei va Garcia, 2022).

Shu bilan birga, ushbu sohada muhim bo‘lgan ba’zi jihatlar hali atroflicha o‘rganilmagan. Birinchidan, til ta’limi bilan dekolonizatsiyaning nazariy jihatlari bo‘yicha adabiyot empirik tadqiqotlardan ko‘ra ko‘proq (masalan, MacSwan va Rolstad, 2024). Bunday tadqiqotlar esa til ta’limida dekolonial yondashuvlarning til o‘rganilganlik darajasiga va o‘zini anglashga ta’siri (yo‘qligi) haqida qimmatli ma’lumot berishi mumkin. Ikkinchidan, ikkinchi til ta’limi va dekolonizatsiyasi kesishmasidagi tadqiqotlar o‘zlik xususiyatlarini (masalan, millat) (Norton va De Costa, 2018) va til o‘rganish muhitining ayniqsa postkolonial til o‘rganish tajribasiga (Reinders, Lai va Sundqvist, 2022) qanday ta’sir qilishini yanada batafsil o‘rganishi lozim. Nihoyat, ushbu sohalarda zamonaviy tadqiqotlar asosan G‘arb olimlari tomonidan olib boriladi (Selvi, 2024). Ular ikkinchi til ta’limidagi amaliyotlarni



diqqat bilan ko‘rib chiqib, dekolonizatsiya tamoyillariga rioya qilish uchun ularni isloh qilishga harakat qilmoqda. Bu esa til o‘rganish uchun yanada adolatli va inklyuziv muhit yaratishga xizmat qiladi. Albatta, faqatgina Global Janub olimlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlar sobiq mustamlakalardagi dekolonial dinamikani tushunishda yetarli vosita bo‘lmaydi deb tan olish kerak, biroq Global Janubdan ko‘proq ovozlarni, xususan til o‘qituvchilari, faollar, olimlar va umuman olganda, Osiyo, Amerika, Afrika hamda Okeaniyadagi tub aholi vakillarini eshitish muhim. Yuqoridagilarning barchasi o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganayotgan o‘zbek fuqarolarining hissiy tajribalari va (de)kolonial qarashlarini o‘rganishni juda dolzarb qiladi, va bu keyingi tadqiqotlarimizda amalga oshiriladi.

## Ikkinchi til ta’limi va his-tuyg‘ular

Ikkinchi til ta’limi tadqiqotchilarining his-tuyg‘ularga qiziqishi ularning til dekolonizatsiyasiga qiziqishidan farqli o‘laroq, deyarli o‘n yil oldin, ya’ni 1980-yillarda boshlangan. Ikkinchi til ta’limi tadqiqotchilari hozirda his-tuyg‘ularni til o‘rganishning markaziy unsuri sifatida ko‘rib (masalan, Dewaele, 2010), bu jarayonga va uning natijalariga ta’siri katta deb bilishadi. Aftidan, bu sohalar kesishmasidagi eng ko‘p tadqiqotlar aynan til ta’limining hissiy jihatlarini o‘rganishga bog‘liqdir.

Ikkinchi til ta’limidagi hissiyotlarni o‘rganish xavotir (masalan, Horwitz, 1986) va motivatsiya bo‘yicha amaliy tadqiqotlar bilan boshlanib (masalan, Gardner va Smythe, 1981; Dörnyei, 1994), ularga ilmiy e’tibor keyingi 30 yildan beri deyarli pasaymagan. Biroq vaqt o‘tishi bilan olimlar boshqa hissiyotni ham o‘rgana boshlagan. Masalan, Teimouri (2019) empirik tarzda aybdorlik ikkinchi til o‘rganishga yordam berishini, uyat esa unga to‘sqinlik qilishini aniqlagan.

Qiziqarli tomoni shundaki, til o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyani oshirish va unga bog‘liq xavotirni kamaytirish/nazorat qilish istagi, shuningdek, talabalarning o‘zlarini har tomonlama yaxshi his qilishlarini ta’minlashga kuchaygan e’tibor 2010-yillarda ijobiy his-tuyg‘ularning ikkinchi til o‘rganishga ta’sirini ko‘proq tadqiq qilishga olib keldi. Til ta’limida ushbu yo‘nalish ijobiy psixologiya nomini olib (MacIntyre, 2021), til o‘rganish zavqi (masalan, Zheng va Zhou, 2022; Resnik va Schallmoser, 2019; Dewaele va MacIntyre, 2014), dadillik (masalan, Goetze va Driver, 2022), o‘z qobiliyatlariga ishonch (masalan, Mercer, 2011; Young Kyo, 2021) kabi ijobiy his-tuyg‘ular haqidagi yangi izlanishlarga turtki bo‘ldi. Bu ikkinchi til ta’limining hissiy masalalari bo‘yicha tadqiqotlar doirasini kengaytirishga olib keldi.

Ikkinchi til ta’limining hissiyotga bog‘liq jihati haqida gapirganda, unga norasmiy ta’lim ta’sirini inobatga olish zarur. Ma’lumki, ota-bobolar tili maktab/universitetda tahsil olish tilidan farq qilsa, unga munosabat va u orqali milliy ong asosan oilada va eng yaqin davrada shakllanadi (Schalley va Eisenchlas, 2020). Ikkala til ko‘nikmalarini baravar rivojlantirish, ya’ni uyg‘un ikki tillilikni ta’minlash bolalar uchun muhim, lekin ko‘pincha bolalarning ta’lim tili uyda

ota-bobolar tilini siqib chiqaradi. Bu holat ba'zan ota-onalar tomonidan rag'batlantirilib, bolalarni oilalaridan uzoqlashtiradi (De Houwer, 2020). Natijada bola ota-bobolar tilida muloqot qilishdan cho'chib qochishi va uni past darajada bilishi kuzatiladi (Sevinç, 2020).

Bundan tashqari, bolalarning milliy ongi uchun oilalarining uyda ota-bobolar tilini saqlashi juda muhim ekanligi ko'rsatilgan (Tseng, 2020). Ota-bobolar tilini yuqori darajada bilish uzoq qarindoshlar bilan samarali muloqot qilishga va avlodlararo muammolarning oldini olishga yordam beradi (Purkarthofer, 2020). Ko'pincha oilaning til siyosatini ota-onalar tanlashiga qaramay (Curdt-Christiansen va Huang, 2020), bolalar til tanlovida mustaqillikni namoyon etib, oilada odatda ikki tillilik o'rnatilishiga sababchi bo'lishadi. Ammo ular uchun ta'lim tilini bilish nihoyatda muhim, chunki ular kengroq muhitdan chetda qolishni istamaydilar (Smith-Christmas, 2020).

Aslida, ikkinchi til ta'limi va hissiyotga oid tadqiqotlar ikkinchi til o'rganish jarayonidagi ishtirokchilar sonining ortib borishiga (masalan, Sudina va boshq., 2021; Martin, 2023) qaramay, doimiy ravishda yangi usullarni o'rganish (masalan, MacIntyre, 2012; Driver, 2021) va turli yondashuvlardan foydalanish yo'lida ketgan. Globallashuv muammolari va ikkinchi til ta'limiga oid tadqiqot tashabbuslari ushbu ilmiy sohaning mavjud chegaralarini kengaytirmoqda. Ular yangi qarashlar, hissiy jihatlar va epistemologiyalarni ko'rib chiqishda davom etib, ijobiy psixologiya va ijtimoiy adolatga tobora yaxshiroq bog'lanishni ta'minlaydi (Zhou va boshq., 2021; Mercer va Gregersen, 2023).

Ikkinchi til ta'limining hissiy jihatlarini o'rganayotgan tadqiqotchilar soni ortib borayotgani, albatta, turli omillar va sharoitlarni hamda ularning til o'rganishga ta'sirini tadqiq etishga imkon beradi. Ammo tegishli adabiyotlarda turli til o'rganish muhitlarining xilma-xilligi va til o'rganuvchilarning sotsiolingvistik xususiyatlari kabi masalalar hali to'laligicha hisobga olinmagan. Mavjud adabiyotlar asosan maktab yoki universitet muhitidagi vaziyatlarni yoritadi. Ikkinchi til ta'limining hissiy jihatlari haqida esa rasmiy ta'lim kontekstidan tashqarida ko'p ma'lumot yo'q (Driver va Prada, 2024). Biroq bunday tajribalardan o'rganish til o'zlashtirishni yaxshilashga yordam beradi.

Bundan tashqari, mavjud empirik natijalar xalqaro miqyosda qanchalik ishonchli ekanligi haqida savol tug'ilishi mumkin, chunki G'arb ta'lim muhiti hozirgacha tadqiqotchilarning eng ko'p e'tiborini tortgan. Mavjud adabiyotlarning aksariyati ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rganuvchilarga yoki Italiya (MacIntyre va Vincze, 2017), Ruminiya (Pavelescu va Petric 2018; Dewaele va Pavelescu 2021), Vengriya (Piniel va Albert 2018) va Kanada (Boudreau, MacIntyre va Dewaele 2018) kabi g'arb mamlakatlaridagi vaziyatga bag'ishlangan (Driver va Prada, 2024). Shu sababli yuqoridagilardan farqlanib turadigan madaniy va lingvistik profiliga ega ikkinchi til o'rganuvchilarning kechinmalarini va ularning ahamiyatini aniqlash uchun ko'proq tadqiqotlar zarur. Keyingi tadqiqotlarimiz nog'arbiy kontekstdagi o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'rganayotgan o'zbek fuqarolarining hissiy tajribalariga e'tibor qaratib, yuqorida aytilgan bo'shliqlarni samarali to'ldiradi.

## Dekolonizatsiya va ikkinchi til ta'limining hissiy jihatlari

Til dekolonizatsiyasining ta'lim kontekstidagi hissiy jihatlari bo'yicha tadqiqotlar nisbatan kamroq. Biroq til tiklashning hissiy jihatlari va dekolonizatsiya jarayonidagi tizimlarda til o'rganuvchilar duch keladigan qiyinchiliklarni ko'rsatadigan adabiyotlar yo'q emas. Mazkur bo'lim ushbu sohadagi muhim tadqiqotlar tahliliga bag'ishlanadi.

Bu sohada o'rganilgan asosiy masalalardan biri til bilan hissiy bog'liqlikdir. Ba'zi tadqiqotlarda (masalan, Goodin, 2015; Hinton, Huss va Roche, 2018) tub aholining ota-bobolar tili bilan hissiy bog'lanishi, til yo'qolishining halokatli ta'sirlari va tiklanish urinishlarining qiyinchiliklari o'rganilgan. Masalan, til yo'qotish bilan bog'liq uyat yoki til tiklash bilan bog'liq g'urur haqida tadqiqotlar mavjud (masalan, Low, McNeill va Day, 2022; Hamley, 2023).

Bu sohadagi olimlarning qiziqishini uyg'otgan yana bir muammo - til yo'qotish oqibatidagi travma. Bir qator tadqiqotchilar imperiya tillarining qaram xalqlar tillariga ustunlik qilishi natijasida oila ichida va tashqarisida avlodlararo travma yuzaga kelganini ko'rsatgan (masalan, Khawaja, 2021; Napier va Whiskeyjack, 2021). Ushbu sohadagi ishlar til jonlantirish harakatlari tub aholida tegishli travmani yengib o'tishga va madaniyatini qayta tiklashga olib kelishini qayd etgan (masalan, McKenzie, 2022; Whalen va boshq., 2022).

Bu sohada o'rganilgan yana bir jihat bu til bilan bog'liq hayajon va til orqali o'z-o'zini anglashdir. Tadqiqotchilar (masalan, Nee, 2021; Lane, 2023) til bilan bog'liq hayajon va uning til o'rganuvchilarga ta'siri, shuningdek, o'ziga ishonch pasayishi, xatolardan qo'rqish va o'z haqida salbiy tasavvur shakllantirish kabi holatlarni o'rganishgan. Ushbu natijalar til jonlantirish uchun muhimdir, chunki ular o'quvchilarga ota-bobolar tilini hissiy jihatdan xavfsiz muhitda qayta kashf etishda yordam beradi (Achilles, 2018).

Til egalari hamjamiyatlarini qo'llab-quvvatlash bu sohada tadqiqot uchun yana bir istiqbolli yo'nalish hisoblanadi. Tegishli tadqiqotlar til jonlantirish bo'yicha shunday hamjamiyatlarga qanday yordam berish mumkinligini hamda hissiy qo'llab-quvvatlash tizimlari, avlodlararo o'rganish va o'zlikni shakllantirishning ahamiyatini ko'rsatadi (masalan, Wiltshire,

Bird va Hardwick, 2021; Sallabank va King, 2022; Susemihl, 2023). Hamjamiyat faoliyatining hissiy tomonlarini chuqur bilish til jonlantirish uchun madaniy jihatdan mos yondashuvlarni rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin.

Bundan tashqari, bu sohadagi ba'zi ishlar til mafkuralari va stigma masalalariga qaratilgan. Tadqiqotchilar (masalan, Lee, 2009; Madhukar va boshq., 2023) tillar haqidagi turli aqidalar, e'tiqodlar va noto'g'ri tushunchalarni, jumladan qoliplashgan fikrlar, lingvotsid va ba'zi tillarning past maqomi haqidagi keng tarqalgan qarashlarni o'rganishgan. Shu yo'nalishdagi tadqiqotlar til jonlantirishda hissiy to'siqlar va tizimli adolatsizliklarni bartaraf etib, tegishli mafkura va stigmaga qarshi kurashish zarurligini ko'rsatadi.

Yuqorida sanab o'tilgan mavzulardan tashqari, ushbu sohaning hozirgi tadqiqotlari til jonlantirish va o'zlikni anglash kesishmasidagi masalalariga ham bag'ishlangan. Ba'zilari til tiklanishining shaxsiy va jamoaviy tarixlariga asoslangan tadqiqotlar bo'lib, til o'rganish tajribalari, qiyinchiliklar, muvaffaqiyatlar va til jonlantirishning jamiyatlar hamda alohida-alohida shaxslar uchun hissiy ahamiyatini o'z ichiga oladi (masalan, Meek, 2012; Fine, 2021; Flegg, 2024). Boshqalari ikkinchi til ta'limi va dekolonizatsiyasi kesishmasida o'tkazilib, til o'rganish tajribalari va til jonlantirish harakatlari o'zlikning boshqa jihatlari, xususan millat omili ta'sirida qanday kechayotganini yoritadi (masalan, Hinton, 2013; Huang va Chan, 2024).

So'nggi yillarda til dekolonizatsiyasining ta'lim kontekstidagi hissiy jihatlari bo'yicha tadqiqotlar jadallashgan bo'lsa-da, sohada yetarlicha o'rganilmagan mavzular talaygina. Birinchidan, ko'rib chiqilgan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, ota-bobolar tilini tiklashga harakat qilayotgan, tub aholiga mansubligiga qaramay, bugungi kunda ozchilikni tashkil etayotganlarning hissiy tajribasi bu sohadagi tadqiqotlarning asosiy obyekti bo'lib ko'rinadi. Shuning uchun, turli qarashlarni, jumladan tub aholiga mansub bo'lmagan yoki ozchilikni emas, balki ko'pchilikni tashkil etayotgan tub aholi vakillarining fikrlarini ko'rsatish uchun ko'proq tadqiqotlar zarur.

Ikkinchidan, kontekstual omillarga tobora kuchliroq e'tibor qaratilganiga qaramay, ularning turli ta'lim muhitlaridagi hissiy jihatlarga ta'sirini tushunish uchun yanada ko'proq tizimli tadqiqotlar kerak. Bu borada rasmiy ta'lim muassasalari bunday tadqiqotlarning asosiy konteksti bo'lib qolayotganini oldin ta'kidlab o'tganmiz (Driver va Prada, 2024). Shu sababli oila va keng ijtimoiy doiralar kabi norasmiy til o'rganish muhitida ko'proq empirik tadqiqotlar olib borilishi lozim.

Uchinchidan, his-tuyg'ular va o'zlikning til o'rganishga ta'sir qilishi keng tan olingan bo'lsa-da, shaxsning ayrim xususiyatlari (masalan, millati) til dekolonizatsiyasi va ikkinchi til ta'limidagi his-tuyg'ular bilan qanday bog'liq ekanligini yanada chuqurroq o'rganish zarur. Bu bo'shliq dekolonizatsiya va ikkinchi til ta'limi hamda ikkinchi til ta'limi va hissiyot kabi ikki xil kesishmada ham bor, shuning uchun tabiiyki, u ikkalasining kesishmasida ham mavjud. Bundan tashqari, tegishli tadqiqot natijalari til siyosatiga kiritilishi muhim, chunki u ta'lim muhitini shakllantirishda muhim rol o'ynab, o'quvchilarning til profiliga ta'sir ko'rsatadi, shuningdek qamrab olish va chetlashtirish orqali tilni asosiy kamsituvchi omilga aylantirib qo'yadi (Iazetta, 2024). Shu sababdan ikkinchi til ta'limidagi his-tuyg'ular orqali til dekolonizatsiyasini ta'minlaydigan amaliy tadqiqotlarga ehtiyoj bor. Mazkur bo'shliqlarni to'ldirish uchun o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'rganayotgan o'zbek fuqarolarining hissiy tajribalari va (de)kolonial qarashlarini o'rganish ayni muddao bo'lardi. Bunday izlanish ikkinchi til ta'limi orqali til dekolonizatsiyasining hissiy jihatlarini yaxshiroq tushunishga yordam berib, turli madaniy hamda til muhitlarida til dekolonizatsiyasi uchun samarali yondashuvlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

## Ijtimoiy adolat masalasi

Tadqiqot chegaralarini ko'rsatib o'tgach, dekolonizatsiyaning ijtimoiy adolatga ta'sirini hisobga olish joiz. Dekolonizatsiya asosan ijtimoiy adolat bilan bog'liq deb aytish mumkin, chunki ijtimoiy adolat o'rnatish hamda kapitalistik mustamlakachilikning uzoq muddatli oqibatlari va zamonaviy ko'rinishlarini tanqidlash va bartaraf etish ajralmas amallardir. (Tejeda, Espinoza va Gutierrez, 2003). Biroq ikkalasining o'xshash va farqli tomonlari nimadan iborat ekanligini, shuningdek, ular amalda qanday ishlashi mumkinligini tushuntirish muhimdir.

Ularning o'xshashliklari haqida gapiradigan bo'lsak, birinchidan, dekolonizatsiya va ijtimoiy adolat uchun umumiy bo'lgan narsalar tenglik va teng huquqlilikdir (Santos, 2014). Ikkala holatda ham tizimli va tarixiy sabablardan kelib chiqqan kamsitish bilan bog'liq muammolar ko'rib chiqiladi va hal qilinadi. Ikkinchidan, dekolonizatsiya va ijtimoiy adolat chetlashtiruvchi va repressiv hukmron qarashlarga, ijtimoiy va siyosiy g'oyalarga asoslangan kuchlar muvozanatsizligini tanqid qiladi (Mignolo va Walsh, 2018). Uchinchidan, ularning isloh qilish qobiliyati (Tuck va Yang, 2012) mavjud tizimlarni moslashtirishdan ko'ra ularni to'liq qayta tuzishga qaratilgan. Nihoyat, dekolonizatsiya va ijtimoiy adolat tarixan chetlashtirilgan guruhlarni himoya qilib, ularning qarashlarini qadrlab, ularga ustuvorlik berib kelgan (Freire 1978). Til ta'limi amaliyotida dekolonizatsiya va ijtimoiy adolat yondashuvlari o'rtasidagi o'xshashliklar quyidagi masalalarda: 1) tillarni boylik va qashshoqlikka bog'lashda; 2) epistemitsid, ya'ni til rivojlanishi uchun zarur bo'lgan bilim tizimlarini yo'q qilib, til rejalashti-

rish, til maqomi, til ta'limi, tildan foydalanish doirasini kengaytirish, o'quv materiallarini va adabiyotlarni yaratish kabi jihatlarni nazorat qilishda; 3) ikkinchi darajalilik, uyat (masalan, shevalararo farqlar sababli) va hurmatsizlik (masalan, ayrim tillar ba'zi nuqsonlarga ega degan noto'g'ri tushunchalar sababli) uyg'otishda (Roche, 2019) yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu muammolarni hal qilish ham ijtimoiy adolatga, ham dekolonizatsiyaga olib kelishi mantiqiy ko'rinadi.

Shu bilan birga dekolonizatsiya va ijtimoiy adolat o'rtasida muhim farqlar mavjud. Birinchidan, dekolonizatsiyadan farqli o'laroq, ijtimoiy adolat, mustamlakachilik natijasida yuzaga kelganmi yoki yo'qmi, barcha tizimli tengsizliklarga e'tibor qaratadi (Tuck va Yang, 2012). Ikkinchidan, ularning ta'siri farq qiladi. Dekolonizatsiya ko'pincha mustaqillik va madaniy tiklanishga qaratilgan. Bu boshqa chora-tadbirlardan tashqari tub aholi tillarini jonlantirish, madaniy an'analarni mustahkamlash va madaniy chidamlilikni shakllantirishni o'z ichiga oladi. Aksincha, ijtimoiy adolat keng qamrovli imtiyozlar va himoyalarni ta'minlaydi (Simpson, 2017). Nihoyat, ular epistemologik jihatdan farq qiladi. Dekolonizatsiya nog'arbiy tub aholining qarashlariga mos ravishda bilim tizimlarini qayta ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi (Mignolo va Walsh, 2018), ijtimoiy adolat esa turli bilim tizimlarini qamrab, aynan mustamlakachilar o'rnatgan bilim tizimlarini ag'darishga intilmaydi (Fraser, 2009).

Dekolonizatsiya va ijtimoiy adolat o'rtasidagi farqlar amalda bir-biriga muammo tug'dirishi mumkin. Dekolonizatsiya o'zi ijtimoiy adolatsizlik manbasi bo'lishi mumkinligiga ishonib, Lee (2023:187) shunday deydi:

"... Dekolonial ta'limotga amaliyotdan uzilgan nazariyalar, tarixiy tanlovchanlik va Global Janubni ochiqchasiga ideallashtirish juda xos. Xususan, dekolonial harakatlarning millatchilikka yoki qavm-urug'chilikka qarab ketishi epistemik adolat tushunchasini o'ta bahs-munozarali qiladi. Tub aholining shunday bilim namunalari borki, ular irq, jins va din asosidagi tengsizliklarni mustahkamlaydi. Dekolonizatsiya yo'lini tanlagan gibrid o'zlik (irq, madaniyat va millat) egalari ko'payishi bilan o'zlik haqida qoliplashgan tasavvurdan xalos bo'lish nihoyatda muhim."

Bundan tashqari, dekolonizatsiya va ijtimoiy adolat bir-biriga zid bo'lgan aniq vaziyatlarni tushunish uchun ba'zi dekolonial fikrlarga berilgan tanqidlarni ham hisobga olish lozim. Masalan, dunyoni "G'arb" va "G'arb emas" deb ko'rish (Mignolo, 2003, 2009, 2011) uning murakkabligini aks ettirmaydi, o'zaro bog'langan va gibrid tarixlarni inobatga olmaydi. Bu tarixlar ikkala tomonning xilma-xilligini shakllantirib, kamsitishni battarlashtiradi (Táíwò, 2022). Shu bilan birga dekolonizatsiya maqsadida qonli inqilobga urg'u berish (Fanon, 1963) uning murakkab va noaniq oqibatlarini hisobga olmasdan (Scott, 2004), adolatsizlikni kuchaytiradi (Memmi, 2021). Yana bir tanqid mustamlakachilik natijasida keng tarqalgan Yevropa tillaridan to'liq voz kechilishi bilan bog'liq (wa Thiong'o, 1986). Bu mahalliy tillarning kuchayishi bilan birga qimmatli ma'lumotlardan foydalanishni cheklashi, odamlarning kasbiy o'sishi va farovonligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin (Mbembe, 2015). Til o'rganishda bu jihatlarning barchasi e'tiborga olinishi kerak, shunda til ta'limi dekolonizatsiyaga hissa qo'shadimi yoki o'quvchilarga zarar yetkazadimi, tushunish mumkin. Shu asnoda mazkur masalalar o'zbek kontekstida qanday namoyon bo'lishini ko'rish juda qiziqarli bo'lardi. Ushbu masala keyingi tadqiqotlarimizda o'rganiladi.

## Xulosa

Ushbu maqolada ikkinchi til ta'limi, dekolonizatsiya va his-tuyg'ular bo'yicha asosiy global tendensiyalar umumlashtirildi. Bundan tashqari, til dekolonizatsiyasida sohalararo integratsiya ahamiyati ko'rsatilib, ba'zi muhim bo'shliqlar aniqlangan. Shuningdek, dekolonizatsiya va ijtimoiy adolat bir-biriga taqqoslanib, yagona maqsadda va qarama-qarshilikda ishlash holatlari yoritilgan. Mazkur sharhdan asosiy xulosa shundan iboratki, post-kolonial ko'pchilik tilini ikkinchi til sifatida o'rganish, uning dekolonizatsiyasi va tegishli his-tuyg'ular hech qachon birgalikda tadqiq etilmagan. Shu sababli o'zbek kontekstida ham shunga o'xshash tadqiqot olib borish maqsadga muvofiqdir.

## Foydalanilgan manbalar ro 'yxati

1. Achilles, R.L., 2018. Emotion, language, and identity: using language revitalization techniques to create low-anxiety learning environments (Doctoral dissertation, University of British Columbia).

2. Baptista, A., Frick, L., Holley, K., Remmik, M., Tesch, J. and Âkerlind, G., 2015. The Doctorate as an Original Contribution to Knowledge: Considering Relationships between Originality, Creativity, and Innovation. Frontline Learning Research, 3(3), pp.55-67.

3. Boudreau, C., MacIntyre, P. and Dewaele, J.M., 2018. Enjoyment and anxiety in second language communication: An idiodynamic approach. Studies in Second Language Learning and Teaching, 8(1), pp. 149-170.

4. Brenziger, M., 2017. Language contact and language displacement. The handbook of sociolinguistics, pp. 271-284.

5. Chen, Q. and Lin, A.M., 2023. Social structures, everyday interactions, and subjectivity—where (and how) does decolonizing begin? —Attending to desires, fears, and pains. Critical Inquiry in Language Studies, 20(2), pp.105-126.

6. Chew, K.A.B., Leonard, W.Y. and Rosenblum, D., 2023. Decolonizing Indigenous language pedagogies: Additional language learning and teaching. Handbook of languages and linguistics of North, pp. 767-788.

7. Curdt-Christiansen, X.L. and Huang, J., 2020. Factors influencing family language policy. Handbook of social and affective factors in home language maintenance and development, pp. 174-193.

8. De Houwer, A., 2020. Harmonious bilingualism: Well-being for families in bilingual settings. Handbook of home language maintenance and development: Social and affective factors, pp. 63-83.

9. Dewaele, J.M. and MacIntyre, P.D., 2014. The two faces of Janus? Anxiety and enjoyment in the foreign language classroom. Studies in second language learning and teaching, 4(2), pp. 237-274.

10. Dewaele, J.M. and Pavelescu, L.M., 2021. The relationship between incommensurable emotions and willingness to communicate in English as a foreign language: a multiple case study. Innovation in Language Learning and Teaching, 15(1), pp. 66-80.

11. Dewaele, J.M., 2010. Emotions in multiple languages. Basingstoke: Palgrave Macmillan.

12. Dörnyei, Z., 1994. Motivation and motivating in the foreign language classroom. The modern language journal, 78(3), pp. 273-284.

13. Driver, M. and Prada, J., 2024. Global perspectives on heritage language education and emotion: Introduction to the special issue. Modern Language Journal, 108(S1), pp. 3-13.

14. Driver, M., 2021. Book Review: Psychophysiological Methods in Language Research–Rethinking Embodiment in Studies of Linguistic Behaviors by Bahiyyih Hardacre. Journal for the Psychology of Language Learning, 3(2), pp. 166-168.

15. Duff, P.A., 2019. Social dimensions and processes in second language acquisition: Multilingual socialization in transnational contexts. The Modern Language Journal, 103, pp. 6-22.

16. Fanon, F., 1963. The wretched of the earth. New York: Grove press.

17. Fettes, M., 1992. A guide to language strategies for First Nations communities. Languages and Literacy Secretariat, Assembly of First Nations.

18. Fine, J.C., 2021. Decolonial vitalities: Kodiak Alutiiq language revitalization as cultural reclamation. University of California, Santa Barbara.

19. Fishman, J.A., 1991. Reversing language shift: Theoretical and empirical foundations of assistance to threatened languages (Vol. 76). Multilingual matters.

20. Flegg, O., 2024. "That's Our Language. That's Who We Are.": Documenting the Strengths and Challenges of Ojibwe Language Revitalization in Neyaashiinigmiing (Doctoral dissertation, University of Guelph).

21. Fraser, N., 2009. Scales of justice: Reimagining political space in a globalizing world (Vol. 31). Columbia University press.

22. Freire, P., 1978. Pedagogy of the oppressed. In Toward a sociology of education. Routledge.

23. Gardner, R.C. and Smythe, P.C., 1981. On the development of the attitude/motivation test battery. Canadian Modern Language Review, 37(3), pp. 510-525.

24. Goetze, J. and Driver, M., 2022. Is learning really just believing? A meta-analysis of self-efficacy and achievement in SLA. Studies in Second Language Learning and Teaching, 12(2), pp. 233-259.

25. Goodin, M., 2015. Language revitalization and historical trauma: A historical analysis of the Chickasaw and Chikashshanompa'. Young Researcher, 17(1), pp. 5-15.

26. Green, J. and Maracle, O.B., 2018. The root-word method for building proficient second-language speakers of polysynthetic languages: Onkwawén: na Kentyókhwa Adult Mohawk Language Immersion Program. In The Routledge handbook of language revitalization (pp. 146-155). Routledge.

27. Gu, M.M., 2010. Identities constructed in difference: English language learners in China. Journal of Pragmatics, 42(1), pp. 139-152.

28. Hamley, L., 2023. Intergenerational Affect, Language Trauma, and Pride: Young Māori Men's Emotional Experiences of Te Reo Māori. Journal of Language, Identity & Education, pp. 1-14.

29. Hinton, L. ed., 2013. Bringing our languages home: Language revitalization for families. Heyday. ORIM.

30. Hinton, L., 2014. Language revitalization and language pedagogy: New teaching and learning strategies. In Applied Linguists Needed (pp. 41-52). Routledge.

31. Hinton, L., Huss, L.M. and Roche, G. eds., 2018. The Routledge handbook of language revitalization. New York: Routledge.

32. Horwitz, E.K., 1986. Preliminary evidence for the reliability and validity of a foreign language anxiety scale. TESOL Quarterly, 20(3), pp. 559-562.

33. Huang, H.T. and Chan, H.Y., 2024. Heritage identity and Indigenous language learning motivation: A case of Indigenous Taiwanese high school students. The Modern Language Journal, 108(S1), pp. 127-146.

34. Iazzetta, G., 2024. Understanding the role of language policy in the construction and maintenance of inequalities in Tunisia and Morocco (Doctoral dissertation, University of Essex).

35. Igboanusi, H. and Peter, L., 2004. Oppressing the oppressed: The threats of Hausa and English to Nigeria's minority languages. Int'l. J. Soc. Lang. 170, pp. 131–140.

36. Jahan, N., 2024. Impact of Colonialism on Indigenous Languages: A Historical Perspective. Non-Human Journal, 1(4), pp.38-49.

37. Johnson, S.M.K., 2017. Syilx language house: How and why we are delivering 2,000 decolonizing hours in Nsyilxcn. Canadian Modern Language Review, 73(4), pp. 509-537.

38. Khawaja, M., 2021. Consequences and remedies of Indigenous language loss in Canada. Societies, 11(3), p. 89.

39. King, K.A. and Hermes, M., 2014. Why is this so hard? Ideologies of endangerment, passive language learning approaches, and Ojibwe in the United States. Journal of Language, Identity & Education, 13(4), pp. 268-282.

40. Kirkness, V.J., 1998. The critical state of Aboriginal languages in Canada. Canadian Journal of Native Education, 22(1)., pp. 93-108.

41. Lane, P., 2023. From silence to silencing? Contradictions and tensions in language revitalization. Applied Linguistics, 44(5), pp. 833-847.

42. Lee, J.T., 2023. Romanticizing decolonisation and Asian epistemology: Reflections on identity and space. Asia Pacific Education Review, 24(2), pp. 187-197.

43. Lee, T.S., 2009. Language, identity, and power: Navajo and pueblo young adults' perspectives and experiences with competing language ideologies. Journal of language, identity, and education, 8(5), pp. 307-320.

44. Lou, N.M., 2021. Acculturation in a postcolonial context: Language, identity, cultural adaptation, and academic achievement of Macao students in Mainland China. International Journal of Intercultural Relations, 85, pp. 213-225.

45. Low, D.S., Mcneill, I. and Day, M.J., 2022. Endangered languages: A sociocognitive approach to language death, identity loss, and preservation in the age of artificial intelligence. Sustainable Multilingualism, 21(1), pp. 1-25.

46. Macedo, D., 2019. Rupturing the yoke of colonialism in foreign language education: An introduction. In Decolonizing foreign language education (pp. 1-49). Routledge.

47. MacIntyre, P.D. and Vincze, L., 2017. Positive and negative emotions underlie motivation for L2 learning. Studies in Second Language Learning and Teaching, 7(1), pp. 61-88.

48. MacIntyre, P.D., 2012. The idiodynamic method: A closer look at the dynamics of communication traits. Communication Research Reports, 29(4), pp. 361-367.

49. MacSwan, J. and Rolstad, K., 2024. (Un) grounded language ideologies: A brief history of translanguaging theory. International Journal of Bilingualism, p. 13670069241236703.

50. Madhukar, K.C., Cushing, I., Dovchin, S., Flores, N., Phyak, P., Tupas, R. and Yazan, B., 2023. In conversations with scholars on contemporary issues and research agendas in language ideologies. Journal of Education, Language, and Ideology, 1(1), pp. 146-165.

51. Martin, C., 2023. Modern foreign language learning: Exploring the possible impact of parental experiences on student motivation. Innovation in Language Learning and Teaching, 17(2), pp. 321-339.

52. Maurais, J., 1996. The situation of Aboriginal languages in the Americas. Multilingual Matters, pp. 1-42.

53. Mbembe, A., 2015. Decolonizing knowledge and the question of the archive. Africa is a Country, contributed by Angela Okune, Platform for Experimental Collaborative Ethnography, Platform for Experimental Collaborative Ethnography.

54. McCarty, T.L., 2008. Native American languages as heritage mother tongues. Language, Culture and Curriculum, 21(3), pp. 201-225.

55. McIvor, O., 2020. Indigenous language revitalization and applied linguistics: Parallel histories, shared futures? Annual Review of Applied Linguistics, 40, pp. 78-96.

56. McKay, M., 2013. Language, Identity, Power Relations, and Discourse: A Cree Language Response to Linguistic Imperialism. Native Studies Review, 22(1), pp. 27-53.

57. McKenzie, J., 2022. Addressing historical trauma and healing in Indigenous language cultivation and revitalization. Annual Review of Applied Linguistics, 42, pp. 71-77.

58. Meek, B.A., 2012. We are our language: An ethnography of language revitalization in a Northern Athabaskan community. University of Arizona Press.

59. Meighan, P.J., 2023. Colonialingualism: Colonial legacies, imperial mindsets, and inequitable practices in English language education. Diaspora, Indigenous, and Minority Education, 17(2), pp. 146-155.

60. Memmi, A., 2021. The colonizer and the colonized. Routledge.

61. Mercer, S. and Gregersen, T., 2023. Transformative positive psychology in the acquisition of additional languages. Journal of Multilingual and Multicultural Development, pp. 1-16.

62. Mercer, S., 2011. Towards an understanding of language learner self-concept (Vol. 12). Springer Science & Business Media.

63. Migge, B. and Léglise, I., 2008. Language and colonialism: Applied linguistics in the context of creole communities. Hellinger, A. and Pauwels, P.(eds.). Handbook of Language and Communication: Diversity and Change.

64. Mignolo, W. D., 2009. The idea of Latin America. John Wiley & Sons.

65. Mignolo, W. D., and Walsh, C. E., 2018. On decoloniality: Concepts, analytics, praxis. Duke University Press.

66. Mignolo, W., 2003. The darker side of the Renaissance: Literacy, territoriality, and colonization. University of Michigan Press.

67. Mignolo, W., 2011. The darker side of western modernity: Global futures, decolonial options. Duke University Press.

68. Napier, K. and Whiskeyjack, L., 2021. wahkotowin: Reconnecting to the Spirit of nêhiyawêwin (Cree Language). Engaged Scholar Journal, 7(1), pp. 1-24.

69. Nee, J.E., 2021. Participatory action research in Teotitlán del Valle Zapotec language revitalization. University of California, Berkeley.

70. Norton, B. and De Costa, P.I., 2018. Research tasks on identity in language learning and teaching. Language Teaching, 51(1), pp. 90-112.

71. Norton, B. and Toohey, K., 2011. Identity, language learning, and social change. Language teaching, 44(4), pp. 412-446.

72. Ortega, L., 2019. SLA and the study of equitable multilingualism. The Modern Language Journal, 103, pp. 23-38.

73. Ortiz, P.R., 2009. Indigenous Knowledge and Language: Decolonizing Culturally Relevant Pedagogy in a Capuche Intercultural Bilingual Education Program in Chile. Canadian Journal of Native Education, 32(1), pp. 93-114.

74. Pavelescu, L.M. and Petrić, B., 2018. Love and enjoyment in context: Four case studies of adolescent EFL learners. Studies in Second Language Learning and Teaching, 8(1), pp. 73-101.

75. Pennycook, A., 2002. English and the discourses of colonialism. Routledge.

76. Phillipson, R., 1992. Linguistic Imperialism. Oxford: Oxford University Press.

77. Phyak, P., Sánchez, M.T., Makalela, L. and García, O., 2023. Decolonizing multilingual pedagogies. In The Routledge handbook of multilingualism (pp. 223-239). Routledge.

78. Piniel, K. and Albert, A., 2018. Advanced learners' foreign language-related emotions across the four skills. Studies in Second Language Learning and Teaching, 8(1), pp. 127-147.

79. Purkarthofer, J., 2020. Intergenerational challenges: Of handing down languages, passing on practices, and bringing multilingual speakers into being. Handbook of home language maintenance and development, pp. 130-150.

80. Reinders, H., Lai, C. and Sundqvist, P. eds., 2022. The Routledge handbook of language learning and teaching beyond the classroom. Routledge.

81. Resnik, P. and Schallmoser, C., 2019. Enjoyment as a key to success? Links between e-tandem language learning and tertiary students' foreign language enjoyment. Studies in Second Language Learning and Teaching, 9(3), pp. 541-564.

82. Reyhner, J. and Tennant, E., 1995. Maintaining and renewing native languages. Bilingual research journal, 19(2), pp. 279-304.

83. Roche, G., 2019. Linguistic injustice, decolonization, and language endangerment. Foundation for Endangered Languages XXIII Causes of language endangerment: Looking for answers and finding solutions to the global decline in linguistic diversity.

84. Sallabank, J. and King, J., 2022. 17 Language, Identity and empowerment in endangered Language Contexts. Multilingualism and Identity: Interdisciplinary Perspectives, pp. 341-363.

85. Santos, B.D.S., 2015. Epistemologies of the South: Justice against epistemicide. Routledge.

86. Schalley, A.C. and Eisenchlas, S.A. eds., 2020. Handbook of home language maintenance and development: Social and affective factors (Vol. 18). Walter de Gruyter GmbH & Co KG.

87. Scott, D., 2004. Conscripts of modernity: The tragedy of colonial enlightenment. Duke University Press.

88. Selvi, A.F., 2024. The myopic focus on decoloniality in applied linguistics and English language education: citations and stolen subjectivities. Applied Linguistics Review. doi: 10.1515/applirev-2024-0011.

89. Sevinç, Y., 2020. Anxiety as a negative emotion in home language maintenance and development. Handbook of home language maintenance and development: Social and affective factors, pp. 84-108.

90. Simpson, L. B., 2017. As we have always done: Indigenous freedom through radical resistance. U of Minnesota Press.

91. Smith-Christmas, C., 2020. 11 Child agency and home language maintenance. Handbook of home language maintenance and development: Social and affective factors, 18, pp. 218-235.

92. Stacey, I., 2016. Ientsitewate'nikonhraié: ra'te Tsi Nonkwá: ti Ne Á: se Tahatikonhsontóntie. Master's thesis, University of Victoria, BC, Canada. UVicSpace.

93. Sudina, E., Vernon, T., Foster, H., Del Villano, H., Hernandez, S., Beck, D. and Plonsky, L., 2021. Development and initial validation of the L2-Teacher Grit Scale. TESOL Quarterly, 55(1), pp. 156-184.

94. Susemihl, G., 2023. Indigenous Empowerment and Community Development through Heritage. In Claiming Back Their Heritage: Indigenous Empowerment and Community Development through World Heritage (pp. 89-145). Cham: Springer Nature Switzerland.

95. Táíwò, O., 2022. Against decolonisation: Taking African agency seriously. Hurst Publishers.

96. Teimouri, Y., 2019. Exploring the Links between Second Language Learners' Proneness to Shame and Proneness to Guilt and their Language Learning Motivation and Achievement. Georgetown University.

97. Tejeda, C., Espinoza, M., and Gutierrez, K., 2003. Toward a decolonizing pedagogy: Social justice reconsidered. In Pedagogies of difference. Routledge., pp. 9-37.

98. Tseng, A., 2020. Identity in home-language maintenance. Handbook of home language maintenance and development: social and affective factors, 18, pp. 109-129.

99. Tuck, E., and Yang, K. W., 2012. Decolonization is not a metaphor. Decolonization: Indigeneity, education & society, 1(1), pp. 1–40.

100. wa Thiong'o, N., 1986 Decolonising the Mind: The Politics of Language in African Literature. London: James Currey.

101. Wei, L. and García, O., 2022. Not a first language but one repertoire: Translanguaging as a decolonizing project. RELC journal, 53(2), pp. 313-324.

102. Whalen, D.H., Lewis, M.E., Gillson, S., McBeath, B., Alexander, B. and Nyhan, K., 2022. Health effects of Indigenous language use and revitalization: a realist review. International Journal for Equity in Health, 21(1), p. 169.

103. Wiltshire, B., Bird, S. and Hardwick, R., 2022. Understanding how language revitalisation works: a realist synthesis. Journal of Multilingual and Multicultural Development, pp. 1-17.

104. Zembylas, M., 2022. Toward affective decolonization: Nurturing decolonizing solidarity in higher education. Journal of Curriculum and Pedagogy, pp.1-20.

105. Zheng, S. and Zhou, X., 2022. Positive influence of cooperative learning and emotion regulation on EFL learners' foreign language enjoyment. International journal of environmental research and public health, 19(19), p. 12604.

106. Zhou, L., Dewaele, J.M., Lochtman, K. and Xi, Y., 2023. Foreign language peace of mind: a positive emotion drawn from the Chinese EFL learning context. Applied Linguistics Review, 14(5), pp. 1385-1410.



**Abduraxmanova Iqbolxon Yulchiyevna**
**Toshkent davlat tibbiyot universiteti 2-son akademik litseyi, biologiya fani o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)**
**abdurahmonova.iqbolxon@gmail.com**

# BIOLOGIYA O‘QITISH JARAYONIDA EKOLOGIK-INTEGRATIV YONDASHUVLAR

**Annotatsiya:** Ushbu maqola biologiya o‘qitish jarayonida ekologik-integrativ yondashuvlarni o‘rganishga bag’ishlangan. Tadqiqotning asosiy maqsadi — xalqaro tajribadagi ekologik-integrativ modellarni tahlil qilish va O‘zbekiston ta’lim tizimida biologiya o‘qitish jarayoniga ushbu yondashuvlarni joriy etish imkoniyatlarini aniqlashdir.

Tadqiqot muammosi shundan iborat: O‘zbekiston umumta’lim maktablarining 7–11-sinf biologiya dasturlarida fanlararo ekologik integratsiya tizimli tarzda amalga oshirilmaydi. Bu esa o‘quvchilarda ekologik ta’lim-tarbiya samaradorligiga salbiy ta’sir qiladi.

Tadqiqotda qiyosiy-tarixiy tahlil va tizimli tahlil metodlaridan foydalanildi. Manba sifatida xalqaro ilmiy maqolalar, Kembrij va Singapur, Finlyandiya va Germaniya milliy ta'lim dasturlari, GreenComp (Bianchi va boshq., 2022) doirasi hamda O‘zbekistonning amaldagi normativ hujjatlari tahlil qilindi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki: birinchidan, Kembrij va Singapurda fanlararo ekologik integratsiya milliy dastur darajasida mustahkamlangan va bu tizimli natija bermoqda; ikkinchidan, O‘zbekistonda 1–4-sinflarda joriy etilgan "Tabiiy fanlar" dasturi ijobiy qadam bo‘lsa-da, bu yondashuv 7–11-sinflarda davom ettirilmagan; uchinchidan, GreenComp doirasidagi ekologik kompetentliklar O‘zbekiston biologiya dasturida hali to‘liq aks etmagan.

Tadqiqot xulosasi sifatida 7–11-sinf biologiya dasturlariga fanlararo ekologik modul kiritish, GreenComp kompetentliklarini ta’lim maqsadi sifatida rasmiy dasturga qo‘shish va o‘qituvchilarni qayta tayyorlash tizimiga fanlararo o‘qitish modulini kiritish tavsiya etiladi. Ushbu xulosalar O‘zbekiston ekologik ta'lim siyosatini xalqaro standartlarga moslashtirishga amaliy hissa qo‘shadi.

**Kalit so‘zlar:** ekologik ta’lim, fanlararo integratsiya, biologiya o‘qitish, o‘quv dasturlari, ekologik ta’lim-tarbiya barqaror rivojlanish, ekologik-integrativ yondashuv, GreenComp.

## KIRISH

*1.1. Mavzuning dolzarbligi.* Insoniyat faoliyati natijasida yuzaga kelayotgan global ekologik muammolar — iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning kamayishi, tabiiy resurslarning haddan tashqari sarflanishi va ekologik muammolarning inson salomatligiga salbiy ta’sirining ortib borishi ta’lim tizimida ekologik yo‘nalishni tubdan qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Bu esa o‘z navbatida ta’lim jarayonida ekologik savodxonlik qo‘shimcha yo‘nalish emas, balki har bir o‘quvchida shakllantirilishi lozim bo‘lgan asosiy hayotiy kompetensiya sifatida tan olinishiga olib kelmoqda. (UNESCO, 2021). Biologiya o‘qitish jarayoni esa o‘z tabiati jihatidan ekologik tafakkurni rivojlantirish uchun eng qulay muhit hisoblanib, unda ekologik bilimlar bilan ekologik tarbiya uyg’un ravishda olib borish zarurligini anglatmoqda.

*1.2. Tadqiqot muammosi.* BMTning Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (4-maqsad va 13-maqsad) ekologik kompetentlikni milliy ta’lim tizimlarining strategik yo‘nalishi sifatida belgilab qo‘ygan (BMT, 2015). Yevropa GreenComp modeli esa ushbu kompetentlikni tizimli tafakkur, istiqbolni bashorat qilish va axloqiy qadriyatlar sintezi asosida talqin etadi (Bianchi va boshq., 2022). Biroq O‘zbekistonda biologiya o‘qitish jarayoni

hali ham asosan bilim berishga yo‘naltirilgan an’anaviy ko‘rinishda amalga oshirilmoqda: fanlararo bog’liqlik, qadriyatlar tarbiyasi va amaliy ekologik faoliyat ikkinchi o‘rinda qolmoqda. Xalqaro ilg’or amaliyot bilan mahalliy ta’lim o‘rtasidagi ushbu metodologik tafovut tadqiqotning asosiy muammosini belgilaydi.

*1.3. Tadqiqot maqsadi va vazifalari.* Tadqiqotning asosiy maqsadi — biologiya ta’limida ekologik-integrativ yondashuvlarning xalqaro tajribasini O‘zbekiston amaliyoti bilan qiyosiy tahlil qilish va ekologik ta’lim-tarbiyani rivojlantirishning metodologik asoslarini aniqlash. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

— xalqaro biologiya ta’limida qo‘llanilayotgan ekologik-integrativ yondashuvlarni tizimlashtirib o‘rganish;

— O‘zbekiston umumta’lim maktablarida biologiya o‘qitish amaliyotini tahlil qilish;

— xalqaro va O’zbekiston biologiya ta’limi o‘rtasidagi metodologik farqlarni qiyosiy baholash;

— o‘quvchilarda ekologik ta’lim-tarbiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik tavsiyalar ishlab chiqish.

*1.4. Adabiyotlar sharhi.* Ekologik ta’lim nazariyasining poydevori XX asrning oxirida yaratildi. Orr (1992) o‘zining “Ecological Literacy” kitobida ekologik savodxonlikni zamonaviy ta’limning muhim tarkibiy qismi sifatida taklif etdi va ta’limiy inqirozning ildizi tabiatdan uzilib qolishda ekanligini ko‘rsatdi. Tilbury (1995) esa, “Environmental Education Research” jurnalida barqaror rivojlanish uchun ta’limni alohida pedagogik yo‘nalish sifatida asoslab berdi — bu maqola bugungi kunda ham ilmiy ishlarda ko‘p iqtibos keltiriladi. Sterling (2001) “Sustainable Education” asarida ta’limni shunchaki bilim berish emas, balki insonni tabiat bilan yangi munosabatga olib kiradigan o‘zgartiruvchi jarayon sifatida talqin etadi.

Kompetensiyaviy yondashuv nuqtai nazaridan Yevropa Ittifoqi tomonidan tayyorlangan GreenComp doirasi (Bianchi va boshq., 2022) hozirgi kunda ekologik ta’lim sohasidagi eng muhim me’yoriy hujjatlardan biri sifatida tan olinmoqda. Mazkur hujjatda ekologik kompetentlik to‘rtta o‘zaro chambarchas bog’liq soha orqali tavsiflanadi: barqarorlik qadriyatlarini idrok etish, barqaror kelajak sari tasavvurni rivojlantirish, o‘zgarishlarni qabul qilishga tayyorlik hamda amaliy harakat ko‘nikmalarini egallash. Ushbu konseptual doira Yevropa mamlakatlarining ko‘pchiligida ta’lim mazmuniga bosqichma-bosqich singdirib borilmoqda va milliy ta’lim dasturlarini yangilashda asosiy mezon vazifasini o‘tamoqda.

O‘zbekistonda ham bu sohada ilk qadamlar qo‘yilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g’risida”gi Qonuni (2020) ta’lim jarayonida fanlar uzviyligini va ekologik bilimlarni shakllantirishni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, biologiya, geografiya va kimyo fanlarini birgalikda o‘qitish



o‘quvchilarning ekologik muammolarni chuqurroq tushunishiga yordam bermoqda (Niyozov va boshq., 2024). Shuningdek, 11-sinf biologiya darsligida fanlararo yondashuv asosida olib borilgan tadqiqot — Toshkentdagi to‘rtta maktabda 120 nafar o‘quvchi ishtirokida — integratsiya samarali natija berishini ko‘rsatdi (Rahimova M.e-conferences.org, 2024–2025).

Shunday bo‘lsa-da, O‘zbekiston biologiya ta’limini xalqaro ekologik-integrativ yondashuvlar bilan qiyosiy o‘rganuvchi maxsus tadqiqotlar hali kam. Bu esa mazkur maqolaning dolzarbligini belgilaydi.

## METODOLOGIYASI

Tadqiqotda uchta asosiy usuldan foydalanildi. Birinchisi — qiyosiy-tarixiy tahlil: turli davrlardagi ekologik ta’lim modellarining qanday shakllanib borishi kuzatildi. Ikkinchisi — tizimli tahlil: ta’lim standartlari va o‘quv dasturlari bir butun tizim sifatida ko‘rib chiqildi. Uchinchisi — paradigmal tahlil: ta’limdagi nazariy yondashuvlar o‘rtasidagi farqlar aniqlandi.

Birlamchi ma’lumotlar xalqaro ilmiy maqolalar, milliy ta’lim standartlari va amaliy o‘quv dasturlari asosida to‘plandi. O‘zbekiston amaliyotini baholash uchun amaldagi biologiya o‘quv dasturlari hamda “Ta’lim to‘g’risida”gi Qonun (2020) kabi normativ hujjatlar tahlil qilindi.

Xalqaro tajribani o’rganishda beshta mamlakat tizimi tayanch sifatida olindi. Lindemann-Matthies va boshqalar (2009) tomonidan o’tkazilgan qiyosiy

tadqiqot Finlyandiya, Germaniya va Shveytsariya maktablarida biologiya o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida fanlararo integratsiyaning qanday tatbiq etilayotganini ko'rsatib berdi. Chexiya maktablarida Cincera va Krajhanzl (2013) Eco-Schools dasturini baholab, o'quvchilarning amaliy ekologik kompetentligini shakllantirishda qaror qabul qilish jarayoniga jalb etilishning hal qiluvchi ahamiyatini asoslab berdi. Ushbu topilma metodologiyamiz uchun muhim tayanch bo'ldi: o'quvchiga faqat bilim uzatish emas, balki uni haqiqiy ekologik jarayonning ishtirokchisiga aylantirish zarurligini ko'rsatdi.

Kembrij va Singapur tajribasi ham alohida e'tiborga loyiq, chunki O'zbekiston aynan shu mamlakatlarning o'quv dasturlarini mahalliylashtirish yo'lini tutmoqda. Kembrij dasturlari (Cambridge International) biologiya o'qitishda ilmiy-tadqiqot ko'nikmalarini va tanqidiy fikrlashni markazga qo'yadi hamda ekologik mavzularni amaliy loyihalar orqali o'zlashtirishga yo'naltiradi. Singapur esa "kam o'qit, ko'p o'rgan" (Teach Less, Learn More) tamoyili asosida o'quvchida mustaqil ekologik fikrlash malakasini shakllantirishga ustuvorlik beradi. Ikki tizim ham nazariy bilimni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish orqali ekologik kompetentlikni rivojlantiradi va O'zbekiston uchun samarali metodologik namuna bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Ushbu besh manbaning tanlanishi o'ziga xos mantiqqa ega. Finlyandiya va Germaniyada fanlararo integratsiya rasmiy o'quv dasturlariga singdirilgan, Chexiyada maktabdan tashqari ekologik dasturlar ustuvor rol o'ynaydi, Kembrij amaliy loyihalar va tanqidiy fikrlashga, Singapur esa o'quvchi mustaqilligiga tayanadi. Bu turli yondashuvlarni qiyoslash O'zbekiston uchun nazariy va amaliy xulosalar chiqarish imkonini berdi.

*2.1. Tadqiqot yondashuvi.* Ushbu tadqiqot *qualitative* yondashuv asosida qurilgan. Xususan, qiyosiy hujjatli tahlil *(comparative documentary analysis)* usuli qo'llanildi. Bu yondashuv ta'lim siyosati va o'quv dasturlarini o'rganuvchi nazariy ishlarda keng tan olingan: u bir necha mamlakat yoki tizimning rasmiy hujjatlarini tizimli ravishda solishtirish va umumiy xulosalar chiqarish imkonini beradi (Chiu et al., 2022). Tadqiqot miqdoriy ma'lumot to'plashni nazarda tutmaydi — uning maqsadi mavjud ta'lim tizimlari va standartlardagi yondashuvlarni tahlil qilish va O'zbekiston biologiya ta'limi uchun xulosalar ishlab chiqishdir.

*2.2. Ma'lumotlar yig'ish usullari va manbalari.* Ma'lumotlar ikkilamchi manbalar orqali yig'ildi. Birlamchi ma'lumot to'plash (so'rovnoma, intervyu, eksperiment) nazariy tadqiqotning xarakteridan kelib chiqib o'tkazilmadi. Foydalanilgan manba turlari: Xalqaro rasmiy hujjatlar: GreenComp — Yevropa barqarorlik kompetentlik doirasi (Bianchi et al., 2022); Kembrij, Singapur, Finlyandiya va Germaniya milliy o'quv dasturlari; O'zbekiston normativ hujjatlari: O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (2020); biologiya fanidan amaldagi umumta'lim o'quv dasturlari; Ilmiy adabiyotlar: 2021–2025-yillarda *Sustainability*, *Environmental Education Research* va *Journal of Cleaner Production* jurnallarida nashr etilgan maqolalar.

*2.3. Tadqiqot jarayoni.* Tadqiqot uch ketma-ket bosqichda amalga oshirildi.

*Birinchi bosqich — manba tanlash va ro'yxatga olish (2024-yil, 1-oy).* Adabiyotlar bazasida kalit so'zlar yordamida qidiruv o'tkazildi: "interdisciplinary ecology education", "biology curriculum integration", "sustainability competence school", "fanlararo biologiya ta'limi". Topilgan manbalar 5 yillik va mavzuviy mezon asosida saralab olindi.

*Ikkinchi bosqich — qiyosiy tahlil (2024-yil, 2–3-oy).* Tanlangan mamlakatlar ta'lim tizimlari uchta mezon bo'yicha solishtirildi: (1) fanlararo integratsiyaning rasmiy dasturga kiritilganligi; (2) ekologik kompetentlikni baholash usullari; (3) o'qituvchilarni tayyorlash tizimi. O'zbekiston amaldagi biologiya dasturlari ham xuddi shu mezonlar asosida tahlil qilindi.

*Uchinchi bosqich — xulosalar va tavsiyalar (2024-yil, 4-oy).* Tahlil natijalaridan kelib chiqib, O'zbekiston biologiya ta'limida fanlararo ekologik integratsiyani kuchaytirish bo'yicha amaliy takliflar shakllantirildi.

*2.4. Ma'lumotlar tahlili usullari.* Yig'ilgan hujjatlar ikki usul orqali tahlil qilindi.

*Kontent tahlili (content analysis):* har bir hujjatda ekologik integratsiyaga oid qoidalar, atamalar va standartlar aniqlandi va kodlash jadvaliga kiritildi.

*Tematik tahlil (thematic analysis):* barcha manbalar bo'yicha uchta asosiy mavzu ajratildi: ekologik kompetentlik tushunchasi, fanlararo integratsiya modellari va ta'lim natijalari. Bu yondashuv nazariy hujjatli tadqiqotlarda keng tan olingan (Bowen, 2009).

Tahlil dasturiy ta'minot ishlatilmay — an'anaviy qo'lda kodlash orqali amalga oshirildi, chunki manbalar soni cheklangan va chuqur talqin talab etadi.

*2.5. Cheklovlar.* Ushbu tadqiqotda uchta asosiy cheklov mavjud. *Birinchidan*, empirik ma'lumotlar to'planmagan — sinfxona kuzatuvi yoki o'qituvchilar so'rovnomasi o'tkazilmagan, bu esa O'zbekistondagi real amaliyotni to'liq aks ettirmasligi mumkin. Ikkinchidan, xalqaro qiyoslash Finlyandiya, Germaniya, Chexiya, Kembrij va Singapur tizimlari bilan chegaralangan; Janubiy Koreya yoki Xitoy kabi boshqa yirik ta'lim tizimlari qamrab olinmagan, bu esa xulosalarning geografik umumlashtirilish imkoniyatini toraytiradi. Uchinchidan, O'zbekiston ichidagi hududiy farqlar — xususan, shahar va qishloq maktablari o'rtasidagi tafovut — tadqiqot doirasidan tashqarida qolgan. Mazkur cheklovlar tadqiqot natijalarini inkor etmaydi, balki kelajakdagi empirik ishlar uchun aniq yo'nalish belgilaydi.

## TAHLILLAR



*3.1. Natijalarni sharhlash.* Qiyosiy tahlil fanlararo integratsiyaning biologiya ta'limida ekologik ta'lim-tarbiyani rivojlantirishning eng samarali yo'llaridan biri ekanligini tasdiqladi. Finlyandiyada biologiya, geografiya va kimyo darslari yagona ekologik mavzular atrofida uyg'unlashtiriladi; o'quvchilar sinf ichida ham, tabiat sharoitida ham kuzatuvlar olib borib, ekologik bilimlarini amaliyot orqali mustahkamlaydi. Germaniyada ekologiya alohida modul sifatida tashkil etilgan bo'lib, biologiya, fizika va kimyo fanlari ushbu modulni mazmunan boyituvchi manba vazifasini bajaradi. Chexiya modelida maktabdan tashqari Eco-Schools dasturi markaziy o'rinni egallaydi: o'quvchilar o'z maktablarida energiya va suv sarfini kuzatib, real ekologik muammolarni hal etishga yo'naltiriladi.

Kembrij dasturlarida ekologik mavzular mustaqil tadqiqot ishlari va amaliy loyihalar orqali o'zlashtiriladi; o'quvchi bilimni tayyor holda qabul qiluvchi emas, balki uni o'zi tadqiqotchi sifatida faoliyat yuritadi. Singapur modelida o'quvchining mustaqil ekologik fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ustuvor vazifa hisoblanadi; bu tizimda chuqur tushunish ko'p miqdordagi ma'lumotdan yuqori qo'yiladi.

O'zbekiston amaldagi biologiya o'quv dasturlarini ushbu modellar bilan taqqoslaganda bir muhim farq ko'zga tashlanadi. O'zbekistonda 2021–2022 o'quv yilidan boshlab boshlang'ich sinflarda "Tabiiy fanlar" (SCIENCE) integratsiyalashgan dasturi joriy etildi — bu ijobiy qadam. Biroq 7–11-sinf biologiya dasturlarida fanlararo integratsiya tizimli tarzda emas, balki yakka darslar misolida uchraydi. Toshkentdagi maktablarda 11-sinf biologiyasi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot ham shuni tasdiqladi: fanlararo yondashuv qo'llanilgan o'quvchilar ekologik bilimlarni chuqurroq o'zlashtirgani va amaliy ko'nikmalarini yaxshiroq rivojlantirgani aniqlandi (e-conferences.org, 2024–2025).

*3.2. Natijalarning ahamiyati.* Ushbu tahlilning ilmiy ahamiyati shundaki, u O'zbekiston biologiya ta'limining xalqaro ekologik-integrativ modellar bilan qiyosiy manzarasini birinchi marta tizimli shaklda taqdim etmoqda. Amaliy ahamiyati esa yanada kattaroq. Natijalar ko'rsatadiki, faqat biologiya darsida ekologiya mavzularini o'rgatish yetarli emas — geografiya, kimyo va fizika o'qituvchilari bilan hamkorlikda tuzilgan birgalikdagi darslar, loyiha ishlari va monitoring mashg'ulotlari o'quvchida ekologik ta'lim-tarbiyani haqiqiy ma'noda shakllantiradi.

Bundan tashqari, GreenComp (Bianchi et al., 2022) doirasida belgilangan to'rtta kompetentlik sohasi — qadriyatlarni anglash, murakkablikni qabul qilish, barqaror kelajakni tasavvur etish va amalda harakat qilish — O'zbekiston o'quv dasturlarida ham maqsad sifatida ko'zda tutilishi mumkin. Bu xalqaro ta'lim standartlariga integratsiyalashuvning ham amaliy yo'li bo'lib xizmat qiladi.

*3.3. Topilmalarni solishtirish.* Ushbu tadqiqot natijalari bir qator xalqaro ilmiy ishlar bilan mos keladi. Chiu va boshqalar (2022) ham hujjatli qiyosiy tahlil orqali fanlararo ekologik ta'limning samaradorligi milliy o'quv dasturiga tizimli kiritilgandagina namoyon bo'lishini ko'rsatgan. Niyozov va boshqalar (2024) esa O'zbekiston kontekstida xuddi shu xulosaga kelgan: biologiya darslarida fanlararo yondashuv o'quvchilarda muammolarni hal qilish ko'nikmalarini va ekologik tafakkurni rivojlantirishda sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Farq shundaki, Yevropa mamlakatlarida integratsiya yuqoridan — milliy dastur va standartlar orqali — amalga oshiriladi. O'zbekistonda esa hozircha bu ko'proq individual o'qituvchining tashabbusiga bog'liq. Bu farq natijalarning barqarorligiga ham ta'sir qiladi: tashabbuskor o'qituvchi o'z maktabida yaxshi natijaga erisha oladi, lekin bu tajriba tizimli tarqalmaydi.

*3.4. Cheklovlar.* Ushbu tahlil bir qator cheklovlarni hisobga olishi lozim. Birinchidan, O'zbekiston bo'yicha hujjatli manbalar cheklangan — sinfxona kuzatuvi yoki keng ko'lamli so'rovnoma o'tkazilmagan. Shuning uchun xulosalar to'liq empirik asosga ega emas. Ikkinchidan, taqqoslash uchun tanlangan mamlakatlarining tajribasidan tashqari Qozog'iston yoki Qirg'iziston tajribasi ham e'tiborga olinmagan. Uchinchidan, O'zbekiston maktablarining shahar va qishloq o'rtasidagi farqlari tahlilga kiritilmagan — bu esa amaliy tavsiyalarni qo'llash doirasini toraytirishi mumkin.

*3.5. Amaliy tavsiyalar.* Tahlil asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. *Birinchi tavsiya:* 7–11-sinf biologiya dasturlariga fanlararo ekologik modul kiritilishi lozim. Bu modulda biologiya o'qituvchisi geografiya, kimyo va fizika o'qituvchilari bilan hamkorlikda kamida oyiga bir marta birgalikdagi dars o'tkazishi nazarda tutilsa, tizimlilik ta'minlanadi. *Ikkinchi*

*tavsiya:* GreenComp (Bianchi et al., 2022) doirasidagi to‘rtta kompetentlik sohasi O‘zbekiston biologiya ta’limining maqsadlari sifatida rasmiy dasturga kiritilishi maqsadga muvofiq. Bu xalqaro standartlar bilan muvofiqlashuvni ham ta’minlaydi. *Uchinchi tavsiya:* Chexiya Eco-Schools modeliga o‘xshash maktabdan tashqari ekologik monitoring dasturlari joriy etilishi kerak. O‘quvchilar o‘z maktabi yoki mahallasidagi havo, suv yoki tuproq holatini kuzatib, ma’lumot to‘plasa — bu nazariy bilimni amaliyot bilan bog’laydi. *To‘rtinchi tavsiya:* O‘qituvchilar malakasini oshirish tizimida fanlararo ekologik ta’lim alohida modul sifatida kiritilishi lozim. Hozircha biologiya o‘qituvchilari bu sohada maxsus tayyorgarlik olmaydi.

*3.6. Kelgusidagi tadqiqotlar uchun takliflar.* Ushbu tadqiqot bir nechta yangi yo‘nalish uchun asos bo‘lishi mumkin. Birinchi yo‘nalish — empirik tadqiqot: O‘zbekistonning turli hududlaridagi maktablarda (shahar, qishloq, kam ta’minlangan tumanlar) fanlararo ekologik darslar o‘tkazib, natijalarni kuzatish. Ikkinchi yo‘nalish — qiyosiy tadqiqotni kengaytirish: Qozog’iston, Qirg’iziston va Tojikiston tajribasini ham tahlilga qo‘shib, Markaziy Osiyo mintaqasidagi umumiy manzarani aniqlash. Uchinchi yo‘nalish — o‘qituvchilar bilan sifatli tadqiqot: biologiya o‘qituvchilarining fanlararo integratsiyaga munosabati, to‘siqlari va ehtiyojlari haqida chuqur intervyular o‘tkazish. Bu uchta yo‘nalish birgalikda O‘zbekiston ekologik ta’lim siyosatini ilmiy asosda shakllantirishga xizmat qiladi.

## NATIJALAR

*4.1. Asosiy topilmalar.* Ushbu tadqiqot uchta asosiy topilmalar aniqlandi. *Birinchi topilma:* O‘zbekiston biologiya ta’limida ekologik-integrativ yondashuv tizimli emas, balki yakka tartibda qo‘llanilmoqda. Amaldagi 7–11-sinf o‘quv dasturlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, ekologiya mavzulari biologiya fanida alohida bo‘limlar sifatida mavjud, ammo geografiya, kimyo yoki fizika fanlari bilan rasmiy hamkorlik mexanizmi belgilanmagan. Bu holat Kembrij, Singapur, Finlyandiya va Germaniya modellaridan tubdan farq qiladi — u mamlakatlarda fanlararo integratsiya milliy dastur darajasida mustahkamlangan. *Ikkinchi topilma:* Boshlang’ich ta’limda (1–4-sinf) joriy etilgan “Tabiiy fanlar” (SCIENCE) integratsiyalashgan dasturi ijobiy qadam bo‘lib, biologiya, geografiya va fizika asoslarini bir yaxlit kursda birlashtiradi. Biroq o‘rta va yuqori sinflarda bu yondashuv davom ettirilmaydi — ya’ni integratsiya faqat boshlang’ich bosqich bilan chegaralanib qolgan. *Uchinchi topilma:* GreenComp (Bianchi et al., 2022) doirasida belgilangan to‘rtta ekologik kompetentlik sohasi O‘zbekiston biologiya dasturining mavjud maqsadlari bilan qisman mos keladi, biroq “murakkablikni qabul qilish” va “amalda harakat qilish” sohalari hozirgi dasturlarda deyarli aks etmagan.

*4.2. Raqamli dalillar.* Xalqaro tadqiqotlar integratsiyalashgan o‘qitishning samaradorligini raqamlarda ham tasdiqlaydi. Kreijkes & Greatorex (2024) tomonidan o‘tkazilgan keng ko‘lamli sharhlar tahlili (1990–2022-yillar oralig’idagi 9 ta meta-tahlilni qamrab olgan) ko‘rsatdiki, integratsiyalashgan o‘quv dasturlari o‘quvchilarning fan bilimlarini o‘zlashtirish darajasini an’anaviy alohida fanlar yondashuvi bilan solishtirganda deyarli teng darajada ta’minlaydi. O‘zbekiston kontekstida esa 11-sinf biologiyasi bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot (e-conferences.org, 2024–2025) — Toshkentdagi 4 ta maktabda 120 nafar o‘quvchi ishtirokida — fanlararo yondashuv qo‘llanilgan guruhlarda ekologik bilimlar darajasi an’anaviy dars o‘tkazilgan guruhga nisbatan yuqori bo‘lganini qayd etdi.

*4.3. Tadqiqot savollari bo‘yicha natijalar.* Tadqiqotda qo‘yilgan birinchi savol- ,Xalqaro ekologik--integrativ modellar qanday tarkibga ega? Birinchi savolga javob: tahlil qilingan mamlakatlar modelida umumiylik mavjud. Ular rasmiy dastur darajasida integratsiya mustahkamlanganligi, o‘qituvchilar hamkorligiga institutsional shart-sharoit yaratilganligi va o‘quvchining passiv tinglovchidan faol ekologik muammo hal qiluvchiga aylantirilishi. GreenComp hujjatlarida (Bianchi et al., 2022) bular barqaror talimining universal mezonlari sifatida tan olingan.

Ikkinchi savol O‘zbekiston biologiya ta’limi bu modellardan qay darajada foydalanmoqda? - deb qo’yilgan va unga javob: O‘zbekiston hozirgi bosqichda ushbu uch unsurning faqat birinchisini — ya’ni boshlang’ich sinflarda rasmiy integratsiyani — qisman amalga oshirgan. O‘qituvchilar hamkorligiga shart-sharoit hali tizimli tarzda yaratilmagan, o‘quvchining faol ekologik muammo hal qiluvchi sifatida shakllantirilishi esa o‘quv dasturiga rasman kiritilmagan.

*3.4. Qiyosiy jadval.* Quyida beshta mamlakat va O‘zbekiston biologiya ta’limidagi ekologik-integrativ yondashuvning asosiy ko‘rsatkichlari keltirilgan.

*1-jadval. Ekologik-integrativ yondashuvning mamlakatlaro taqqosiy tahlili. (Muallif tomonidan bajarilgan)*

| Ko‘rsatkich | Kembrij | Singapur | Finlyandiya | Germaniya | Chexiya | O‘zbekiston |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Rasmiy dasturda integratsiya** | Ha | Ha | Ha | Ha | Qisman | Faqat 1–4-sinf |
| **O‘qituvchilar hamkorligi tizimi** | Ha | Ha | Ha | Ha | Qisman | Yo‘q |
| **Maktabdan tashqari ekologik dastur** | Qisman | Qisman | Qisman | Qisman | Ha (Eco-Schools | Yo‘q |
| **GreenComp kompetentliklari bilan muvofiqlik** | Yuqori | Yuqori | Yuqori | Yuqori | O‘rta | Past |
| **O‘quvchi faol muammo hal qiluvchi sifatida** | Ha | Ha | Ha | Ha | Ha | Qisman |

*3.5. Kutilmagan natijalar.* Tadqiqot jarayonida bir kutilmagan topilma aniqlandi. O‘zbekistonda 2021–2022 o‘quv yilidan boshlang’ich sinflarda joriy etilgan “Tabiiy fanlar” dasturi ilmiy adabiyotlarda deyarli o‘rganilmagan — bu sohadagi mahalliy tadqiqotlar soni juda kam. Bu holat bir tomondan kamchilik, ikkinchi tomondan esa imkoniyat: mazkur dasturning samaradorligini o‘rganuvchi empirik tadqiqotlar uchun keng maydon mavjud. Bundan tashqari, O‘zbekiston o‘qituvchilari fanlararo hamkorlikka qiziqish bildirayotgani, biroq bunga yo‘l ko‘rsatuvchi metodik qo‘llanmalar yetishmasligi ham aniqlandi. Bu esa amaliy tavsiyalar uchun muhim asos bo‘ldi.

## XULOSA

Ushbu tadqiqot biologiya o‘qitish jarayonida ekologik ta’lim-tarbiyani rivojlantirishda ekologik-integrativ yondashuvlarning xalqaro tajribasi va O‘zbekiston amaliyotini qiyosiy o‘rganishga bag’ishlandi. Natijalar aniq bir manzarani ko‘rsatdi: fanlararo integratsiya ekologik ta’lim-tarbiyani rivojlantirishning eng samarali yo‘li, lekin bu yo‘l O‘zbekistonda hali to‘liq o‘zlashtirilmagan.

Kembrij, Singapur, Finlyandiya va Germaniyada ekologik integratsiya milliy dastur darajasida mustahkamlangan va bu tizimli natija bermoqda. O‘zbekistonda 1–4-sinflarda “Tabiiy fanlar” dasturi ijobiy qadam bo‘ldi, biroq 7–11-sinflarda bu yondashuv xozircha to‘liq yakunlanmagan. GreenComp (Bianchi et al., 2022) doirasidagi ekologik kompetentliklar O‘zbekiston dasturida hali to‘liq aks etmagan.

Tadqiqot maqsadiga erishildi. Xalqaro modellar tahlil qilindi, O‘zbekiston amaliyotidagi bo‘shliqlar aniqlandi va ularni to‘ldirish yo‘llari taklif etildi.

Muammoning yechimi bitta gapda: 7–11-sinf biologiya dasturlariga fanlararo ekologik modulni rasman kiritish va o‘qituvchilar hamkorligini institutsional darajada ta’minlash.

Amaliy tavsiyalar to‘rtta: biologiya dasturida fanlararo ekologik modul joriy etilsin; GreenComp kompetentliklari ta’lim maqsadi sifatida qabul qilinsin; Chexiya Eco-Schools tajribasiga o‘xshash maktab ekologik monitoring dasturlari tashkil etilsin; o‘qituvchilarni qayta tayyorlash tizimiga fanlararo o‘qitish moduli qo‘shilsin.

Cheklov bir — empirik ma’lumot yetishmaydi. Xulosalar hujjatli tahlilga asoslangan. Sinfxona kuzatuvi yoki so‘rovnoma o‘tkazilmagan. Bu natijalarning amaliy tasdig’ini kelgusidagi tadqiqotlar berishi kerak.

Kelgusidagi tadqiqotlar uchun eng muhim yo‘nalish — O‘zbekistonning turli hududlaridagi maktablarda fanlararo ekologik darslarni sinab ko‘rish va natijalarni o‘lchash. Shuningdek, Markaziy Osiyo mamlakatlari — Qozog’iston, Qirg’iziston — tajribasi bilan qiyosiy tadqiqot o‘tkazish ham muhim ilmiy qiymatga ega bo‘ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Bianchi, G., Pisiotis, U., & Cabrera Giraldez, M. (2022). *GreenComp – The European sustainability competence framework*. Publications Office of the European Union. https://doi.org/10.2760/13286

2. Kreijkes, P., & Greatorex, J. (2024). Differential effects of subject-based and integrated curriculum approaches on students’ learning outcomes: A review of reviews. *Review of Education*, *12*(1), Article e3465. https://doi.org/10.1002/rev3.3465

3. Niyozov, Q., va boshq. (2024). Biologiya ta’limida fanlararo integratsiya. *Scientific Review of the Problems and Prospects of Modern Education*. https://e-conferences.org/index.php/usa/article/download/245/410

4. O‘zbekiston Respublikasi. (2020). *“Ta’lim to‘g’risida”gi Qonun* (O‘RQ-637-son, 2020-yil 24-sentabr). https://lex.uz/docs/5013009

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). *Ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g’risida* (PF-6108-son, 2020-yil 6-noyabr). https://lex.uz/docs/5093164

6. Ostanov, J. E. (2023). Milliy qadriyatlar va yoshlar ekologik madaniyatini shakllantirish. *Educational Research in Universal Sciences*, *2*(17 Special), 327–331. https://erus.uz/index.php/er/article/view/5200

7. Sultanova, N. B., Toshpo‘latova, N. I., & Azimov, B. I. (2025). Biologiya, kimyo va geografiya fanlarni o‘qitishda iqtidorli o‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish. *Zenodo*. https://doi.org/10.5281/zenodo.17640582

8. Toshkent maktablarida biologiya fanlararo darslari tadqiqoti: 11-sinf “Inson va biosfera” bo‘limi. (2024). *Scientific Review of Modern Education*. https://e-conferences.org/index.php/france/article/download/248/416/412

9. UNESCO. (2021). *Education for sustainable development: A roadmap*. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000374802



**Haydarova Kamola Bahodirovna**

**Ph.D. Candidate, Center for Higher Education Development and Global Cooperation under the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan**
**E-mail: kamolahaydarova@mail.ru**

# EMBEDDING EXTERNAL QUALITY ASSURANCE IN CREDIT-MODULAR SYSTEMS: HOW MALAYSIA'S QUALIFICATIONS ARCHITECTURE BRIDGES THE POLICY-PRACTICE GAP FOR UZBEKISTAN

**Abstract.** The credit-modular system is now the standard structure of higher education in Uzbekistan, but its value depends on external quality assurance (EQA): the standards, accreditation, and recognition that turn a credit into a unit of trust. This article argues that EQA works as a transmission mechanism that should carry quality from the system level down to module-level practice, and that this mechanism characteristically fails at the outcome level, producing a policy–practice gap. Using a qualitative comparative document analysis, the study examines Malaysia as a middle-income case in which the mechanism transmits, and compares it with Uzbekistan, where the external machinery has only recently been built. The findings show that Malaysia's strength lies not in its agency alone but in a single connective instrument, the Malaysian Qualifications Framework, which ties credits to learning outcomes and embeds them in accreditation. Uzbekistan has established an independent national quality agency and a state accreditation system, but it has not yet built this connective framework, and its indicators remain input-oriented. The article concludes that Uzbekistan should add the connective framework and an enhancement orientation; without them, reform risks isomorphic mimicry, in which EQA looks complete but does not improve learning.

**Keywords:** credit-modular system; external quality assurance; qualifications framework; policy–practice gap; Malaysia; Uzbekistan; higher education reform.

## INTRODUCTION

Uzbekistan has reformed the structure of its higher education system in less than ten years. Three policy documents drove this change: the Concept for the Development of the Higher Education System until 2030, the 2020 resolution that gave the credit-modular system its legal basis, and the 2020 Law on Education. [1], [2], [3] Together, they made the credit-modular system the standard way of organizing study in the country's universities. In terms of formal adoption, the transition is complete.

However, formal adoption is only the easier part of any quality reform. The credit-modular system is mainly a way of designing and measuring study. It divides a program into modules, gives each module a credit value based on student workload, and links that value to defined learning outcomes. [4] What the system cannot do on its own is guarantee quality. It cannot ensure that a credit earned at one university represents the same learning as a credit of the same value earned at another, or that a module really delivers the outcomes it promises. This guarantee does not come from inside the credit-modular structure. It comes from outside it: from standards that an institution does not set for itself, from review that it does not carry out on itself, and from recognition that it cannot give to itself. This is the role of external quality assurance (EQA). It is the condition that turns a credit from a simple number into a unit of trust.

This article argues that EQA works as a transmission mechanism. Its purpose is to carry quality from the level where it is governed — the system, the agency, and the qualifications framework — down to the level where students experience it, which is the module and the assessment. Across twenty years of credit-modular reform, this transmission often fails. Structural and procedural requirements usually travel well, because they are visible and linked to accreditation. However, the outcome-level guarantees that matter most — proven competence, credit transfer, and graduate employment — are often weakly applied in practice. [5], [6], [7] This distance between what policy requires and what institutions actually do is the policy–practice gap. It is the central problem of this article.

For Uzbekistan, this gap is an urgent question, because the external machinery is still new. In September 2025, a presidential decree established the National Agency for the Assurance of Education Quality. For the first time, the country had a central body responsible for coordinating quality assurance, assessment, and accreditation, based on international standards and with formal institutional independence. [8] At the same time, the government introduced institutional and program state accreditation, based on self-assessment, independent external review, and on-site evaluation. Within months,



sixty-two institutions had entered the first accreditation cycle. [9] The external apparatus now exists. Therefore, the main question is no longer whether Uzbekistan has external quality assurance, but whether it will work as real enhancement or become only administrative compliance.

The existing literature raises this question but does not answer it. Most research on quality assurance for modular education comes from high-income, Bologna-aligned systems, where the model began. [10], [11] The main reference documents — the European Standards and Guidelines and the INQAAHE guidelines — were written for systems with mature agencies, autonomous institutions, and an established quality culture. [12], [13] These documents describe what good external quality assurance looks like. They say much less about how a middle-income system, reforming quickly and from a centralized past, can build that assurance so that it reaches the module level. The cases used in the literature do not resemble Uzbekistan. This is the gap the article addresses. The problem is not a lack of standards, but a lack of proven middle-income models for applying them.

Malaysia is chosen as such a model. It is not presented as an example to copy completely, but as a

working case of the transmission mechanism in conditions closer to Uzbekistan's than any European system. Malaysia is a middle-income country, it has internationalized its higher education actively, and it built its external system around one connecting instrument. The Malaysian Qualifications Framework (MQF) defines qualifications through three linked criteria: levels, learning outcomes, and credit. According to the Malaysian Qualifications Agency, the MQF is an integral part of the agency's quality-assurance practice, and learning outcomes are checked when institutions submit programs for accreditation. [14] In this way, framework, credit, outcome, and assurance form one structure rather than four separate policies. This integration is what Uzbekistan's new system has not yet achieved, and the article argues that it is the key factor.

## Conceptual framework

Three commitments turn these ideas into an analytical framework. First, external quality assurance is not treated as another word for accreditation. It is understood as an umbrella term with four connected parts: external standards (framework descriptors, program standards, codes of practice), external machinery (the agency, accreditation, audit, and peer review), external indicators (the measures used to judge achievement), and external pressures (employer demands, professional bodies, and international recognition). Quality assurance "based on external factors" means that all four parts work together.

Second, the analysis uses an implementation lens. Quality is produced where teaching and assessment happen, not where they are governed. The Structure–Process–Outcome model helps to locate the failure. [15] External assurance can secure good structures and correct procedures but still fail at the outcome level, where quality is hardest to measure and most important. The policy–practice gap is therefore a predictable result when one stage of the mechanism does not work.

Third, the analysis explains why the gap continues even after the machinery is built. This explanation comes from the literature on policy borrowing and state capability. Reforming systems often import the forms of more developed systems as signs of modernity and legitimacy. [16], [17] A related danger is premature load-bearing, when a new agency is asked to do too much too soon and becomes weaker instead of stronger. In a middle-income setting, the difference between compliance and enhancement therefore becomes especially important. The risk is not only a "tick-box" culture, but a capability trap, in which external quality assurance looks complete but does not work in practice.

These commitments lead to the main proposition of the article. External quality assurance is the mechanism that should bring quality to module-level practice. It often fails at the outcome level, which produces the policy–practice gap. It fails because external forms are treated as compliance instead of being used for enhancement. Malaysia shows how a middle-income system can connect framework, credit, outcome, and assurance so that the mechanism works. At the same time, its own tensions show that this architecture is necessary but not sufficient. The article therefore addresses three questions:

1. What does external quality assurance include as an integrated mechanism, and how is it supposed to reach module-level practice in credit-modular systems?
2. How does Malaysia's qualifications architecture organize this mechanism, and where are its strengths and limits?
3. What conditional lessons does this offer for Uzbekistan, where the external architecture now exists, but its integration with the credit-modular system and its orientation toward enhancement are still unsettled?

## METHODS

This article uses a qualitative, comparative document analysis. It does not collect new field data. Instead, it examines how external quality assurance is designed and applied in two higher education systems and compares them against a common framework. This approach fits the research questions, because the object of study is policy and institutional design, which is recorded mainly in official documents, laws, and quality-assurance guidelines. The study follows an interpretive logic. It treats educational quality not as a fixed measure but as a concept that each system defines and applies in its own way. The aim is therefore not to rank Malaysia and Uzbekistan, but to understand how each system builds the transmission mechanism described above, and where that mechanism is strong or weak.

Malaysia was selected purposively, as a "most relevant" case rather than a representative one. It is useful here because it shows the transmission mechanism working under conditions similar to Uzbekistan's: it is a middle-income country, it built its external quality-assurance architecture deliberately and recently, and it organized that architecture around a single connecting instrument, the Malaysian Qualifications Framework. These features make Malaysia a clearer test of the argument than any high-income European system. Uzbekistan is the target case, to which the lessons are applied.

The comparison was carried out in three steps. First, each system was mapped against the four components of external quality assurance: standards, machinery, indicators, and pressures. Second, the Structure–Process–Outcome model was used to



locate the point where quality assurance reaches, or fails to reach, module-level practice. [15] Third, the two systems were compared thematically, and the main results are summarized in a comparison table. Two limitations follow from this design. The study analyses intended design, not daily institutional behavior, and that empirical work belongs to a later stage of the research. Official documents may also differ from practice; to reduce this risk, the analysis uses independent studies where available and treats official claims as statements of intention. These limits suit the aim of the article, which is to establish an analytical lens and conditional lessons rather than to evaluate institutions.

## RESULTS

**The policy–practice gap in credit-modular quality assurance**

The international evidence shows a consistent pattern in how credit-modular systems are monitored. Quality requirements that are structural or procedural are usually applied well, while requirements that concern outcomes are applied weakly. Structural requirements, such as credit rules, recognition policies, and the existence of an accreditation process, are visible and easy to check. Process requirements, such as completion rates and assessment procedures, are also recorded routinely. These elements travel well from policy into practice, partly because institutions must show them in order to pass accreditation. [5]

The picture changes at the outcome level. Outcomes such as proven competence, successful credit transfer between institutions, graduate employment, and equal access for different social groups appear clearly in policy documents and international guidelines, but they are measured far less often inside institutions. [6], [7] In other words, systems tend to monitor what is easy to count rather than what policy considers most important. Using the Structure–Process–Outcome model, the gap can be located precisely. [15] It is not mainly at the structural or process stage, but at the outcome stage, where the link between a credit and real, demonstrated learning is supposed to be confirmed.

Several conditions keep this gap open. Information about learners, programs, and the labor market is often held in separate systems that do not connect, so outcomes such as employability or credit transfer cannot be tracked easily. [6] Institutions also work under several overlapping authorities — national agencies, professional bodies, and international partners — and this encourages them to do the minimum needed to satisfy each one, rather than

to build one coherent system. [5] Finally, many institutions lack the analytical capacity to collect and use outcome data, so they rely on simple measures that are cheap to produce. These conditions are not unique to any one region; reviews of quality assurance in Asia and worldwide report the same imbalance between strong procedural compliance and weak outcome measurement. [18] [11] The gap, therefore, is a structural feature of credit-modular quality assurance, not an accident of one system.

**Malaysia's qualifications architecture**

Malaysia addresses this gap through a single connecting instrument rather than through separate measures. The Malaysian Qualifications Framework (MQF) defines every qualification in the country through three linked criteria: the level of the qualification, its learning outcomes, and its credit value. [11] The framework has eight levels, from certificates (Levels 1–3) through diplomas (Levels 4–5) to bachelor's, master's, and doctoral degrees (Levels 6–8). It also defines five clusters of learning outcomes — covering knowledge, skills, and values — that apply across all levels. The MQF was first published in 2007 and enforced from 2011. Its second edition was approved in 2017 and became mandatory in 2020, and it was updated again in 2024. [14]

The important feature is not the framework itself, but how it is connected to quality assurance. The MQF is managed by the Malaysian Qualifications Agency (MQA), the national body established under the MQA Act of 2007. According to the agency, the MQF is an integral part of its quality-assurance practice: program design, learning outcomes, teaching, assessment, and improvement are all embedded in the quality-assurance standards, and learning outcomes are verified and evaluated when institutions submit their programs for accreditation. [14] In this system, a credit is never separated from the outcome it represents, because the same framework defines both, and the agency checks both at the same time.

This connection is put into practice through a set of codes and processes. Program accreditation is governed by the Code of Practice for Program Accreditation, and institutional review by the Code of Practice for Institutional Audit and the Institutional Quality Audit Framework. [19],[20],[21] Accreditation is not a single event but a cycle: a program first receives provisional accreditation, then full accreditation, and is then maintained through periodic audit. Each stage uses self-assessment by the institution, followed by review from an external panel. Accredited programs are listed in the public Malaysian Qualifications Register, which allows students, employers, and foreign institutions to confirm the status and value of a qualification. The register turns recognition into a visible, external fact rather than an internal claim.

The results have four theoretical implications. First, the paper broadens the last-mile principle to that of not only delivering to consumers but to the final-mile environments as well. The last mile is more than just the last physical mile to a consignee, in seaport–dry port multimodal systems. It is the last contact point where cargo flow, information flow and documentary flow and responsibility allocation are to be synced. Second, by proposing LMIPI as a conceptual diagnostic index, the paper contributes a structured way to represent multidimensional interface pressure without overstating it as a calibrated econometric estimator. Third, the paper connects port regionalization with collaborative governance. Although regionalisation of ports helps to understand why inland nodes have been included in the competitiveness of a seaport, it does not explain how the coordination needs to be organised when various autonomous actors control different parts of the interface. The essence of collaborative governance is dedicated to shared rules, institutionalized coordination, trust-building, and joint decision-making, which fill this gap. Fourth, performance optimisation is also associated with digital coordination in the paper. Unless there is joint planning authority and sharing of responsibility and incentives at the corridor level, visibility platforms alone will not help to cut handover delays. The essential key management principle should be that technology can only generate value when it is integrated with suitable organizational structures and rules of performance.

Corridor-level governance and interface standardization should thus be prioritised for the Ningbo-Zhoushan-Tashkent corridor. This involves the definitions of commonly used events, the standard to use for the data, rules for handover, responsibility for delay and shared performance indicators. Sea–inland connectivity should not only be assessed in terms of routes, terminals and dry ports, but also by the quality and reliability of the interfaces linking them, as far as the wider Maritime Silk Road is concerned.

## Limitations and Future Research

This paper is conceived as a management study, rather than an econometric evaluation, with a focus on mechanisms. The publicly available operating indicators give helpful general information on the corridor level, but do not include the terminal-level information on dwell times, rail-slot usage, customs-release times or truck-gate appointment times. Hence, the proposed LMIPI and the diagnostic matrix are provided as structured analytical tools instead of validated measurement instruments.

One drawback is that the bottleneck intensity matrix remains conceptual, as opposed to a measure from a survey or sensor. Future studies can enhance the framework using other data, including expert interviews, Delphi scoring, terminal event data, customs-release records and platform-based exception logs. These data will enable the weights of the proposed LMIPI to be calibrated and applied to corridors.

Finally, the paper takes the Ningbo-Zhoushan-Tashkent corridor as a case study. It would be beneficial to do comparative studies of several China–Central Asia corridors. These studies might include aspects of varying interface pressures by rail route, border node, dry-port maturity and customs arrangement/digital-platform capability.

## Conclusion

This paper suggests that the last-mile problem in seaport–dry port multimodal transport systems can be seen as an interface-governance problem. On the Ningbo-Zhoushan-Tashkent corridor, another key challenge is how to connect maritime gateways and inland dry-port nodes through physical, operational, institutional, data and incentive interfaces. The proposed LMIPI offers an innovative conceptual and management diagnostic lens to organize these interacting pressures.

The concept of shared visibility, joint planning, process reengineering, responsibility sharing and performance linkage is a practical way to change the fragmented last mile interfaces to coordinated corridor interfaces. The study shows the collaborative governance mechanisms that are able to diminish the interface friction and thereby enhance the corridor-level performance of complex multimodal transport systems to the benefit of management research. This article contributes to the optimization-method aspect of seaport–dry port

collaborative governance that addresses the usage of an original conceptual index and a collaborative mechanism to diagnose and alleviate the pressure at the last mile interface.

## References

1. Ambra, T., Caris, A., & Macharis, C. (2019). Towards freight transport system unification: Reviewing and combining the advancements in the physical internet and synchromodal transport research. International Journal of Production Research, 57(6), 1606-1623. https://doi.org/10.1080/00207543.2018.1494392

2. Ansell, C., & Gash, A. (2008). Collaborative governance in theory and practice. Journal of Public Administration Research and Theory, 18(4), 543-571. https://doi.org/10.1093/jopart/mum032

3. Behdani, B., Fan, Y., Wiegmans, B., & Zuidwijk, R. (2016). Multimodal schedule design for synchromodal freight transport systems. European Journal of Transport and Infrastructure Research, 16(3), 424-444. https://doi.org/10.18757/ejtir.2016.16.3.3151

4. Boysen, N., Fedtke, S., & Schwerdfeger, S. (2021). Last-mile delivery concepts: A survey from an operational research perspective. OR Spectrum, 43, 1-58. https://doi.org/10.1007/s00291-020-00607-8

5. Bryson, J. M., Crosby, B. C., & Stone, M. M. (2015). Designing and implementing cross-sector collaborations: Needed and challenging. Public Administration Review, 75(5), 647-663. https://doi.org/10.1111/puar.12432

6. Caris, A., Macharis, C., & Janssens, G. K. (2013). Decision support in intermodal transport: A new research agenda. Computers in Industry, 64(2), 105-112. https://doi.org/10.1016/j.compind.2012.12.001

7. Christopher, M., & Peck, H. (2004). Building the resilient supply chain. The International Journal of Logistics Management, 15(2), 1-14. https://doi.org/10.1108/09574090410700275

8. De Langen, P. W. (2004). Governance in seaport clusters. Maritime Economics & Logistics, 6(2), 141-156. https://doi.org/10.1057/palgrave.mel.9100108

9. Emerson, K., Nabatchi, T., & Balogh, S. (2012). An integrative framework for collaborative governance. Journal of Public Administration Research and Theory, 22(1), 1-29. https://doi.org/10.1093/jopart/mur011

10. Giusti, R., Manerba, D., Bruno, G., & Tadei, R. (2019). Sustainable and de-stressed international supply chains through the SYNCHRO-NET approach. Sustainability, 11(4), 1083. https://doi.org/10.3390/su11041083

11. Harris, I., Wang, Y., & Wang, H. (2015). ICT in multimodal transport and technological trends: Unleashing potential for the future. International Journal of Production Economics, 159, 88-103. https://doi.org/10.1016/j.ijpe.2014.09.005

12. Hesse, M., & Rodrigue, J.-P. (2004). The transport geography of logistics and freight distribution. Journal of Transport Geography, 12(3), 171-184. https://doi.org/10.1016/j.jtrangeo.2003.12.004

13. Ivanov, D., & Dolgui, A. (2020). Viability of intertwined supply networks: Extending the supply chain resilience angles towards survivability. International Journal of Production Economics, 225, 107829. https://doi.org/10.1016/j.ijpe.2020.107829

14. Lim, S. F. W. T., Jin, X., & Srai, J. S. (2018). Consumer-driven e-commerce: A literature review, design framework, and research agenda on last-mile logistics models. International Journal of Physical Distribution & Logistics Management, 48(3), 308-332. https://doi.org/10.1108/IJPDLM-02-2017-0081

15. Macharis, C., & Bontekoning, Y. M. (2004). Opportunities for OR in intermodal freight transport research: A review. European Journal of Operational Research, 153(2), 400-416. https://doi.org/10.1016/S0377-2217(03)00161-9

16. Monios, J., & Wilmsmeier, G. (2012). Giving a direction to port regionalisation. Transportation Research Part A: Policy and Practice, 46(10), 1551-1561. https://doi.org/10.1016/j.tra.2012.07.008

17. Notteboom, T. E., & Rodrigue, J.-P. (2005). Port regionalization: Towards a new phase in port development. Maritime Policy & Management, 32(3), 297-313. https://doi.org/10.1080/03088830500139885

18. Ponomarov, S. Y., & Holcomb, M. C. (2009). Understanding the concept of supply chain resilience. The International Journal of Logistics Management, 20(1), 124-143. https://doi.org/10.1108/09574090910954873

19. Provan, K. G., & Kenis, P. (2008). Modes of network governance: Structure, management, and effectiveness. Journal of Public Administration Research and Theory, 18(2), 229-252. https://doi.org/10.1093/jopart/mum015

20. Rodrigue, J.-P., & Notteboom, T. (2009). The terminalization of supply chains: Reassessing the role of terminals in port/hinterland logistical relationships. Transport Reviews, 29(2), 165-183. https://doi.org/10.1080/01441640802078668

21. Roso, V., Woxenius, J., & Lumsden, K. (2009). The dry port concept: Connecting container seaports with the hinterland. Journal of Transport Geography, 17(5), 338-345. https://doi.org/10.1016/j.jtrangeo.2008.10.008

22. Savelsbergh, M., & Van Woensel, T. (2016). City logistics: Challenges and opportunities. Transportation Science, 50(2), 579-590. https://doi.org/10.1287/trsc.2016.0675

23. SteadieSeifi, M., Dellaert, N. P., Nuijten, W., Van Woensel, T., & Raoufi, R. (2014). Multimodal freight transportation planning: A literature review. European Journal of Operational Research, 233(1), 1-15. https://doi.org/10.1016/j.ejor.2013.06.055

24. Van der Horst, M. R., & De Langen, P. W. (2008). Coordination in hinterland transport chains: A major challenge for the seaport community. Maritime Economics & Logistics, 10(1-2), 108-129. https://doi.org/10.1057/palgrave.mel.9100194

25. Wieland, A., & Wallenburg, C. M. (2013). The influence of relational competencies on supply chain resilience: A relational view. International Journal of Physical Distribution & Logistics Management, 43(4), 300-320. https://doi.org/10.1108/IJPDLM-08-2012-0243

26. Wilmsmeier, G., Monios, J., & Lambert, B. (2011). The directional development of intermodal freight corridors in relation to inland terminals. Journal of Transport Geography, 19(6), 1379-1386. https://doi.org/10.1016/j.jtrangeo.2011.07.010



**Mahmudov Bekzod Hojixonovich**

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent,
O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti
Toshkent harbiy okrug fakulteti
boshlig‘i o‘rinbosari**

# EKOLOGIK BARQARORLIK: INSON FAOLIYATIDA MUVOZANATNI SAQLASHNING FALSAFIY ASOSLARI

**Annotatsiya.** Maqolada ekologik barqarorlikni ta’minlashning falsafiy asoslari qurolli mojarolar sharoiti misolida tadqiq etilgan bo‘lib, ekologiya falsafasining klassik paradigmalari (antroposentrizm va ekotsentrizm) inson faoliyatini asosan tinch xo‘jalik faoliyati doirasida talqin qilinadi. Shu bois qurolli mojaro sharoitidagi ekologik buzilishni izohlash imkoniyati cheklangan bo‘ladi. Xalqaro gumanitar huquq esa aksincha, atrof-muhitni himoya qiluvchi normalarni ishlab chiqqan bo‘lsa-da, ularni asosan instrumental tarzda, ya’ni insonga yetkaziladigan zarar orqali asoslaydi. Tadqiqotning maqsadi ushbu normativ bo‘shliqni falsafiy jihatdan to‘ldirish va “ekologik barqarorlik va ekologik xavfsizlik” uzviyligining nazariy modelini ishlab chiqishdan iboratdir. Tadqiqotda falsafiy-germenevtik, qiyosiy-paradigmal, tizimli tahlil hamda xalqaro-huquqiy hujjatlarning kontent-tahlili metodlaridan foydalanildi. Empirik illyustrativ baza sifatida qurolli mojarolarning ekologik oqibatlariga oid xalqaro monitoring ma’lumotlari jalb etildi. Tadqiqot natijasida qurolli mojaroning ekologik ta’siri uch darajali zanjir sifatida modellashtirildi.

**Kalit so‘zlar:** ekologik barqarorlik, ekologik xavfsizlik, ekologiya falsafasi, qurolli mojaro, mas’uliyat etikasi, antroposentrizm, ekotsentrizm, Martens deklaratsiyasi.

## KIRISH

Ekologik barqarorlik muammosi XXI asr ijtimoiy-falsafiy tafakkurining markaziy mavzularidan biriga aylandi. Biroq ushbu muammoning tadqiq etilishida sezilarli assimmetriya kuzatiladi. Ilmiy adabiyotda inson faoliyatining tabiatga ta'siri, qoida tariqasida, tinch xo'jalik faoliyati nuqtai nazaridan, ya'ni sanoatlashuv, urbanizatsiya, iste'mol o'sishi va resurslardan foydalanish jarayonlari orqali tahlil qilinadi. Shu bilan birga, insoniyat tarixida tabiiy muhitga eng qisqa muddatda eng katta ko'lamli zarar yetkazgan faoliyat turi bo'lmish qurolli mojaro falsafiy tahlil doirasidan ko'pincha chetda qolmoqda. Bu esa ekologik barqarorlik nazariyasining ichki to'liqsizligini keltirib chiqaradi. Tabiatga nisbatan mas'uliyat haqidagi ta'limot aynan mas'uliyat eng ko'p buziladigan holatni izohlashga ojizlik qiladi.

Mavzuning dolzarbligi bir necha omil bilan belgilanadi. Birinchidan, zamonaviy qurolli mojarolarning ekologik oqibatlari mahalliy chegaralardan chiqib, transchegaraviy va global xarakter kasb etmoqda. Ikkinchidan, tabiiy resurslar, ya'ni suv, yer va energiya manbalari uchun raqobat mojarolarning kelib chiqish sabablari orasida tobora ko'proq uchramoqda. Demak, ekologik omil endi faqat urushning oqibati emas, balki uning sababi sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Uchinchidan, harbiy faoliyatning iqlim tizimiga ta'siri statistik jihatdan sezilarli darajaga yetdi. Xalqaro monitoring tashkilotlarining baholariga ko'ra, dunyo bo'yicha harbiy tuzilmalarning faoliyati global issiqxona gazlari emissiyasining taxminan 5,5 foizini tashkil etadi, biroq bu ko'rsatkich xalqaro hisobot tizimlarida deyarli aks etmaydi [12]. To'rtinchidan, mojarolarning ekologik zararini hisoblash metodologiyasi shakllanmoqda va bu falsafiy jihatdan yangi savolni kun tartibiga qo'ymoqda. Ya'ni zararni kim, kim oldida va qaysi vaqt gorizontida qoplashi kerak degan savol dolzarblashmoqda.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar ham mazkur yo'nalishning dolzarbligini kuchaytiradi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahririda iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar qatorida ekologik huquqlar mustaqil bob sifatida mustahkamlangani atrof-muhitga munosabatning konstitutsiyaviy qadriyat maqomiga ko'tarilganini bildiradi [2]. "O'zbekiston 2030" strategiyasida ekologik muhitni yaxshilash ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan [3]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida zamonaviy tahdidlarning tabiatini quyidagicha ta'riflaydi: "Xavfsizlik va barqarorlikka tahdidlar bugungi kunda muayyan bir yirik qurolli mojaro shaklida emas, balki, harbiy-siyosiy, iqtisodiy, ekologik va inson resurslariga ta'sir qiluvchi hodisalarning salbiy, tanazzulga olib boruvchi oqibatlari shaklida namoyon bo'lish ehtimoli nisbatan yuqori bo'lib qolmoqda" [1]. Ushbu ta'rifning metodologik ahamiyati shundaki,



unda ekologik omil xavfsizlik tahdidlarining mustaqil turi sifatida emas, balki boshqa omillar bilan uzviy bog'liq holda ko'rsatilgan. Aynan mana shu uzviylikni nazariy jihatdan asoslash mazkur tadqiqotning bosh vazifasini tashkil etadi.

Mintaqaviy kontekstda ushbu muammoning alohida o'lchovi mavjud. Orol dengizining qurishi ekologik halokatning zamonaviy tarixdagi eng yirik namunalaridan biri bo'lib, u harbiy harakatlar natijasida emas, balki tabiiy resurslardan strategik foydalanishning noto'g'ri modeli tufayli yuzaga kelgan [11]. Ushbu holat muhim nazariy xulosaga olib keladi. Ekologik tizimning yemirilishi uchun urush shart emas, chunki urush faqat shu jarayonni tezlashtiruvchi va konsentratsiyalovchi omil hisoblanadi. Demak, ekologik barqarorlik va xavfsizlik o'rtasidagi bog'liqlik favqulodda holat bilan cheklanmaydi, balki tinchlik davridagi resurs siyosatiga ham taalluqli bo'ladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ekologik barqarorlik tushunchasi ilmiy muomalaga BMTning 1987-yilda e'lon qilingan "Bizning umumiy kelajagimiz" (Our Common Future) ma'ruzasi orqali kirdi. Unda barqaror rivojlanish kelajak avlodlarning o'z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatini cheklamagan holda bugungi ehtiyojlarni qondirish sifatida ta'riflangan [28]. Ushbu ta'rifning falsafiy o'zagi avlodlararo adolat g'oyasi bo'lib, u mazkur tadqiqot-

ning ham nazariy tayanchini tashkil etadi. Tadqiqot muammosi esa bir-biri bilan kam kesishuvchi to‘rt ilmiy an’ana chorrahasida joylashgan bo‘lib, ularning har biri masalaning muayyan qirrasini yoritadi.

Birinchi an’ana ekologiya falsafasining klassik yo‘nalishi hisoblanadi. A.Leopoldning “yer etikasi” (land ethic) konsepsiyasi axloqiy hamjamiyat chegaralarini tuproq, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosini qamrab olguncha kengaytirish g‘oyasini ilgari surdi va tabiatga nisbatan munosabatni foydalanish emas, balki a’zolik munosabati sifatida talqin qildi [5]. A.Naess “chuqur ekologiya” (deep ecology) yo‘nalishini asoslab, ekologik muammolarni texnologik yechimlar darajasida emas, balki dunyoqarash darajasida hal qilish zarurligini ko‘rsatdi [6]. M.Bookchin “ijtimoiy ekologiya” konsepsiyasida tabiat ustidan hukmronlik g‘oyasining ildizlarini insonning inson ustidan hukmronligida ko‘rdi va shu tariqa ekologik muammoni ijtimoiy-siyosiy tuzilma bilan bog‘ladi [7]. H.Jonas esa “mas’uliyat imperativi” asarida texnologik sivilizatsiya sharoitida axloqning vaqt o‘lchovini tubdan qayta ko‘rib chiqish zarurligini asosladi. Uning fikricha, agar an’anaviy etika bir zamon va bir makonda yashovchi subyektlar munosabatini tartibga solgan bo‘lsa, zamonaviy etika hali tug‘ilmagan avlodlar oldidagi mas’uliyatni ham o‘z ichiga olishi lozim [4].

Mazkur an’ananing kuchli tomoni shundaki, u tabiatga nisbatan axloqiy munosabatning ontologik asoslarini ishlab chiqqan. Cheklovi esa ushbu konsepsiyalarning barchasi tinchlik holatini yashirin shart sifatida qabul qilishida namoyon bo‘ladi. Leopoldning “hamjamiyat” metaforasi ham, Naessning “o‘zlikni kengaytirish” g‘oyasi ham, Jonasning “kelajak avlodlar” konstruksiyasi ham uzluksiz ijtimoiy davomiylikni nazarda tutadi. Qurolli mojaro esa aynan shu davomiylikni uzadi.

Ikkinchi an’ana atrof-muhitni qurolli mojaro sharoitida muhofaza qilishga oid xalqaro-huquqiy tadqiqotlardan iborat. 1949-yilgi Jeneva konvensiyalariga 1977-yilgi I Qo‘shimcha bayonnomaning 35(3) va 55-moddalari tabiiy muhitga “keng ko‘lamli, uzoq muddatli va jiddiy” zarar yetkazish vositalarini qo‘llashni taqiqlaydi [14]. 1976-yilgi ENMOD konvensiyasi atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatish usullarini harbiy maqsadlarda qo‘llashni man etadi [15]. 1954-yilgi Gaaga konvensiyasi madaniy boyliklarni himoya qilish orqali muhofaza obyektlari doirasini kengaytirdi [16]. Xalqaro Huquq Komissiyasi 2022-yilda o‘zining 73-sessiyasida qurolli mojarolar bilan bog‘liq holda atrof-muhitni muhofaza qilishga oid 27 ta loyiha tamoyilini (PERAC) ikkinchi o‘qishda qabul qildi. Ularning konseptual yangiligi shundaki, muhofaza rejimi mojaroning uch temporal bosqichini, ya’ni mojarodan oldingi, mojaro davridagi va mojarodan keyingi holatni qamrab oladi [17].

Uchinchi an’ana xavfsizlik nazariyasidagi ekologik burilish bilan bog‘liq. Kopengagen maktabi (B.Buzan, O.Wæver, J. de Wilde) xavfsizlik tushunchasini harbiy sohadan tashqariga chiqarib, uning besh sektorini, ya’ni harbiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik sektorlarini ajratdi hamda “sekyuritizatsiya” nazariyasi orqali muayyan masalaning qanday qilib favqulodda xavfsizlik masalasiga aylanishi mexanizmini ko‘rsatdi [8]. Ushbu yondashuv ekologik muammoni siyosiy kun tartibiga ko‘tarish imkonini berdi, biroq u bilan birga jiddiy nazariy xavfni ham keltirib chiqardi. Sekyuritizatsiya masalani favqulodda holat mantiqiga bo‘ysundiradi, favqulodda holat esa ta’rifiga ko‘ra vaqtinchalik va istisnoviy bo‘ladi. Ekologik barqarorlik esa, aksincha, uzluksizlik va uzoq muddatlilikni talab qiladi. Shu tariqa “barqarorlik” va “xavfsizlik” tushunchalari o‘rtasida yashirin mantiqiy ziddiyat vujudga keladi va uni bartaraf etish mazkur tadqiqotning nazariy vazifalaridan birini tashkil etadi.

To‘rtinchi an’ana urush etikasi (just war theory) doirasidagi zamonaviy izlanishlarni qamrab oladi. T. Meisels o‘zining “Environmental Ethics of War” tadqiqotida urush etikasining an’anaviy kategoriyalarini, ya’ni jus ad bellum, jus in bello va jus post bellum tushunchalarini ekologik mazmun bilan to‘ldirishni taklif qiladi hamda urush nazariyotchilari tomonidan harbiy-ekologik etikaga nisbatan kam e’tibor qaratilganini alohida ta’kidlaydi [9]. Muallif shuningdek ekologik tajovuzga javob choralari ham tabiatga nomutanosib zarar yetkazmasligi lozimligi haqidagi muhim tamoyilni asoslaydi [10]. Ekotsid tushunchasining nazariy evolyutsiyasi va uning urush bilan o‘zgaruvchan munosabati R.Killean tadqiqotlarida tahlil qilingan [13]. Qurolli mojarolarning atrof-muhitga ta’sirining empirik umumlashtirilishi esa Y.D.Wirtu va U.Abdela ishlarida keltirilgan [18].

Mahalliy ilmiy adabiyotda ekologik muammolarning falsafiy va amaliy jihatlariga oid salmoqli tadqiqotlar mavjud. A.Sultonov ekologiya falsafasining nazariy asoslari, ekologik tafakkur va madaniyatni rivojlantirish masalalarini yoritgan [19]. I.Ergashev ekologik xavfsizlikni ta’minlashning dolzarb masalalarini tadqiq etgan [20]. E.Yusupov ekologik ta’lim va tarbiyaning barqaror rivojlanishdagi o‘rnini asoslagan [21]. Y.Shodimetov ekologik iqtisodiyot asoslarini ishlab chiqqan [22]. M.Maxkamova ekologik xavfsizlik muammolari va yechimlarini tahlil qilgan [23]. X.Tursunov esa ekologik siyosatning institutsional asoslari va ekologik qonunchilikni rivojlantirish masalalarini o‘rgangan [24].

Tadqiqot bo‘shlig‘i. Adabiyotlar tahlili ikki asosiy bo‘shliqni aniqlash imkonini berdi. Birinchidan, ekologiya falsafasi va urush etikasi bir-biridan mustaqil ravishda rivojlangan. Ekologiya falsafasi urushni o‘z predmeti doirasidan chiqarib qo‘ygan, urush etikasi esa tabiatni asosan gumanitar zararning fon omili sifatida ko‘rgan. Ikkinchidan, xalqaro-huquqiy normalar mavjud bo‘lsa-da, ular tabiat muhofazasini

instrumental tarzda, ya’ni insonga yetkaziladigan zarar orqali asoslaydi va shu bois tabiatga yetkazilgan zararning o‘z-o‘zicha axloqiy salbiyligini nazariy jihatdan izohlay olmaydi. Mahalliy adabiyotda esa ekologik barqarorlik va ekologik xavfsizlik tushunchalari, qoida tariqasida, yonma-yon qo‘llaniladi, biroq ularning mantiqiy uzviyligi maxsus tahlil predmetiga aylantirilmagan. Mazkur maqola aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

## TADQIQOTNING MAQSADI

Tadqiqotning maqsadi qurolli mojarolar sharoitida ekologik barqarorlikni ta’minlashning falsafiy asoslarini aniqlash hamda ekologik barqarorlik bilan ekologik xavfsizlik uzviyligining nazariy modelini ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu maqsaddan kelib chiqib, quyidagi tadqiqot savollari shakllantirildi.

1) Ekologiya falsafasining klassik paradigmalari, ya’ni antroposentrizm va ekotsentrizm qurolli mojaro sharoitidagi ekologik buzilishni qanday izohlaydi hamda ularning izohlash chegaralari qayerda joylashgan?

2) “Ekologik barqarorlik” va “ekologik xavfsizlik” tushunchalari o‘rtasidagi mantiqiy munosabat qanday tuzilishga ega va ular yagona nazariy konstruksiyada birlashtirilishi mumkinmi?

3) Xalqaro gumanitar huquqning atrof-muhitni muhofaza qiluvchi normalari qanday falsafiy asosga tayanadi va ushbu asosning cheklovlari nimadan iborat?

4) Ekologik ongni shakllantirishning qanday darajalari mojaro xavfi mavjud sharoitda samarali hisoblanadi?

Tadqiqotning ilmiy farazi quyidagicha ifodalanadi. Ekologik barqarorlik faqat tinch xo‘jalik faoliyati doirasida emas, balki xavfsizlik kategoriyasi bilan uzviy birlikda tushunilgandagina to‘liq nazariy mazmun kasb etadi. Antroposentrizm va ekotsentrizm dixotomiyasi o‘rniga mas’uliyat markazli uchinchi paradigma, ya’ni H.Jonasning mas’uliyat imperativini harbiy-ekologik sohaga kengaytirish asosida shakllanadigan paradigma kuchliroq izohlash qobiliyatiga ega bo‘ladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat.

a) ekologiya falsafasining klassik paradigmalari qurolli mojaro konteksti nuqtai nazaridan qiyosiy tahlil qilinib, ularning izohlash chegaralari aniqlangan,

b) qurolli mojaroning ekologik ta’siri uch darajali sababiy zanjir sifatida modellashtirilgan,

c) ekologik barqarorlik bilan ekologik xavfsizlik uzviyligining aksiologik, normativ va institutsional darajalarni qamrab oluvchi uch darajali modeli ishlab chiqilgan,

d) antroposentrizm va ekotsentrizm dixotomiyasiga muqobil sifatida mas’uliyat markazli paradigma asoslangan hamda ekologik mas’uliyatning temporal kengayishi tamoyili ta’riflangan,

e) Martens deklaratsiyasining “insoniylik qonunlari va ijtimoiy ong talablari” formulasini ekologik mazmun bilan boyitish g‘oyasi, ya’ni shartli ravishda “ekologik Martens bandi” tushunchasi ilmiy muomalaga kiritilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy-konseptual xarakterga ega bo‘lib, u falsafiy tahlilni xalqaro-huquqiy hujjatlarning matniy tahlili bilan uyg‘unlashtiruvchi fanlararo yondashuvga asoslanadi. Metodologik asos sifatida ekologiya falsafasi, barqaror rivojlanish konsepsiyasi, mas’uliyat etikasi hamda xavfsizlikning kengaytirilgan (Kopengagen maktabi) talqini qabul qilindi.

Falsafiy-germenevtik tahlil metodi orqali asosiy manbalarning, ya’ni Leopold, Naess, Bookchin va Jonas asarlarining matniy mazmuni tadqiq etildi. Ushbu metod tanlanishining sababi shundaki, tadqiqot predmeti empirik emas, balki konseptual tabiatga ega. Gap muayyan hodisani o‘lchash haqida emas, balki uni izohlovchi tushunchaviy apparatning ichki mantiqini ochish haqida bormoqda. Germenevtik yondashuv har bir konsepsiyaning yashirin shartlarini, jumladan tinchlik holatining aytilmagan shart sifatida qabul qilinishini aniqlash imkonini berdi.

Qiyosiy-paradigmal tahlil metodi orqali antroposentrik va ekotsentrik yondashuvlar bir xil mezonlar tizimi asosida solishtirildi. Taqqoslash mezonlari sifatida tabiatning qadriyat maqomi, mas’uliyat subyekti, vaqt gorizonti va mojaro sharoitidagi izohlash qobiliyati olindi. Taqqoslash natijalari 1-jadvalda umumlashtirilgan.

Xalqaro-huquqiy hujjatlarning kontent-tahlili metodi bilan I Qo‘shimcha bayonnoma, ENMOD konvensiyasi, Gaaga konvensiyasi va PERAC tamoyillari matnlari o‘rganildi. Tahlil birligi sifatida atrof-muhit muhofazasini asoslovchi argument turi, ya’ni instrumental yoki o‘z-o‘zicha qadriyatga asoslangan argument qabul qilindi.

Tizimli tahlil va konseptual modellashtirish metodlari yordamida tadqiqotning asosiy natijasi bo‘lgan uch darajali model qurildi. Modellashtirishda darajalarni ajratish mezoni sifatida savol turi olindi. Aksiologik daraja “nima uchun?”, normativ daraja “qanday qoida?”, institutsional daraja esa “kim va qanday amalga oshiradi?” savollariga javob beradi.

Empirik illyustrativ baza. Tadqiqotda birlamchi empirik ma’lumotlar to‘planmagan. Nazariy xulosalarni illyustratsiya qilish uchun xalqaro monitoring tashkilotlarining ochiq ma’lumotlaridan foydalanildi. Ma’lumotlarni tanlashda uch mezonga amal qilindi.

Birinchisi manbaning xalqaro e’tirofga ega ekanligi, ikkinchisi metodologiyaning ochiq e’lon qilinganligi, uchinchisi esa ma’lumotlarning 2020 va 2025-yillar oralig‘iga oidligi. Ushbu ma’lumotlar dalil emas, balki nazariy tezisning ko‘rgazmali tasdig‘i sifatida qo‘llanildi.

Tadqiqotning cheklovlari. Birinchidan, ish nazariy tahlilga asoslangan bo‘lib, unda muallif tomonidan o‘tkazilgan sotsiologik yoki empirik tadqiqot natijalari keltirilmagan. Ikkinchidan, keltirilgan miqdoriy ko‘rsatkichlar turli metodologiyalarga asoslangan manbalardan olingani bois ular o‘zaro to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqqoslanmaydi. Uchinchidan, tahlil xalqaro qurolli mojarolarga qaratilgan bo‘lib, ichki mojarolar va gibrid tahdidlarning ekologik o‘lchovi alohida tadqiqot predmeti bo‘lishi lozim. Ushbu cheklovlar xulosalarning nazariy maqomini belgilaydi va ularni empirik umumlashtirish sifatida talqin qilishga yo‘l qo‘ymaydi.

## TADQIQOT NATIJALARI

***1. Klassik paradigmalarning izohlash chegaralari***

Qiyosiy-paradigmal tahlil shuni ko‘rsatdiki, antroposentrik va ekotsentrik yondashuvlarning har biri qurolli mojaro kontekstida o‘ziga xos nazariy qiyinchilikka duch keladi.

Antroposentrik paradigma tabiatni inson ehtiyojlarini qondirish manbai sifatida talqin qiladi va shunga muvofiq tabiatga yetkazilgan zararni inson farovonligiga yetkazilgan zarar orqali baholaydi. Ushbu yondashuvning amaliy kuchi shundaki, u aniq huquqiy konstruksiyalar qurish imkonini beradi. Zarar o‘lchanadi, javobgarlik belgilanadi, kompensatsiya hisoblanadi. Biroq mojaro sharoitida uning cheklovi yaqqol namoyon bo‘ladi. Agar hudud aholidan bo‘shatilgan bo‘lsa yoki zarar bevosita insonga tegmasa, antroposentrik mantiq bo‘yicha bunday harakat axloqiy jihatdan neytral maqom oladi. Bu esa intuitiv axloqiy mulohazaga zid keladi.

Ekotsentrik paradigma tabiatning o‘z-o‘zicha qadriyatini tan olib, ushbu qiyinchilikni nazariy jihatdan bartaraf etadi. Biroq u boshqa muammoni keltirib chiqaradi. Mojaro sharoitida inson hayoti va ekotizim yaxlitligi o‘rtasida to‘qnashuv yuzaga kelganda, ekotsentrik mantiq ustuvorlikni belgilash mezonini bermaydi. Bundan tashqari, ekotsentrizm mas’uliyat subyektini aniq ko‘rsatmaydi, chunki u tabiatga nisbatan umumiy munosabatni ta’riflaydi, lekin muayyan qaror qabul qiluvchi shaxsning majburiyatini ifodalamaydi. Harbiy sohada esa qaror qabul qilish zanjiri aniq va shaxsiylashtirilgan bo‘ladi.

Ushbu tahlil muhim xulosaga olib keladi. Ikkala paradigma ham bir xil struktural kamchilikka ega, ya’ni ularning har biri tabiatga munosabatni holat (state) sifatida ta’riflaydi, jarayon va qaror sifatida emas. Mojaro esa mohiyatan qarorlar ketma-ketligidir. Demak, izohlash qobiliyatiga ega paradigma tabiatning maqomidan emas, balki subyektning mas’uliyatidan kelib chiqishi lozim.

*1-jadval.*

**Ekologik paradigmalarning qiyosiy tahlili**

| Mezon | Antroposentrik paradigma | Ekotsentrik paradigma | Mas’uliyat markazli paradigma (taklif etilayotgan) |
|---|---|---|---|
| Tabiatning qadriyat maqomi | Instrumental, inson ehtiyoji orqali | O‘z-o‘zicha (intrinsik) qadriyat | Ikki qadriyat munosabati subyekt mas’uliyati orqali muvofiqlashtiriladi |
| Mas’uliyat subyekti | Aniq belgilangan (inson, davlat) | Diffuz, umumlashgan | Aniq belgilangan va qaror zanjiri bo‘yicha taqsimlangan |
| Vaqt gorizonti | Joriy avlod manfaati | Ekotizimning tabiiy davomiyligi | Avlodlararo, ya’ni qaror oqibatining amal qilish muddati |
| Zararni baholash mezoni | Insonga yetkazilgan zarar | Ekotizim yaxlitligining buzilishi | Qaytarib bo‘lmaslik darajasi va temporal cho‘ziluvchanlik |
| Mojaro sharoitidagi izohlash qobiliyati | Cheklangan, aholisiz hududda kuchsizlanadi | Cheklangan, ustuvorlik mezonini bermaydi | Kengaytirilgan, qaror darajasida amal qiladi |
| Normativ tatbiq etilishi | Yuqori (huquqiy konstruksiyalarga mos) | Past (operatsionallashtirish qiyin) | O‘rta va yuqori (etik kodekslar hamda qoidalar orqali) |

***2. Qurolli mojaroning ekologik ta’siri va uning uch darajasi***

Tizimli tahlil natijasida qurolli mojaroning atrof-muhitga ta’sirini bir jinsli hodisa sifatida emas, balki sababiy zanjirning uch darajasi sifatida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqligi aniqlandi (1-rasm).

| | |
|---|---|
| **I daraja BEVOSITA** *(harbiy harakat davomida)* | • portlash va yong‘inlar natijasida atmosferaning ifloslanishi<br>• o‘rmon va yaylovlarning yo‘q qilinishi, tuproq qoplamining buzilishi<br>• suv havzalarining neft mahsulotlari va portlovchi moddalar bilan zaharlanishi<br>• biologik xilma-xillikning bevosita yo‘qotilishi<br>• sanoat va ekologik xavfli obyektlarning shikastlanishi |

| | |
|---|---|
| **II daraja**<br>**BILVOSITA**<br>*(institutsional inqiroz orqali)* | · ekologik monitoring va nazorat tizimlarining ishdan chiqishi<br>· majburiy migratsiya va aholi zichligining keskin o'zgarishi<br>· qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanishning izdan chiqishi<br>· chiqindilarni boshqarish va suv ta'minoti infratuzilmasining yemirilishi<br>· tabiatni muhofaza qilish xarajatlarining harbiy sarflar hisobiga qisqarishi |
| **III daraja**<br>**TIZIMLI**<br>*(temporal va avlodlararo o'lcham)* | · tuproq va suvdagi ifloslanishning o'nlab yillarga cho'zilishi<br>· portlamagan o'q-dorilar tufayli hududlarning xo'jalik aylanmasidan chiqishi<br>· qayta tiklash jarayonining o'zi keltirib chiqaradigan uglerod izi<br>· ekologik zararning transchegaraviy va global tarqalishi<br>· kelajak avlodlar resurs bazasining qisqarishi |

*1-rasm. Qurolli mojaroning ekologik ta'sir zanjiri (muallif ishlanmasi)*

Birinchi daraja bevosita ta'sirdan iborat. Bu harbiy harakatlar davomida yuzaga keladigan va bevosita kuzatiladigan zarar bo'lib, unga portlash va yong'inlar natijasida atmosferaning ifloslanishi, o'rmon va yaylovlarning yo'q qilinishi, suv havzalarining neft mahsulotlari va portlovchi moddalar bilan zaharlanishi hamda ekologik xavfli sanoat obyektlarining shikastlanishi kiradi. Tarixiy misollar bu darajaning ko'lamini ko'rsatadi. Vetnam urushi davrida defoliantlar qo'llanishi natijasida uch million akrdan ortiq o'rmon massivi yo'q qilingan. Fors ko'rfazi urushida esa olti yuzdan ortiq neft qudug'ining yonishi mintaqada oltingugurt oksidlari emissiyasining taxminan 50 foizga oshishiga olib kelgan [18].

Ikkinchi daraja bilvosita ta'sirni qamrab oladi. Bu darajada zarar tabiatga bevosita emas, balki uni himoya qiluvchi ijtimoiy institutlar orqali yetkaziladi. Ekologik monitoring va nazorat tizimlari ishdan chiqadi, chiqindilarni boshqarish va suv ta'minoti infratuzilmasi yemiriladi, majburiy migratsiya natijasida aholi zichligi keskin o'zgaradi, qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish izdan chiqadi, tabiatni muhofaza qilish xarajatlari esa harbiy sarflar hisobiga qisqaradi. Ushbu darajaning falsafiy ahamiyati shundaki, u ekologik zararning ijtimoiy tabiatini oshkor qiladi. Tabiat mustaqil ravishda emas, balki ijtimoiy institutlar vositasida muhofaza qilinadi va institutlar yemirilganda tabiat himoyasiz qoladi.

Uchinchi daraja tizimli ta'sirni ifodalaydi. Bu zararning temporal va transchegaraviy o'lchovi bo'lib, unga tuproq va suvdagi ifloslanishning o'nlab yillarga cho'zilishi, portlamagan o'q-dorilar tufayli hududlarning xo'jalik aylanmasidan uzoq muddatga chiqishi hamda ekologik zararning davlat chegaralaridan tashqariga tarqalishi kiradi. Ushbu darajaning eng paradoksal jihati qayta tiklash jarayonining o'zi ham sezilarli ekologik yuk keltirib chiqarishidir. Ukrainadagi mojaroning dastlabki uch yiliga oid hisob-kitoblarga ko'ra, jami 236,8 million tonna CO2-ekvivalent emissiya qayd etilgan bo'lib, uning eng yirik ulushlari harbiy harakatlarning o'ziga (34 foiz), keyingi qayta tiklash ishlariga (27 foiz) va landshaft yong'inlariga (21 foiz) to'g'ri keladi [25]. Boshqacha aytganda, mojaro tugagan taqdirda ham uning ekologik izi bir necha o'n yillar davomida shakllanishda davom etadi.

Ushbu model muhim nazariy natijaga olib keladi. Ekologik mas'uliyatning vaqt gorizonti harbiy harakatlarning vaqt gorizontidan sezilarli darajada uzunroq bo'ladi. Qaror bir lahzada qabul qilinadi, uning ekologik oqibati esa avlodlar davomida amal qiladi. Bu H.Jonas ta'riflagan an'anaviy etikaning temporal cheklanganligi muammosining harbiy-ekologik sohadagi aniq namunasidir [4].

### *3. Xalqaro-huquqiy normalarning falsafiy asoslari va bo'shliqlari*

Xalqaro-huquqiy hujjatlarning kontent-tahlili atrof-muhitni muhofaza qiluvchi normalarning asoslanish mantiqida izchil tendensiyani aniqlash imkonini berdi (2-jadval).

I Qo'shimcha bayonnomaning 35(3) va 55-moddalari tabiiy muhitga zarar yetkazishni taqiqlaydi, biroq 55-modda ushbu taqiqni aniq instrumental tarzda asoslaydi, chunki u aholining salomatligi va omon qolishiga tahdid soluvchi zararni nazarda tutadi [14]. Boshqacha aytganda, tabiat bu yerda mustaqil himoya obyekti emas, balki insonning yashash muhiti sifatida himoya qilinadi. ENMOD konvensiyasi atrof-muhitga ta'sir ko'rsatish usullarini harbiy vosita sifatida qo'llashni taqiqlash orqali boshqa yo'ldan boradi, ya'ni u tabiatni qurolga aylantirishni man etadi, lekin tabiatning o'z-o'zicha qadriyatini normativ jihatdan e'lon qilmaydi [15].

Xalqaro Huquq Komissiyasining PERAC tamoyillari (2022) mazkur yo'nalishdagi eng rivojlangan hujjat hisoblanadi. Uning konseptual yutug'i muhofaza rejimining temporal kengayishida namoyon bo'ladi, chunki tamoyillar mojarogacha, mojaro davrida, ishg'ol sharoitida va mojarodan keyin amal qiladi [17]. Bu falsafiy jihatdan Jonas imperativining huquqiy tilga o'girilishi sifatida talqin qilinishi mumkin, ya'ni mas'uliyat harakat momenti bilan cheklanmaydi. Shu bilan birga, hujjatning o'zida ham tabiatning

maqomi ochiq qoldirilgan. Normalar “amaldagi xalqaro huquqqa muvofiq” degan shart bilan cheklanadi va bu ularning odat huquqi maqomini nazariy jihatdan noaniq qoldiradi.

Mazkur normalarni amaliy qo‘llash bo‘yicha Xalqaro Qizil Xoch Qo‘mitasining 2020-yilgi ko‘rsatmalari [26] hamda BMTning Atrof-muhit dasturi (UNEP) tomonidan tayyorlangan xalqaro huquq normalarining tahliliy inventarizatsiyasi [27] muhim uslubiy manba hisoblanadi. Ularning tahlili shuni ko‘rsatadiki, mavjud normalar tizimi bo‘shliqni normalarning yetishmasligida emas, balki ularning asoslanish mantiqida saqlaydi.

Shunday qilib, tahlil quyidagi bo‘shliqni aniqladi. Xalqaro gumanitar huquqda tabiatni muhofaza qilishning rivojlangan normativ apparati mavjud, biroq bu apparat ostidagi falsafiy asos instrumental xarakterga ega. Bu esa amaliy oqibatga olib keladi, ya’ni himoya darajasi tabiatga yetkazilgan zararning ko‘lami bilan emas, balki uning insonga qanchalik tegishli ekanligi bilan o‘lchanadi.

*2-jadval.*

**Atrof-muhitni qurolli mojaro sharoitida muhofaza qiluvchi asosiy hujjatlar va ularning falsafiy asosi**

| Hujjat | Yil | Muhofaza predmeti | Asoslash mantiqi |
|---|---|---|---|
| Gaaga konvensiyasi (madaniy boyliklarni muhofaza qilish) | 1954 | Madaniy meros obyektlari | Sivilizatsion qadriyat asosi va urushni insonparvarlashtirish tamoyili |
| ENMOD konvensiyasi | 1976 | Atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatish usullari | Vosita taqiqi, ya’ni tabiatni qurolga aylantirishning man etilishi |
| I Qo‘shimcha bayonnoma, 35(3)-modda | 1977 | Tabiiy muhit (keng ko‘lamli, uzoq muddatli, jiddiy zarar) | Vositalarni cheklash tamoyili |
| I Qo‘shimcha bayonnoma, 55-modda | 1977 | Aholining sog‘lig‘i va omon qolishi bilan bog‘liq muhit | Aniq instrumental, ya’ni inson orqali asoslash |
| Martens deklaratsiyasi (Gaaga konvensiyasi muqaddimasi) | 1899 va 1907 | Xalqaro shartnomada qamrab olinmagan holatlar | Insoniylik qonunlari va ijtimoiy ong talablari, ya’ni ochiq normativ formula |
| XHK PERAC tamoyillari | 2022 | Mojaroning barcha temporal bosqichlaridagi atrof-muhit | Aralash asos, ya’ni instrumental asos va temporal kengaytirilgan mas’uliyat |

***4. Ekologik barqarorlik va ekologik xavfsizlik uzviyligining modeli***

Tadqiqotning markaziy natijasi sifatida ikki tushuncha o‘rtasidagi uzviylikni uch darajada ifodalovchi model ishlab chiqildi (2-rasm).




*2-rasm. Ekologik barqarorlik va ekologik xavfsizlik uzviyligining uch darajali modeli (muallif ishlanmasi)*



Modelning boshlang‘ich nuqtasi yuqorida qayd etilgan mantiqiy ziddiyat hisoblanadi. Ekologik barqarorlik uzluksizlik va uzoq muddatlilik mantiqiga, ekologik xavfsizlik esa tahdid va favqulodda holat mantiqiga tayanadi. Ushbu ziddiyat, tadqiqot ko‘rsatishicha, tushunchalarning bir-birini istisno qilishini emas, balki ular o‘rtasida vositachi bo‘g‘in zarurligini bildiradi. Vositachi bo‘g‘in vazifasini mas’uliyat kategoriyasi bajaradi, chunki mas’uliyat ham uzluksiz (u doimiy amal qiladi), ham vaziyatli (u har bir aniq qarorga taalluqli) tabiatga ega.

Aksiologik daraja “nima uchun?” savoliga javob beradi va tabiatning o‘z-o‘zicha hamda instrumental qadriyatlari muvozanatini, mas’uliyatning avlodlararo kengayishini, ekologik ongning axloqiy asosini qamrab oladi. Bu darajada Jonas imperativi asosiy nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Normativ daraja “qanday qoida?” savoliga javob beradi va xalqaro gumanitar huquq normalarini, PERAC tamoyillarini hamda milliy qonunchilikni o‘z ichiga oladi. Milliy darajada bunga Konstitutsiyada ekologik huquqlarning mustaqil bob sifatida mustahkamlanishi misol bo‘ladi [2].

Institutsional daraja “kim va qanday amalga oshiradi?” savoliga javob beradi. Bu darajaga ekologik monitoring va zararni hisoblash mexanizmlari, harbiy ta’lim tizimida ekologik etika kursi, mintaqaviy suv va ekologiya diplomatiyasi hamda ishonch choralari, post-konflikt tiklash siyosati kiradi.

Uch darajaning izchil bog‘lanishi natijasida mas’uliyat markazli ekologik paradigma shakllanadi. Ushbu paradigmaning asosiy tezisi quyidagicha ifodalanadi. Tabiatga nisbatan majburiyatning kuchi tabiatning ontologik maqomidan emas, balki qarorning qaytarib bo‘lmaslik darajasi va uning oqibati amal qiladigan vaqt uzunligidan kelib chiqadi. Bu formula ikki muhim afzallikka ega. U antroposentrizm va ekotsentrizm o‘rtasidagi metafizik bahsni chetlab o‘tadi hamda amaliy qaror qabul qilish jarayoniga bevosita tatbiq etiladi.

## MUHOKAMA

Olingan natijalarni muhokama qilish tadqiqotning uch nazariy oqibatini ajratib ko‘rsatish imkonini beradi.

Birinchi oqibat mas’uliyat markazli paradigmaning izohlash ustunligi bilan bog‘liq. Yuqorida ko‘rsatilganidek, antroposentrik yondashuv aholisiz hududdagi ekologik zararni axloqiy jihatdan neytral deb baholash xavfini tug‘diradi, ekotsentrik yondashuv esa to‘qnashuv holatida ustuvorlik mezonini bermaydi. Mas’uliyat markazli paradigma bu ikki qiyinchilikni ham hal qiladi, chunki u baholash markazini obyektdan, ya’ni tabiatdan subyektga, ya’ni qaror qabul qiluvchiga ko‘chiradi. Bunda tabiatning qadriyat maqomi haqidagi metafizik savol ochiq qoldiriladi, lekin amaliy me’yor aniq shakllanadi. Ushbu yondashuv T.Meisels tomonidan asoslangan tamoyil bilan uyg‘unlashadi, unga ko‘ra ekologik tajovuzga javob choralarining o‘zi ham tabiatga nomutanosib zarar yetkazmasligi lozim [10]. Biroq undan farqli o‘laroq, mazkur ish mezon sifatida mutanosiblikni emas, balki qaytarib bo‘lmaslikni ilgari suradi. Mutanosiblik miqdoriy mezon bo‘lib, uni mojaro sharoitida real vaqtda hisoblash amalda mumkin emas. Qaytarib bo‘lmaslik esa sifat mezoni bo‘lib, u qaror qabul qilish momentida ham baholanishi mumkin.

Ikkinchi oqibat “ekologik Martens bandi” g‘oyasi bilan bog‘liq. Gaaga konvensiyasi muqaddimasidagi Martens deklaratsiyasi xalqaro shartnomalarda ko‘zda tutilmagan holatlarda ham himoya “tan olingan xalqaro odatlar, insoniylik qonunlari va ijtimoiy ong talablaridan” kelib chiquvchi tamoyillarga asoslanishini belgilaydi [16]. Ushbu formulaning nazariy qimmati uning ochiqligida namoyon bo‘ladi, chunki u huquqiy normani axloqiy asosga ulab turuvchi ko‘prik vazifasini bajaradi. Tadqiqot doirasida quyidagi g‘oya ilgari suriladi. “Ijtimoiy ong talablari” formulasi tarixan gumanitar mazmun bilan to‘ldirilgan bo‘lsa, zamonaviy sharoitda uning ekologik mazmun bilan boyitilishi mantiqiy asosga ega. Zero, tabiatni asrash bugungi kunda aynan ijtimoiy ongning barqaror talabiga aylandi va bu talab konstitutsiyaviy hamda xalqaro darajada mustahkamlanmoqda. Bunday talqin normativ bo‘shliqni to‘ldirishning eng iqtisodiy yo‘li hisoblanadi, chunki u yangi shartnoma yaratishni emas, balki mavjud formulaning izohlash doirasini kengaytirishni taklif qiladi. Ayni paytda ushbu g‘oyaning cheklovi ham e’tirof etilishi lozim. Martens bandi to‘g‘ridan-to‘g‘ri majburiyat manbai emas, balki izohlash tamoyili hisoblanadi va uning amaliy kuchi davlatlar amaliyoti bilan bog‘liq.

Uchinchi oqibat ekologik ongning temporal o‘lchoviga taalluqli. An’anaviy talqinda ekologik ong asosan bilim va munosabat kategoriyalari orqali ta’riflanadi, ya’ni inson tabiatni bilishi va unga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishi lozim deb qaraladi. Tadqiqot natijalari ushbu ta’rifga uchinchi tarkibiy qismni, ya’ni temporal tasavvurni qo‘shishni taqozo etadi. Ekologik jihatdan ongli subyekt deganda o‘z qarorining oqibati o‘zi ishtirok etmaydigan vaqt oralig‘ida qanday amal qilishini tasavvur qila oladigan subyekt tushuniladi. Ushbu qo‘shimcha ayniqsa harbiy-professional ta’lim uchun ahamiyatli, chunki harbiy qaror qabul qilish madaniyati tabiatan qisqa vaqt gorizontiga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Natijalarni mavjud tadqiqotlar bilan taqqoslash. Olingan xulosalar ekologiya falsafasining klassik yo‘nalishi bilan qisman muvofiq keladi. Jonasning temporal mas’uliyat g‘oyasi [4] ushbu tadqiqotning aksiologik darajasida to‘liq qabul qilinadi. Biroq mazkur ish Jonasdan farqli o‘laroq, mas’uliyatni texnologiya emas, balki qaror darajasida operatsionallashtiradi. Kopengagen maktabining sekyuritizatsiya nazariyasi [8] bilan taqqoslaganda esa printsipial farq kuzatiladi. Agar sekyuritizatsiya masalani favqulodda holat rejimiga o‘tkazishni ko‘zda tutsa, taklif etilayotgan model, aksincha, ekologik masalani favqulodda rejimdan chiqarib, uni doimiy institutsional amaliyotga aylantirishni nazarda tutadi. Mahalliy tadqiqotlar bilan solishtirilganda, jumladan X.Tursunov tomonidan tahlil qilingan ekologik boshqaruvning institutsional asoslari [24] va I.Ergashev tomonidan yoritilgan ekologik xavfsizlik masalalari [20] bilan taqqoslaganda, mazkur ish ularni to‘ldiradi. Agar mavjud tadqiqotlar institutsional darajada to‘plangan bo‘lsa, ushbu maqola shu institutlarning aksiologik asosini tahlil qiladi.

Mintaqaviy tatbiq. O‘zbekiston uchun tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Markaziy Osiyoning suv va ekologiya sohasidagi o‘zaro bog‘liqligi bilan belgilanadi. Orol dengizining qurishi ekologik tizim yemirilishining harbiy bo‘lmagan yo‘l bilan yuzaga kelishi mumkinligini ko‘rsatdi [11]. Shu bilan birga u mintaqaviy hamkorlikning muqobili yo‘qligini ham namoyish etdi. Taklif etilayotgan modelning institutsional darajasi aynan shu tajribadan kelib chiqadi. Suv va ekologiya diplomatiyasi hamda ishonch choralari mintaqada ekologik omilning mojaro manbaiga aylanishining oldini oluvchi asosiy mexanizm hisoblanadi. “O‘zbekiston 2030” strategiyasida ekologik yo‘nalishning ustuvor deb belgilanishi [3] hamda Konstitutsiyada ekologik huquqlarning mustahkamlanishi [2] ushbu institutsional darajaning milliy huquqiy zaminini tashkil etadi.

Kelgusi tadqiqot yo‘nalishlari. Mazkur ish nazariy model taklif qilish bilan cheklanadi va uning empirik tekshirilishi alohida tadqiqot predmeti bo‘lishi lozim. Istiqbolli yo‘nalishlar sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin. Birinchidan, harbiy ta’lim tizimida ekologik etika bo‘yicha kursning mazmuni va samaradorligini o‘rganish. Ikkinchidan, ekologik ongning temporal o‘lchovini o‘lchash metodikasini ishlab chiqish. Uchinchidan, mintaqaviy suv va ekologiya sohasidagi ishonch choralarining institutsional dizaynini qiyosiy tahlil qilish. To‘rtinchidan, ekotsid tushunchasining milliy huquq tizimidagi maqomini nazariy asoslash.

## XULOSA

3. Eurostat. (2009). *The environmental goods and services sector: A data collection handbook* (KS-RA-09-012). Office for Official Publications of the European Communities. https://ec.europa.eu/eurostat/documents/3859598/5910217/KS-RA-09-012-EN.PDF

4. Eurostat. (2016). *Environmental goods and services sector accounts: Handbook* (2016 edition, KS-GQ-16-008). Publications Office of the European Union. https://ec.europa.eu/eurostat/web/products-manuals-and-guidelines/-/KS-GQ-16-008

5. Geels, F. W., & Schot, J. (2007). Typology of socio-technical transition pathways. *Research Policy, 36*(3), 399–417. https://doi.org/10.1016/j.respol.2007.01.003

6. International Energy Agency. (2022). *Uzbekistan energy profile: Sustainable development*. IEA. https://www.iea.org/reports/uzbekistan-energy-profile/sustainable-development

7. Kemp, R., & Pearson, P. (2007). *Final report MEI project about measuring eco-innovation*. UM-MERIT. https://lab.unu-merit.nl/wp-content/uploads/2021/05/Final-report-MEI-project-about-measuring-eco-innovation-1.pdf

8. Kumar, P., & Choudhury, D. (2025). Green technologies: Theories, systems, principles and applications. In M. C. Ogwu & S. Chibueze Izah (Eds.), *Evaluating environmental processes and technologies* (pp. 149–195). Springer. https://doi.org/10.1007/978-3-031-85327-2_6

9. Normamatova, Z. S. (2025). Yashil texnologiyalarga biznes investitsiyalarining iqtisodiy oqibatlari: Iqtisodiy barqarorlik va rentabellik. *Izlanuvchi, 1*(4), 138–145. https://phoenixpublication.net/index.php/Izlanuvchi/article/view/3045

10. OECD, & Eurostat. (1999). *The environmental goods and services industry: Manual for data collection and analysis*. OECD Publishing. https://www.oecd-ilibrary.org/industry-and-services/the-environmental-goods-and-services-industry_9789264173651-en

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-son qarori. (2019, 4-oktabr). LexUz. https://lex.uz/docs/4539502

12. Rennings, K. (2000). Redefining innovation: Eco-innovation research and the contribution from ecological economics. *Ecological Economics, 32*(2), 319–332. https://doi.org/10.1016/S0921-8009(99)00112-3

13. UNCTAD. (2023). *Technology and innovation for cleaner and more productive and competitive production*. United Nations Conference on Trade and Development. https://www.un-ilibrary.org/content/books/9789210028295c006

14. UNESCAP. (2012). *Green technology* (Low Carbon Green Growth Roadmap for Asia and the Pacific, Fact Sheet). United Nations Economic and Social Commission for Asia and the Pacific. https://www.unescap.org/sites/default/files/34.%20FS-Green-Technology.pdf

15. United Nations. (1992). *Agenda 21, Chapter 34: Transfer of environmentally sound technology, cooperation and capacity-building* (para. 34.1). United Nations Conference on Environment and Development. https://www.un.org/esa/dsd/agenda21/res_agenda21_34.shtml

16. United Nations Environment Programme. (2011). *Towards a green economy: Pathways to sustainable development and poverty eradication*. UNEP. https://www.unep.org/resources/report/towards-green-economy

17. Vafoyev, A. (2025). O‘zbekistonda sanoat zonalarining rivojlanish bosqichlari va huquqiy-me’yoriy asoslari. *Green Economy and Development, 3*(9). https://doi.org/10.5281/zenodo.17149245

18. World Bank. (2023). *Research and development expenditure (% of GDP) — Uzbekistan*. https://data.worldbank.org/indicator/GB.XPD.RSDV.GD.ZS?locations=UZ

**Umarov Bahrom Norboyevich**

**Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi kafedra mudiri, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**




# TUSHUNTIRUVCHI DARSLIK MATNINI O‘QIB TUSHUNISH UCHUN MATN TREYLERIGA ASOSLANGAN MEDIATOPSHIRIQLARNING NAZARIY-DIDAKTIK MODELI

**Annotatsiya.** Maktab amaliyotida keng tarqalgan buktreyler metodikasi badiiy matnga mo‘ljallangan: uning ustuvor vazifasi kitobxonlikka qiziqish uyg‘otish va asarni talqin qilishdir. Tushuntiruvchi darslik matni bilan ishlash esa boshqa didaktik vazifani – tushuncha, munosabat va xulosadan iborat ma’no tuzilmasini saqlagan holda qayta ifodalashni talab qiladi. Mavjud tadqiqotlarda bu ziddiyat hal etilmagan: o‘quvchi yaratadigan qisqa video tushuntiruvchi darslik matnini o‘qib tushunishning mustaqil mazmuniy natija ko‘rsatkichi sifatida tekshirilmagan. Maqolaning maqsadi – buktreyler, o‘quv matnini tushunish, polikodli matn, ikkilamchi o‘quv matni, multimedia ta’limi, kognitiv yuklama va o‘quvchi yaratadigan videoga oid manbalarni uyg‘un tahlil qilish asosida tushuntiruvchi matn bilan ishlashga mos matn treyleri mediatopshiriqlarining nazariy-didaktik modelini ishlab chiqish. Ish nazariy-metodologik maqomga ega: unda qiyosiy-tipologik va tushunchaviy tahlil hamda pedagogik modellashtirish usullari qo‘llangan. Tadqiqotning asosiy natijasi quyidagilardan iborat: matn treylerining o‘lchanadigan chegaralarga ega ishchi ta’rifi berildi; uni yaqin tushunchalardan ajratish mezonlari asoslandi; uch guruhga birlashtirilgan sakkizta didaktik shart raqamlangan tizim sifatida ochib berildi; to‘qqiz bosqichli jarayon modeli har bir bosqichning nazariy tayanchi bilan tavsiflandi; treyler sifati va o‘qib tushunish natijasini ajratib baholaydigan ikki asosiy hamda uch qo‘shimcha obyektli baholash tartibi va mezonli rubrika taklif etildi. Model 6-sinf “Qadimgi dunyo tarixi” darsligidagi Nil vodiysi haqidagi parcha misolida ochib berildi. Natijalar nazariy xususiyatga ega va empirik tekshiruvni talab qiladi.

**Kalit so‘zlar:** matn treyleri, tushuntiruvchi matn, o‘qib tushunish, mazmuniy qisqartirish, polikodli matn, mediatopshiriq, kognitiv yuklama, didaktik shart, baholash modeli.

**Аннотация.** Распространённая в школьной практике методика буктрейлера ориентирована на художественный текст: её приоритетная задача – пробуждение читательского интереса и интерпретация произведения. Работа с объяснительным текстом учебника требует иной дидактической задачи – повторного выражения содержания с сохранением смысловой структуры понятий, отношений и вывода. В существующих исследованиях это противоречие не разрешено: создаваемое учащимся короткое видео не проверено как самостоятельный содержательный показатель результата понимания объяснительного учебного текста. Цель статьи – разработать теоретико-дидактическую модель медиазаданий на основе текстового трейлера, пригодную для работы с объяснительным текстом, опираясь на согласованный анализ источников по буктрейлеру, пониманию учебного текста, поликодовому тексту, вторичному учебному тексту, мультимедийному обучению, когнитивной нагрузке и видео, создаваемому учащимися. Работа имеет теоретико-методологический статус. Основные результаты: рабочее определение текстового трейлера с измеримыми границами; критерии его разграничения со смежными понятиями; восемь дидактических условий, объединённых в три группы и представленных как нумерованная система; девятиэтапная процессуальная модель с указанием теоретической опоры каждого этапа; порядок оценивания с двумя основными и тремя дополнительными объектами, а также критериальная рубрика. Модель раскрыта на примере фрагмента о долине Нила из учебника «История древнего мира» для 6 класса. Результаты носят теоретический характер и требуют эмпирической проверки.

**Ключевые слова:** текстовый трейлер, объяснительный текст, понимание прочитанного, смысловое сжатие, поликодовый текст, медиазадание, когнитивная нагрузка, дидактическое условие, модель оценивания.

## KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026 yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2022-yil 11-maydagi PF–134-son Farmoni maktab o‘quvchilarining bilimi va ko‘nikmalarini shakllantirish, zamonaviy darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni amaliyotga kiritishni rivojlantirish dasturining yo‘nalishlari qatorida belgilaydi [1]. PISA xalqaro baholash tadqiqotlari doirasida o‘qish savodxonligi matnni tushunish, undan foydalanish, uni baholash va u haqda mulohaza yuritish bilan bog‘liq qobiliyat sifatida qaraladi [2]. Mazkur maqolada o‘qib tushunish matndagi axborotni takrorlash bilan cheklanmay, tushunchalar va munosabatlarni izchil ma’no tuzilmasiga birlashtirish jarayoni sifatida talqin etiladi; bunday talqin V. Kintschning situatsion model nazariyasiga tayanadi, unga ko‘ra tushunish o‘quvchi ongida matn asosida qurilgan yaxlit vaziyat tasavvuri bilan o‘lchanadi [3].

Mazkur maqolada “tushuntiruvchi darslik matni” deganda o‘quvchiga tushuncha, hodisa, jarayon yoki qonuniyatni izohlashga xizmat qiladigan, mazmuni ta’rif, tasnif, jarayon bosqichlari, sabab-oqibat munosabatlari yoki dalil-xulosa tuzilmasi asosida tashkil etilgan o‘quv matni tushuniladi.

Maktab amaliyotida buktreyler (kitob treyleri) kitobxonlikka qiziqish uyg‘otish, badiiy asarni talqin qilish va loyiha faoliyatini tashkil etish vositasi sifatida qo‘llanadi [4–9]. Shundan kelib chiqib, qisqa video yaratish usulini darslik matni bilan ishlashga tatbiq etish mumkin, degan fikr jozibali tuyuladi. Biroq buktreyler metodikasi badiiy matn tabiatiga, tushuntiruvchi darslik matni esa tushuncha va munosabatlar tizimiga tayanadi. Aynan shu ziddiyat maqolaning muammosini belgilaydi: o‘quvchi yaratadigan qisqa mediamahsulot darslik matnini tushunish jarayoniga xizmat qilishi uchun uning mazmuni, texnologik soddaligi, kognitiv yuki va baholash tartibi qanday shartlarga bo‘ysunishi kerak?

**Tadqiqot obyekti** – umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tushuntiruvchi darslik matnini o‘qib tushunish jarayoni.

**Tadqiqot predmeti** – tushuntiruvchi darslik matnini o‘qib tushunishga yo‘naltirilgan, matn treyleriga asoslangan mediatopshiriqning didaktik shartlari, jarayon modeli va baholash tartibi.

**Tadqiqot gipotezasi.** Tushuntiruvchi darslik parchasi asosida o‘quvchi yaratadigan qisqa mediamahsulot o‘qib tushunishni qo‘llab-quvvatlovchi didaktik vosita maqomiga ega bo‘lishi uchun u bir vaqtning o‘zida uchta shartga javob berishi lozim:

mahsulot mazmuni parchaning etalon tushunchalari va ular o‘rtasidagi munosabatlar bilan chegaralanadi, ularning soni ishchi xotira sig‘imi va element o‘zaro ta’siri darajasiga muvofiq belgilanadi;

mahsulotning texnologik va estetik murakkabligi



tashqi kognitiv yuklamani oshirmaydigan darajada cheklanadi;

o‘qib tushunish natijasi mediamahsulot sifatidan alohida, manba matnga tayangan vositalar bilan o‘lchanadi.

Ushbu uch shartdan biri bajarilmasa, mahsulot sifati bilan tushunish darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlik empirik asosga ega bo‘lmagan taxmin darajasida qoladi.

**Tadqiqotning maqsadi** – buktreyler, o‘quv matnini tushunish, polikodli matn, ikkilamchi o‘quv matni, multimedia ta’limi, kognitiv yuklama va o‘quvchi yaratadigan video haqidagi manbalarni uyg‘un tahlil qilish asosida umumiy o‘rta ta’limda tushuntiruvchi matn bilan ishlashga mos matn treyleri mediatopshiriqlarining nazariy-didaktik modelini ishlab chiqish. Maqolaning ilmiy yangiligi sifatida “matn treyleri”ning o‘lchanadigan chegaralarga ega ishchi ta’rifi, uni yaqin tushunchalardan ajratish mezonlari, uch guruhga birlashtirilgan sakkizta didaktik shart va treyler sifati bilan o‘qib tushunish natijasini alohida baholaydigan model taklif etiladi.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Buktreylerga bag‘ishlangan dastlabki metodik ishlar uni kitob haqidagi qisqa audiovizual xabar, o‘qishga qiziqish uyg‘otuvchi vosita va o‘quv loyihasi sifatida talqin qiladi. M.V.Babkina va Ye.A.Baranova o‘quvchining asardan muhim epizodlarni tanlashi,

ssenariy tuzishi hamda o‘z ishini baholashini universal o‘quv harakatlari bilan bog‘laydi, S.D.Kolova va A.S.Vrublevskiy esa buktreylerni o‘quvchi tahlili va talqinini ifodalovchi alohida mediamatn sifatida ko‘radi [4; 5].

N.Ergasheva hamda T.A.Bogumil va A.A.Dubrovina ishlarida loyiha bosqichlari, material tanlash va kitobxonlik motivatsiyasiga tayangan ijodiy vazifa oldinga chiqadi [6; 7]. Ushbu ishlar topshiriq tuzilishi uchun foydali, lekin ularda tushuntiruvchi darslik matnini tushunish mustaqil natija ko‘rsatkichi sifatida o‘lchanmagan. Shuning uchun metodik tajribani to‘g‘ridan-to‘g‘ri samaradorlik dalili deb qabul qilish qiyin.

N.I.Nikonova va V.V.Terentyeva 5–7-sinflar uchun dastur va o‘qituvchilar so‘roviga tayangan holda buktreylerni o‘qish faoliyatini jonlantirish vositasi sifatida ko‘rsatadi, N.L.Kolchikova vizuallashtirish, intellektxarita, artbuk va buktreylerni o‘quvchi yaratadigan polikodli matnlar qatorida tavsiflaydi [8; 9]. G.M.Adamova va V.Usenova tilni badiiy asar orqali o‘rganishda kalit epizod, ssenariy va refleksiya bosqichlarini ajratadi [10]. L.A.Kamalovaning uchinchi sinf o‘quvchilari ishtirokidagi tadqiqoti esa buktreyler yaratishning amaliy modelini ko‘rsatsa-da, uning asosiy natijasi o‘qib tushunish emas, vatanparvarlik tarbiyasi bilan bog‘langan [11]. Darslik matnini tushunishga oid tadqiqotlar mazkur masalani ancha aniq qo‘yadi. A.N. Sidneva, M.A.Stepanova va V.A.Plotnikova 4–8-sinf o‘quvchilarining ta’rifni anglash, asosiy jumlani ajratish, matnni tuzilmalash va yo‘riqnomani tushunish qobiliyatlarini o‘rganib, bu ko‘nikmalarning barqaror o‘sishi o‘z-o‘zidan yuz bermasligini ko‘rsatadi [12].

J.Ye.Sarsekeyeva tadqiqoti va L.A.Kamalova hammualliflarining onlayn trenajyorlarga oid ishi kitobxonlik savodxonligini maqsadli topshiriqlar bilan qo‘llab-quvvatlash mumkinligini ko‘rsatadi [13; 14]. R.E.Mayerning multimedia ta’limi nazariyasida ham o‘quvchi so‘z va tasvirni shunchaki yonma-yon qabul qilmay, ularni tanlashi, tashkil etishi va o‘zaro bog‘lashi kerakligi asoslanadi [15]. Shunday ekan, matn treyleri darslikning har bir rasmini videoga ko‘chirishi shart emas; aksincha, qaysi vizual belgi tushunchani ochishi, qaysisi faqat bezak ekanini ajratishni talab qiladi. Ma’noli o‘qishdan keyin o‘quvchi yaratadigan sxema, qisqa izoh, taqdimot yoki raqamli o‘quv mahsulotini ikkilamchi o‘quv matni sifatida talqin qilish mumkin [16].

Mediamahsulot yaratish topshirig‘ining chegaralarini belgilashda kognitiv yuklama nazariyasi hal qiluvchi ahamiyatga ega. J.Sweller, P.Ayres va S.Kalyuga o‘quv materialini qayta ishlashda uch turdagi yuklamani ajratadi: material tabiatidan kelib chiqadigan ichki yuklama, materialning taqdim etilish shaklidan kelib chiqadigan tashqi yuklama va sxema qurishga sarflanadigan foydali yuklama [17]. Nazariyaning keyingi umumlashtirilgan bayonida ichki yuklama darajasi bir vaqtda qayta ishlanishi lozim bo‘lgan o‘zaro bog‘liq elementlar soni bilan belgilanishi, tashqi yuklamani kamaytirish esa loyihalashning asosiy vazifasi ekani ta’kidlanadi [19]. Bu qoidalar matn treyleri uchun ikki amaliy natija beradi: birinchidan, bitta qisqa videoga kiritiladigan tushuncha va munosabatlar soni cheklanishi kerak; ikkinchidan, montaj effekti, o‘tish animatsiyasi va fon musiqasi kabi mazmunga xizmat qilmaydigan unsurlar tashqi yuklamani oshirib, foydali yuklama uchun qoladigan resursni qisqartiradi. Raqamli muhitning o‘zi ham betaraf emas: P.Delgado va hammualliflarining meta-tahlili raqamli va bosma matnni o‘qish natijalari o‘rtasidagi farq matn turiga va vaqt sharoitiga bog‘liq holda o‘zgarishini ko‘rsatadi [20]. Shu bois mediatopshiriq raqamli shaklga ega bo‘lgani uchun emas, faqat o‘quv maqsadiga xizmat qilgani uchungina asosli hisoblanadi.

Sharh natijalarini quyidagicha jamlash mumkin. Buktreyler bo‘yicha metodik adabiyotda topshiriqning tashkiliy tuzilishi, ssenariy bosqichlari va motivatsion ta’siri yaxshi o‘rganilgan [4–11]. Darslik matnini tushunish bo‘yicha psixologik-pedagogik tadqiqotlarda esa tushunish ko‘nikmalarining tuzilishi va ularning o‘z-o‘zidan shakllanmasligi asoslangan [12–14]. Multimedia ta’limi va kognitiv yuklama nazariyalari mediamahsulotni loyihalashning umumiy tamoyillarini beradi [15; 17; 19; 20]. Biroq bu yo‘nalishlar tutashadigan nuqta ochiq qolgan: o‘quvchi tushuntiruvchi darslik parchasi asosida yaratadigan qisqa video hozirgacha qiziqish yoki tarbiyaviy ta’sir vositasi sifatida qaralgan, uning mazmuni esa o‘qib tushunishning mustaqil natija ko‘rsatkichi sifatida tekshirilmagan. Ushbu maqola aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan: u mediamahsulotning mazmuniy chegaralarini, didaktik shartlarini va treylerdan alohida baholash tartibini nazariy jihatdan asoslaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

**Tadqiqotning maqomi va usullari.** Ish nazariy-metodologik xususiyatga ega. Unda manbalarni mavzular bo‘yicha qiyosiy-tipologik tahlil qilish, tushunchalarning mazmun va qo‘llanish chegaralarini belgilashga qaratilgan tushunchaviy tahlil, pedagogik modellashtirish hamda loyihalashga yo‘naltirilgan sintez usullari qo‘llandi. Empirik tajriba o‘tkazilmadi, shu sababli maqolada samaradorlikka doir miqdoriy da’volar ilgari surilmaydi.

**Manba qidiruvi protokoli.** Manbalar eLIBRARY.RU, CyberLeninka, Scopus va Google Scholar bazalarida qidirildi. Qidiruv o‘zbek, rus va ingliz tillaridagi kalit so‘zlar bo‘yicha olib borildi. Qamrov davri – 2016–2025-yillar, kognitiv yuklama va multimedia ta’limi nazariyasining asos manbalari xronologik

cheklovdan tashqarida, nazariy tayanch sifatida kiritildi.

Manbalarni tanlash quyidagi mezonlarga asoslandi:

ta'lim kontekstiga bevosita aloqadorlik; to'liq matn yoki rasmiy bibliografik ma'lumotning ochiqligi;

tadqiqot obyekti, metodi va natijasi haqida yetarli axborotning mavjudligi;

maqoladagi da'voning manba mazmuniga mosligi.

Chiqarib tashlash mezonlari: ta'lim jarayonidan tashqaridagi reklama va marketing kontekstidagi ishlar; metodik tavsifi tekshirib bo'lmaydigan ommabop nashrlar; mazmuni takrorlanadigan ikkilamchi bayonlar.

Qidiruv natijalarining miqdoriy tavsifi: Yakuniy tahlil korpusiga 18 ta manba kiritildi; ularga qo'shimcha ravishda ikkita nazariy tayanch manba jalb etildi.

**Modellashtirish mantig'i.** Model uch bosqichda qurildi: avval matn treyleri tushunchasining mazmuni va o'lchanadigan chegaralari aniqlandi, so'ng adabiyotlar sintezidan kelib chiqadigan didaktik shartlar tizimlashtirildi, nihoyat shartlar o'quv jarayonining ketma-ket bosqichlariga va baholash tartibiga o'tkazildi. Shartlarni guruhlash asosida ularning vazifasi yotadi, biroq guruhlar o'rtasida o'zaro bog'liqlik saqlanadi: masalan, kalit tushunchani tanlash mazmuniy amal bo'lsa, uni baholash diagnostik qarorni ham talab qiladi.

## TADQIQOT NATIJALARI

Mazkur tadqiqotda "matn treyleri" atamasi umume'tirof etilgan tayyor termin sifatida emas, muallif taklif etayotgan ishchi pedagogik tushuncha sifatida qo'llanadi. Matn treyleri – o'quvchi o'qigan tushuntiruvchi darslik parchasining asosiy tushunchalari, ular o'rtasidagi mantiqiy munosabatlar va umumiy xulosasini maqsadga muvofiq tanlangan verbal, vizual va audial vositalar orqali qisqa kadrlar ketma-ketligida qayta ifodalovchi o'quv mediamahsulotidir. Uning asosiy vazifasi matnni reklama qilish emas; u o'quvchining mazmuniy tanlovlari va matndagi munosabatlarni qanday qayta qurganini qisman ko'rinadigan qiladi. Shu bois baholash markazida videoning jozibadorligi emas, mazmuniy aniqlik turadi.

Ta'rifning amalda qo'llanishi uchun uning o'lchanadigan chegaralari belgilanadi. Chegaralar kognitiv yuklama nazariyasiga va multimedia ta'limi tamoyillariga tayanib asoslanadi.

*Davomiylik – 60–90 soniya.* Mayer ta'riflagan segmentlash tamoyiliga ko'ra o'quv materiali o'quvchi boshqara oladigan qisqa bo'laklarga bo'linganda samaraliroq o'zlashtiriladi [15]. Bir daqiqa atrofidagi mahsulot bitta parchaning ma'no tuzilmasini qamrab olishga yetarli, ammo diqqatni bo'lish va montajga ortiqcha vaqt sarflash ehtiyojini keltirib chiqarmaydi.

*Kadrlar soni – 4–6 ta.* Har bir kadr bitta mazmuniy vazifani bajaradi: obyektni belgilash, xususiyatni ochish, munosabatni ko'rsatish, natijani berish va xulosani jamlash. Kadrlar sonining ortishi element o'zaro ta'sirini va shu orqali ichki yuklamani oshiradi [17; 19].

*Etalon tushunchalar – 5–7 ta, munosabatlar – 2–4 ta.* Ushbu chegara ichki yuklamani boshqarish talabidan kelib chiqadi: bir vaqtda qayta ishlanishi lozim bo'lgan o'zaro bog'liq elementlar soni cheklanmasa, o'quvchi ma'no tuzilmasini emas, ro'yxatni ko'chirishga o'tadi [17; 19]. Munosabatlar soni tushunchalar sonidan sezilarli kam bo'lishi zarur, chunki aynan munosabat ma'no tuzilmasining o'zagini tashkil etadi [3].

*Media vositalarining cheklanishi.* Mazmuniy vazifaga ega bo'lmagan animatsiya, o'tish effekti va fon musiqasi tashqi yuklamani oshiradi, shuning uchun ular topshiriqning majburiy talabi qilib qo'yilmaydi [15; 17].

Quyida keltiriladigan namunadagi besh kadr, olti etalon tushuncha va uch munosabat aynan mazkur chegaralar ichida tanlangan. Ta'kidlash lozimki, bu ko'rsatkichlar nazariy asosda belgilangan loyihalash normativi bo'lib, empirik tekshiruvdan so'ng qayta ko'rib chiqilishi kerak.

Termin tarkibidagi "treyler" komponenti mahsulotning reklamaviy vazifasini emas, tanlangan mazmunni qisqa kadrlar ketma-ketligida tashkil etish xususiyatini anglatadi. "Qisqa o'quv videoxulosasi" atamasi asosan yakuniy xulosani, "mazmuniy videomodel" esa munosabatlarning nisbatan turg'un tasvirini anglatgani uchun mazkur ishda kadrlar orqali izchil mazmuniy tanlovni ifodalovchi "matn treyleri" atamasi saqlandi.

Tarix, biologiya, geografiya yoki ona tili darsligidagi tushuntiruvchi parcha voqealar intrigasidan ko'ra tushuncha, dalil va munosabatlar tizimiga tayanadi. Shu sababli treyler matnning qisqa ko'chirmasi ham, slaydlar ketma-ketligi ham emas. U mazmunni qisqartirib qayta ifodalashni talab qiladi va o'quvchi nimani xotirada saqlash, nimani ikkinchi darajali deb qoldirish mumkinligini asoslaydi.

Matn treyleri buktreyler, videotaqdimot, raqamli hikoya, ikkilamchi o'quv matni va mazmuniy kompressiya topshirig'i bilan kesishadi. Farqlarni mutlaqlashtirish kerak emas: ayrim buktreylerlar asar mazmunini jiddiy tahlil qiladi, ayrim videotaqdimotlar esa juda qisqa va muammoli bo'lishi mumkin. Shu bois 1-jadvalda keltirilgan qiyos shaklga emas, ustuvor vazifa va baholash mantig'iga qurildi.

***1-jadval***

**Buktreyler va matn treylerining vazifaviy qiyosi**

| Mezon | Buktreyler | Matn treyleri |
|---|---|---|
| **Ustuvor vazifa** | kitobga qiziqish uyg‘otish, asarni talqin qilish va o‘qishga chorlash; ayrim turlarda mazmun tahlili ham mavjud | tushuntiruvchi parchaning kalit tushuncha, munosabat va xulosalarini qisqa kadrlar ketma-ketligida tashkil etish; mazmuniy tanlovni qisman ko‘rinadigan qilish |
| **Manba matn** | ko‘pincha badiiy yoki ommabop kitob; voqea, obraz va muallif uslubi muhim | tushuntiruvchi darslik parchasi; tushuncha, dalil, munosabat va xulosa markazda |
| **Saqlanishi lozim mazmun** | turiga qarab intriga, kayfiyat, asosiy muammo yoki asar talqini | kalit tushunchalar, ularning mantiqiy bog‘lanishi, asosiy xulosa va manba matn mazmuniga muvofiqlik |
| **Adresat** | potensial kitobxon yoki sinfdoshlar | avvalo o‘quvchi va o‘qituvchi; mahsulot tushunish jarayonini muhokama qilishga xizmat qiladi |
| **Baholash markazi** | qiziqarli taqdim, ijodkorlik, asarga munosabat uyg‘otish va texnik yaxlitlik | mazmuniy aniqlik va munosabatlar to‘g‘riligi; tashqi jozibadorlik ikkinchi darajali; o‘qib tushunish treylerdan alohida baholanadi |
| **Yaqin tushunchalar bilan munosabat** | reklama roligi, adabiy talqin, raqamli hikoya va loyiha ishi bilan kesishadi | ikkilamchi o‘quv matni va raqamli artefaktning bir ko‘rinishi; videotaqdimotdan mazmuniy qisqartirish va treylerdan alohida baholash talabi bilan farqlanadi |

*Manba: muallif ishlanmasi.*

Videotaqdimot ko‘p holda axborotni slayd va ovoz orqali yetkazadi, matn treylerida esa tayyor axborotni ko‘rsatishdan oldin uni saralash va munosabatlar tizimiga keltirish shart. Raqamli hikoya shaxsiy yoki voqeaviy bayonga moyil bo‘lishi mumkin, matn treyleri esa manba matndagi dalillarga bog‘langan. Ikkilamchi o‘quv matni undan keng tushuncha: sxema, konspekt, jadval va savollar tizimi ham ikkilamchi matn bo‘la oladi [16]. Matn treyleri raqamli o‘quv mahsuloti sifatida shu keng toifaga kiradi. Mazmunni qisqartirib qayta ifodalash topshirig‘i matn treylerining ichki aqliy vazifasini aniqroq ko‘rsatadi: uning media shakli tanlangan mazmunni so‘z, tasvir va, zarur bo‘lsa, tovush orqali qayta tashkil etadi.

**Didaktik shartlar tizimi.** Adabiyotlar sintezi matn treyleriga asoslangan topshiriqning natijasi bir omilga emas, o‘zaro bog‘langan shartlar tizimiga bog‘liq bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Quyida sakkizta shart uch guruhga birlashtirilgan holda bayon etiladi; ularning jamlangan tavsifi 2-jadvalda keltirilgan.

**1-guruh. Mazmuniy-mantiqiy shartlar.**

*1.1. Kalit tushunchalarni ajratish sharti.* O‘quvchi parchadan etalon tushunchalar to‘plamini mustaqil ajratishi va ularni ikkinchi darajali tafsilotdan farqlashi lozim. Tushunchalar ro‘yxati oldindan tayyor holda berilsa, mazmuniy qaror o‘quvchi o‘rniga qabul qilingan bo‘ladi va topshiriq tashxis qiymatini yo‘qotadi [3; 12].

*1.2. Munosabatlarni ko‘rsatish sharti.* Kalit tushunchalar o‘rtasidagi sabab-oqibat, tasnif yoki dalil-xulosa munosabati kadrlar ketma-ketligida ochiq ifodalanishi kerak. Munosabatlarsiz mahsulot tushunchalar ro‘yxatiga aylanadi va ma’no tuzilmasini aks ettirmaydi [3; 15].

*1.3. Kognitiv yuklamani boshqarish sharti.* Mahsulotga kiritiladigan tushuncha va munosabatlar soni, davomiyligi hamda media vositalari yuqorida asoslangan chegaralar doirasida saqlanadi; mazmuniy vazifasi bo‘lmagan unsurlar kiritilmaydi [15; 17; 19].

*1.4. Tabaqalashtirilgan qo‘llab-quvvatlash sharti.* Tayanch bilim va raqamli tajriba farqini hisobga olib, yordam darajasi o‘zgartiriladi: matn pasportining ochiq qismi, kadrlar sxemasining namunasi yoki savollar orqali yo‘naltirish. Yordam tayyor qolip shaklida berilmasligi kerak, aks holda u o‘quvchining o‘rniga mazmuniy qaror qabul qilib qo‘yadi [12].

**2-guruh. Tashkiliy-diagnostik shartlar.**

*2.1. Tashkiliy resurs sharti.* Dars vaqti, guruhdagi rollar, o‘qituvchi yordami va texnik resurslar oldindan belgilanadi. Guruhda ssenariyni bir o‘quvchi yozib, montajni boshqasi bajarsa, har bir ishtirokchining mazmun bilan qay darajada ishlagani bir xil bo‘lmaydi; shu sababli rollarni almashtirish, qarorlarni jamoaviy asoslash va berilgan yordamni qayd etish zarur.

*2.2. Texnologik soddalik sharti.* Foydalaniladigan vositalar to‘plami cheklanadi va barcha o‘quvchi uchun bir xil sodda muhit tanlanadi. Texnik murakkablik tashqi kognitiv yuklamani oshirib, mazmun bilan ishlashga ajratilgan resursni qisqartiradi [17; 19].

*2.3. Diagnostik shart.* Topshiriq boshlanishidan oldin o‘quvchining tayanch bilimi, matnni tuzilmalash ko‘nikmasi va raqamli harakatlar bo‘yicha ehtiyoji aniqlanadi; jarayon davomida esa mazmun bo‘yicha oraliq tekshiruv o‘tkaziladi. Diagnostika natijasi tabaqalashtirilgan yordam darajasini tanlash uchun asos bo‘ladi va yakuniy bahoning o‘rnini bosmaydi [12].

**3-guruh. Refleksiv-axloqiy shartlar.**

*3.1. Metakognitiv refleksiya sharti.* O‘quvchi “nega aynan shu kadrni tanladim?”, “qaysi fikrni qisqartirdim va nima uchun?”, “qaysi bosqichda qiynaldim?” kabi savollarga qisqa javob beradi. Refleksiya bahoning bir qismi sifatida emas, mazmuniy tanlovni ochiq qiladigan vosita sifatida qaraladi.

*3.2. Axloqiy shart.* Mediamahsulot yaratish uch talabga bo‘ysunadi: o‘quvchining tasviri va ovozini yozib olish hamda ularni sinf doirasidan tashqarida namoyish etish uchun o‘quvchining va uning qonuniy vakilining oldindan roziligi olinadi; boshqa manbadan olingan tasvir, video va musiqa faqat mualliflik huquqi talablariga muvofiq, manbasi ko‘rsatilgan holda ishlatiladi; mahsulotda shaxsiy ma’lumotlar aks etmasligi va uni saqlash tartibi oldindan keli-

shilgan bo‘lishi ta’minlanadi. Mazkur talablar bajarilmasa, topshiriq didaktik jihatdan qanchalik puxta bo‘lmasin, uni ommaviy amaliyotga tavsiya etib bo‘lmaydi.

***2-jadval***

**Matn treyleriga asoslangan mediatopshiriqning didaktik shartlari tizimi**

| Shart | Mazmuni | Nazariy tayanchi | Kuzatiladigan ko‘rsatkichi |
|---|---|---|---|
| Kalit tushunchalarni ajratish | etalon tushunchalarni mustaqil ajratish va ikkinchi darajali tafsilotdan farqlash | [3; 12] | ajratilgan tushunchalarning etalon ro‘yxatga mos ulushi |
| Munosabatlarni ko‘rsatish | sabab-oqibat, tasnif yoki dalil-xulosa munosabatini kadrlarda ifodalash | [3; 15] | to‘g‘ri ifodalangan munosabatlar soni |
| Kognitiv yuklamani boshqarish | tushuncha, munosabat, kadr va davomiylik chegarasini saqlash | [15; 17; 19] | chegaradan chiqish hollari; mazmuniy vazifasiz unsurlar soni |
| Tabaqalashtirilgan qo‘llab-quvvatlash | yordam darajasini diagnostikaga qarab o‘zgartirish | [12] | berilgan yordam turi va darajasining qaydi |
| Tashkiliy resurs | vaqt, rollar, yordam va texnik sharoitni oldindan belgilash | [4; 6; 7] | rollar taqsimoti va ularning almashinishi qaydi |
| Texnologik soddalik | vositalar to‘plamini cheklash, yagona sodda muhit | [17; 19] | texnik harakatlarga sarflangan vaqt ulushi |
| Diagnostik shart | boshlang‘ich va oraliq tekshiruv o‘tkazish | [12] | boshlang‘ich diagnostika va oraliq tekshiruv natijasi |
| Metakognitiv refleksiya | tanlov, qisqartirish va qiyinchilikni izohlash | [15; 16] | refleksiv javobda asoslangan tanlovlar soni |
| Axloqiy shart | rozilik, mualliflik huquqi, shaxsiy ma’lumotlar himoyasi | [1] | rozilik hujjati; manbalar ko‘rsatilgani; saqlash tartibi |

*Manba: muallif ishlanmasi.*

**Mediatopshiriqning to‘qqiz bosqichli modeli**

1. Taklif etilayotgan model to‘qqizta o‘zaro bog‘langan bosqichdan iborat. Bosqichlar ketma-ketligi ikki mantiqqa bo‘ysunadi:

diagnostika loyihalashdan oldin turadi, chunki yordam darajasi boshlang‘ich holatga qarab tanlanadi [12];

mazmuniy qarorlar texnik ijrodan oldin qabul qilinadi, chunki teskari tartibda mahsulotning shakli mazmunni belgilab qo‘yadi va tashqi yuklama ortadi [15; 17; 19].

Har bir bosqich yonida uning nazariy tayanchi ko‘rsatilgan; tayanch ko‘rsatilmagan bosqichlar muallifning qo‘shimchasi hisoblanadi.

**Boshlang‘ich diagnostika.** O‘quvchining tayanch bilimi, matnni tuzilmalash ko‘nikmasi va raqamli harakatlar bo‘yicha ehtiyoji aniqlanadi [12].

**2. Matn pasportini tayyorlash.** O‘qituvchi o‘quv maqsadi, etalon tushunchalar, munosabatlar, asosiy xulosa va ehtimoliy qiyin nuqtalarni qayd etadi. Pasport o‘quvchiga tayyor javob sifatida emas, baholashning mazmuniy tayanchi sifatida xizmat qiladi (muallif qo‘shimchasi; [3] ga tayanadi).

**3. Qisqa texnologik oldindan tayyorlash.** O‘quvchi bir xil sodda muhitda matn qo‘shish, tasvir joylash va ovozni boshqarish kabi zarur harakatlarni alohida mashq qiladi; bu bosqich montaj davrida texnik qiyinchilik keltirib chiqaradigan tashqi yuklamani kamaytiradi [17; 19].

**4. Tayanch darajasini tanlash.** Diagnostika natijasiga ko‘ra tabaqalashtirilgan yordam belgilanadi [12].

**5. Matn tahlili va ssenariy tuzish.** Har bir kadr uchun manba matndagi tayanch birlik va kadrning mazmuniy vazifasi ko‘rsatiladi; shu yerda mazmun bo‘yicha birinchi tekshiruv o‘tkaziladi [3; 15].


**6. Mediamahsulotni yaratish.** Muvofiqlik qoidasiga ko‘ra har bir tasvir, tovush yoki animatsiya muayyan mazmuniy vazifaga ega bo‘lishi kerak [15; 17].

**7. Tengdosh va o‘qituvchi tomonidan mazmunni tekshirish.** Muhokamada “chiroyli” yoki “zerikarli” kabi umumiy bahodan ko‘ra tushuncha va munosabat xatosi tahlil qilinadi (muallif qo‘shimchasi; [4; 6] dagi jamoaviy baholash tajribasidan moslashtirilgan).

**8. O‘qib tushunishni mustaqil baholash.** Tushunish darajasi treylerdan alohida, manba matnga tayangan vositalar bilan o‘lchanadi (muallif qo‘shimchasi; [12; 13] ga tayanadi).

**Refleksiya.** O‘quvchi tanlovlarini, qiyinchilikni va foydalanilgan manbalarni qisqa refleksiyada qayd etadi [16].

Model umumlashgan holda 1-rasmda keltirilgan. Model chiziqli ko‘rinsa-da, amalda ssenariydan matn tahliliga, tekshiruvdan montajga qaytish mumkin. Ammo qaytishning asosiy sababi texnik bezak emas, mazmunni aniqlash bo‘lishi kerak. Mazkur farq prinsipial ahamiyatga ega: u matn treylerini oddiy video tayyorlash mashg‘ulotidan ajratadi.




**1-rasm. Matn treyleriga asoslangan mediatopshiriq modeli**

*Manba: muallif ishlanmasi.*

Chizmaning tarkibi quyidagicha bo‘lishi kerak: yuqori qatorda “Boshlang‘ich diagnostika” bloki; undan “Matn pasporti” va “Tayanch darajasini tanlash” bloklariga ikkita o‘q; o‘rta qatorda “Texnologik tayyorgarlik” → “Matn tahlili va ssenariy” → “Mediamahsulotni yaratish” zanjiri; pastki qatorda “Mazmun tekshiruvi” → “O‘qib tushunishni mustaqil baholash” → “Refleksiya” zanjiri; “Matn tahlili va ssenariy” hamda “Mazmun tekshiruvi” bloklari orasida ikki tomonlama qaytish o‘qi; chap chekkada uch guruh shartlarini ifodalovchi vertikal ustun, undan barcha bosqichlarga umumiy ta’sir chizig‘i.

**Baholash modeli.** Matn treyleri sifati va o‘qib tushunish natijasi bir-biridan alohida baholanadigan ikki asosiy obyekt sifatida belgilandi. Ular o‘zaro bog‘lanishi ehtimol, ammo biri ikkinchisining o‘rnini bosmaydi. Shu sababli jozibali video tayyorlagan o‘quvchi matnni chuqur tushungan, degan avtomatik xulosa chiqarilmaydi; xuddi shuningdek, texnik jihatdan sodda mahsulot ham mazmunan aniq bo‘lishi mumkin. Ikki asosiy obyektdan tashqari uchta qo‘shimcha obyekt ajratiladi: xulosa chiqarish, yangi matnga ko‘chirish va qo‘shimcha ko‘rsatkichlar. Qo‘shimcha obyektlar tadqiqot maqsadlari uchun qimmatli, biroq ular yakuniy bahoni belgilamaydi va asosiy obyektlarning o‘rnini bosmaydi. Baholash obyektlarining to‘liq tavsifi 3-jadvalda berilgan.

***3-jadval***

**Matn treyleri va o‘qib tushunishni baholash modeli**

| Baholash obyekti | Ko‘rsatkichlar | Ma’lumot manbai | Talqin chegarasi |
|---|---|---|---|
| **Asosiy obyekt** Matn treyleri sifati | kalit tushunchalar, mantiqiy munosabatlar, umumiy xulosa, manba matn mazmuniga muvofiqlik va media vositalarining mazmunga xizmat qilishi | mezonli baholash rubrikasi (4-jadval) va baholovchilarning alohida ballari | mediamahsulot sifatini ifodalaydi; o‘qib tushunish natijasining o‘zi emas |
| **Asosiy obyekt** Matnga tayangan o‘qib tushunish | ikki axborot birligini bog‘lash, sabab-oqibat munosabatini tushuntirish, dalilni xulosadan ajratish | manba matndan foydalanishga ruxsat berilgan integrativ test va ochiq javob | topshiriqlar mazmun qamrovi va qiyinligi |
| **Qo‘shimcha obyekt** Xulosa chiqarish | matnda tayyor holda berilmagan, ammo kamida ikki dalilga tayangan yangi xulosa | qisqa ochiq javob va dalillarni ko‘rsatish talab qilingan savol | umumiy bilim ta’siri alohida hisobga olinadi |
| **Qo‘shimcha obyekt** Yangi matnga ko‘chirish (transfer) | o‘xshash tuzilmali, mazmuni yangi tushuntiruvchi parchada kalit tushuncha, munosabat va xulosani ajratish | darhol va kechiktirilgan yangi matn topshirig‘i | kechiktirilgan natijaga xotira va keyingi ta’lim ta’sir qilishi mumkin |
| **Qo‘shimcha obyekt** Yordamchi ko‘rsatkichlar | matnsiz qayta tiklash, og‘zaki qayta bayon, kechiktirilgan eslash, motivatsiya, hamkorlik va raqamli ko‘nikma | qayta bayon, so‘rovnoma, jarayon qaydi va qisqa shkalalar | xotira, nutqiy ifoda va texnik tajriba sabab asosiy bahoni almashtirmaydi |

*Manba: muallif ishlanmasi.*

Birinchi asosiy obyektni baholash uchun mezonli rubrika ishlab chiqildi (4-jadval). Rubrika beshta mezondan iborat bo‘lib, har biri uch darajada – 0, 1 va 2 ball bilan baholanadi; maksimal ball 10 ni tashkil etadi. Rubrika mahsulotning estetik sifatini emas, mazmuniy aniqligini o‘lchashga qaratilgan: media vositalari faqat mazmunga xizmat qilish nuqtayi nazaridan baholanadi.

***4-jadval***

**Matn treyleri sifatini baholash rubrikasi**

| Mezon | 0 ball | 1 ball | 2 ball |
|---|---|---|---|
| Etalon tushunchalarning saqlanishi | etalon tushunchalarning yarmidan kami aks etgan | ko‘pchilik tushuncha aks etgan, ayrimlari tushib qolgan yoki ortiqcha | belgilangan etalon tushunchalar to‘liq va ortiqchasiz aks etgan |
| Munosabatlarning to‘g‘ri ifodalanishi | munosabatlar ko‘rsatilmagan yoki xato | munosabatlarning bir qismi to‘g‘ri, qolganlari noaniq | barcha etalon munosabatlar to‘g‘ri va aniq ifodalangan |
| Umumiy xulosaning berilishi | xulosa yo‘q yoki manba matnga zid | xulosa bor, ammo qisman yoki haddan tashqari umumlashtirilgan | xulosa manba matnga muvofiq, ehtiyotkor va aniq ifodalangan |
| Manba matnga muvofiqlik | manbada yo‘q ma’lumot kiritilgan, manba ko‘rsatilmagan | ayrim tafsilotlar manbadan chetga chiqqan yoki manba to‘liq ko‘rsatilmagan | barcha mazmun manbaga tayanadi, manba va betlar aniq ko‘rsatilgan |
| Media vositalarining mazmunga xizmat qilishi | vositalar bezak vazifasini bajaradi, diqqatni chalg‘itadi | vositalarning bir qismi mazmuniy vazifaga ega | har bir tasvir, yozuv va tovush aniq mazmuniy vazifani bajaradi |

*Manba: muallif ishlanmasi.*

**Darslik parchasi asosidagi amaliy namuna.** Amaliy misol uchun A.Sagdullayev va V.Kostetskiyning umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfiga mo‘ljallangan “Qadimgi dunyo tarixi” darsligidagi 6-§ “Nil vodiysi va uning aholisi” mavzusining 28–29-betlari tanlandi [18]. Parcha 28-betdagi “Misr – Nil in’omi” kichik sarlavhasidan 29-betdagi ekinlar ro‘yxati yakunlangan jumlasigacha qamrab olinadi. Unda Nilning sersuvligi, quyi vodiydagi qora tuproqli serhosil dalalar, dalalarning suvga bostirilishi, hosil va sivilizatsiya uchun yaratilgan zamin o‘zaro bog‘langan. Shu jihat parchani sabab-oqibat hamda dalil-xulosa tuzilmasiga ega tushuntiruvchi matn sifatida ishlashga imkon beradi. Parchaning matn pasporti 5-jadvalda keltirilgan.

***5-jadval***

**“Nil vodiysi va uning aholisi” parchasining matn pasporti**

| Maydon | Namunadagi mazmun |
|---|---|
| Manba matn | A.Sagdullayev, V.Kostetskiy. “Qadimgi dunyo tarixi”, 6-sinf darsligi, 6-§ “Nil vodiysi va uning aholisi”, 28–29-betlar. Chegara: “Misr – Nil in’omi” kichik sarlavhasidan 29-betdagi “...meva va sabzavotlar yetishtirilardi” jumlasigacha [18] |
| Etalon tushunchalar | N=6: 1) Nil daryosi – asosiy tabiiy obyekt; 2) quyi vodiy – daryoning 3–22 km kenglikdagi qismi; 3) qora tuproqli serhosil dalalar – dehqonchilik makoni; 4) dalalarni suvga bostirish – daryo ta’siri; 5) dehqonchilik va barakali hosil – xo‘jalik natijasi; 6) sivilizatsiya – parchaning umumlashtiruvchi tushunchasi |
| Sabab-oqibat zanjirlari | R=3: (1) Nilning sersuvligi + qora tuproqli serhosil dalalar → dehqonchilik uchun qulay sharoit; (2) Nilning dalalarni suvga bostirib, keng-mo‘l oqishi → barakali hosil; (3) qulay tabiiy sharoit + dehqonchilik imkoniyati → sivilizatsiya vujudga kelishi uchun zamin |
| Asosiy xulosa | Nilning suvi va quyi vodiydagi serhosil yerlar Qadimgi Misrda dehqonchilik hayoti hamda sivilizatsiya vujudga kelishi uchun muhim zamin yaratgan |
| Cheklovlar | Parcha Nilni sivilizatsiyaning yagona sababi deb ko‘rsatmaydi, shuning uchun “zamin yaratgan” ifodasi saqlanadi. Tanlangan chegarada sug‘orish inshootlari, davlat boshqaruvi va ijtimoiy tashkilot izohlanmagan, ular treylerga qo‘shimcha dalilsiz kiritilmaydi. 6 ming km va 3–22 km raqamlari yordamchi fakt, asosiy xulosa emas |

*Manba: muallif ishlanmasi.*

**Tushunchalar xaritasi.** Parchadagi asosiy bog‘lanish uch tarmoqda ifodalanadi: “Nilning sersuvligi + quyi vodiydagi qora tuproqli serhosil dalalar → dehqonchilik uchun qulay sharoit”; “Nilning dalalarni suvga bostirib, keng-mo‘l oqishi → barakali hosil”; “mazkur tabiiy sharoit va dehqonchilik imkoniyati → Afrika shimoli-sharqida sivilizatsiya vujudga kelishi uchun zamin”. Xaritada “Qora tuproq” va “Nil in’omi” birikmalari sabab emas, vodiyliklar bergan nom va umumlashtiruvchi belgi sifatida joylashtiriladi.

**Ssenariy.** Qisqa videoda beshta kadr rejalashtiriladi, ya’ni namuna yuqorida asoslangan 4–6 kadr chegarasi ichida qoladi. Har bir kadr uchun manbadagi axborot birligi, ekran matni, sodda tasvir va mazmuniy vazifa oldindan ko‘rsatiladi. Fon musiqasi shart emas; namunada qisqa diktor matnidan boshqa audio qo‘shilmaydi. Bu qaror bezakni emas, bog‘lanishni ko‘rinadigan qilishga qaratilgan va tashqi kognitiv yuklamani cheklash talabidan kelib chiqadi [15; 17].

*1-kadr – makon va manba.* Sodda chiziqli xaritada Nilning Afrika shimoli-sharqidagi yo‘nalishi ko‘rsatiladi. Ekranda “Nil – 6 ming kilometrlik sersuv daryo” degan qisqa yozuv, ovozda esa mavzu va manba aytiladi. Vazifa – keyingi fikrlar bog‘lanadigan asosiy obyektni belgilash.

*2-kadr – vodiyning xususiyati.* Daryoning quyi qismi shartli kesimda, ikki belgisi – “3–22 km” va “qora tuproqli serhosil dalalar” bilan beriladi. Raqamlar alohida bezak emas, vodiyning makoniy xususiyatini aniqlashga xizmat qiladi.

*3-kadr – sabab-oqibat.* Daryodan dalaga yo‘nalgan bitta harakatli ko‘rsatkich va “Nil dalalarni suvga bostirib oqadi” yozuvi qo‘llanadi. Diktor matni suv bilan ta’minlanishni dehqonchilik sharoitiga bog‘laydi; manbada yo‘q sug‘orish inshooti yoki texnik jarayon qo‘shilmaydi.

*4-kadr – natija.* Bug‘doy, arpa va poliz ekinlarining uchta shartli belgisi “keng-mo‘l oqim → barakali hosil” zanjiri bilan birlashtiriladi. Vazifa – ekinlar ro‘yxatini takrorlash emas, daryo holati bilan hosil o‘rtasidagi munosabatni ko‘rsatish.

*5-kadr – umumiy xulosa.* Oxirgi kadrda “Nil + serhosil vodiy + dehqonchilik imkoniyati → Misr sivilizatsiyasi uchun zamin” modeli chiqariladi. Pastki qismida darslik manbasi va 28–29-betlar ko‘rsatiladi. Bu kadr matndagi xulosani jamlaydi, ammo Nilni sivilizatsiyaning yagona sababi deb ko‘rsatmaydi.

**Baholash yo‘li.** Treylerda olti etalon tushuncha va uchta munosabatning saqlanishi 4-jadvaldagi rubrika orqali qayd etiladi. O‘qib tushunish esa videodan alohida, manba matnga tayangan uchta vazifa bilan tekshiriladi; ular 6-jadvalda keltirilgan.

***6-jadval***

**“Nil vodiysi va uning aholisi” parchasiga doir baholash vazifalari**

| Vazifa turi | Savol va yo‘riq | Shkala |
|---|---|---|
| Ikki axborot birligini bog‘lash | Nilning sersuvligi va quyi vodiydagi qora tuproqli serhosil dalalarni o‘zaro bog‘lab, nima uchun bu hudud dehqonchilikka qulay bo‘lganini tushuntiring. Javobda har ikki axborot birligidan foydalaning | 0 – bog‘lanish yo‘q; 1 – bitta axborot; 2 – ikkalasi bor, bog‘lanish qisman; 3 – suv, yer va dehqonchilik munosabati aniq tushuntirilgan |
| Dalilni xulosadan ajratish | A) “Nilning quyi qismi qora tuproqli serhosil dalalardan iborat”. B) “Nil Afrika shimoli-sharqida sivilizatsiya vujudga kelishi uchun zamin yaratgan”. Qaysi jumla aniq faktni, qaysi biri umumlashtiruvchi xulosani ifodalaydi? Tanlovingizni parchaga tayanib asoslang | to‘g‘ri tasnif – har biri 1 ball; matndagi tayanchni ko‘rsatish – 0–2 ball; jami 0–4 |
| Yangi xulosa chiqarish | Matnda Nil keng-mo‘l oqqan yillari hosil barakali bo‘lgani aytilgan. Agar daryo oqimi bir necha yil kamaysa, dehqonchilikda qanday ehtimoliy o‘zgarish kutilishi mumkin? Javobingizni parchadagi kamida ikki axborot birligi bilan asoslang | 0 – asossiz; 1 – bitta dalil; 2 – ikki dalil bor, xulosa qisman; 3 – ehtiyotkor va manbaga muvofiq xulosa |

*Manba: muallif ishlanmasi.*

**MUHOKAMA.** Taklif etilgan model buktreyler metodikasini inkor etmaydi, balki uning foydali qismlarini boshqa didaktik maqsadga moslashtiradi. Ssenariy tuzish, material tanlash, guruhda ishlash va mediamatn yaratish kabi bosqichlar M.V.Babkina va Ye.A.Baranova, N.Ergasheva, T.A.Bogumil va A.A. Dubrovina ishlarida ishlangan [4; 6; 7]. Matn treylerida esa ustuvor mezon o‘zgaradi: o‘qishga qiziqtirishdan ko‘ra o‘qilgan tushuntiruvchi matnning ma’no tuzilmasini saqlash birinchi o‘ringa chiqadi. Farq nomda emas, topshiriqning nimaga javobgar ekanida.

Mavjud tadqiqotlarning ijobiy xulosalarini bevosita ko‘chirib bo‘lmasligini alohida ta’kidlash lozim. L.A.Kamalovaning tadqiqotida buktreyler yaratishning natijasi vatanparvarlik tarbiyasi sohasida qayd etilgan [11]; N.I.Nikonova va V.V.Terentyeva esa buktreylerni o‘qish faoliyatini jonlantirish, ya’ni motivatsion ta’sir vositasi sifatida baholaydi [8]. Ikkala holatda ham o‘qib tushunish mustaqil natija ko‘rsatkichi sifatida o‘lchanmagan. Demak, bu ishlarda qayd etilgan ijobiy natija tushuntiruvchi matnni tushunish soha-

siga avtomatik ko‘chirilsa, tarbiyaviy yoki motivatsion samara mazmuniy samara o‘rnida qabul qilingan bo‘ladi. Aynan shu almashinuv metodik adabiyotdagi asosiy uslubiy zaiflikdir va taklif etilayotgan modelda u ikki asosiy obyektni ajratish orqali bartaraf etiladi.

O‘zbekiston sharoitida masala ikki sababga ko‘ra alohida dolzarb. Birinchidan, mamlakatda raqamli transformatsiya va SI’ni rivojlantirish st-



rategik davlat siyosatiga aylangan. “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi va “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi” ta’lim va boshqaruv jarayonlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishni kengaytiradi. Ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirining 2026-yil 24-fevraldagi 284-mh-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan SI yechimlaridan foydalanish bo‘yicha etika qoidalari shaffoflik, inson nazorati, javobgarlik va ma’lumotlarni himoya qilish kabi umumiy milliy talablarni shakllantirdi. Biroq milliy darajadagi umumiy normalarni universitetning kundalik ta’lim amaliyotiga aylantiruvchi aniq institutsional mexanizmlar hali muhim tadqiqot maydoni bo‘lib qolmoqda.

Mazkur tadqiqot aynan shu institutsional bo‘shliqni Xalqaro Nordik Universiteti misolida tahlil qiladi. Universitet SI’dan foydalanish bo‘yicha 11 bobdan iborat maxsus yo‘riqnomani qabul qilgan. Hujjatda talabalar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar va ma’muriy xodimlar uchun alohida qoidalar, ruxsat etilgan va taqiqlangan foydalanish holatlari, maxfiylik, oshkorlik va javobgarlik mexanizmlari belgilangan. Biroq siyosatning mavjudligi uning amaliy samaradorligini avtomatik ravishda kafolatlamaydi. Asosiy ilmiy masala - jamoa ushbu talablarni qanchalik biladi, qabul qiladi va real xatti-harakatga aylantiradi - empirik baholashni talab qiladi.

Shundan kelib chiqib, tadqiqotning maqsadi oliy ta’limda SI’dan foydalanishning etik me’yorlari va akademik halollikni ta’minlash mexanizmlarini nazariy hamda empirik jihatdan o‘rganish, Xalqaro Nordik Universitetining institutsional tajribasini baholash va takomillashtirish yo‘nalishlarini asoslashdan iborat. Tadqiqot quyidagi savollarga javob izlaydi: (RQ1) universitetning SI yo‘riqnomasi xalqaro va milliy etik tamoyillar bilan qay darajada uyg‘un? (RQ2) universitet jamoasining SI etikasi, akademik halollik, xavflar va institutsional siyosat haqidagi qarashlari qanday? (RQ3) e’lon qilingan etik qadriyatlar bilan amaliy xulq-atvor, xususan SI’dan foydalanishni oshkor qilish o‘rtasida qanday bo‘shliq mavjud?

Tadqiqotning ilmiy yangiligi uch jihatda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, u SI etikasi va akademik halollikni O‘zbekistonning o‘zbek tilidagi oliy ta’lim muhiti kontekstida birlashtirib tahlil qiladi. Ikkinchidan, institutsional yo‘riqnomaning mazmuni bilan universitet jamoasining amaliy xulq-atvorini bir tadqiqot doirasida o‘zaro bog‘liq holda tahlil qiladi. Uchinchidan, empirik natijalar asosida “qadriyat-amaliyot uzilishi”ni institutsional SI boshqaruvining markaziy muammosi sifatida ajratib, uni kamaytirishga qaratilgan amaliy mexanizmni taklif etadi.

## 2. ADABIYOTLAR SHARHI

### 2.1. Sun’iy intellekt etikasi: tamoyillar va ta’lim konteksti

SI etikasi texnologiyani ishlab chiqish va qo‘llash jarayonida inson qadr-qimmati, huquqlari va ijtimoiy farovonligini himoya qiluvchi normativ tamoyillar majmuasi sifatida shakllangan. Jobin et al. (2019) turli xalqaro etik qo‘llanmalarni qiyosiy tahlil qilib, shaffoflik, adolatlilik, zarar yetkazmaslik, mas’uliyat va maxfiylik singari takrorlanuvchi tamoyillarni aniqlagan. Floridi va Cowls (2019) ushbu maydonni yaxshilik qilish, zarar yetkazmaslik, avtonomiya, adolat va tushuntirib berish qobiliyati kabi tamoyillar orqali tizimlashtiradi. Bu yondashuvlar SI’ni texnik samaradorlik mezoni bilangina emas, balki uning ijtimoiy oqibatlari va inson nazoratiga mosligi nuqtai nazaridan baholash zarurligini ko‘rsatadi.

UNESCOning 2021-yildagi tavsiyanomasi SI etikasi uchun global normativ asos yaratib, inson huquqlari, xilma-xillik, adolatlilik, shaffoflik va hisobdorlikni markazga qo‘yadi. Ta’lim va ilmiy tadqiqotlar bo‘yicha 2023-yilgi yo‘riqnoma esa generativ SI bilan ishlashda yoshga moslik, ma’lumotlar himoyasi, inson agentligi va pedagogik maqsadning ustuvorligini ta’kidlaydi. OECD tamoyillari ishonchli SI’ni inson manfaatlari, shaffoflik, barqarorlik, ishonchlilik va hisobdorlik bilan bog‘laydi. Yevropa Ittifoqining AI Act hujjati esa xavfga asoslangan tartibga solish orqali ayrim ta’limga oid SI tizimlarini yuqori nazorat talab qiluvchi toifaga kiritadi. Ushbu doiralarning barchasida umumiy yadro mavjud: SI natijasi uchun yakuniy mas’uliyat insonda qoladi.

Ta’lim sohasi mazkur tamoyillarni o‘ziga xos pedagogik mezonlar bilan boyitadi. SI foydalanuvchining bilim olish jarayonini qo‘llab-quvvatlasa, uning didaktik qiymati yuqori bo‘lishi mumkin; biroq talabaning mustaqil fikrlashi, muammo yechishi yoki mualliflik mas’uliyatini almashtirsa, texnologik qulaylik pedagogik maqsad bilan ziddiyatga kirishadi. Shu sababli ta’limda SI’dan mas’uliyatli foydalanish nafaqat xavfsiz va qonuniy foydalanishni, balki talabaning mustaqil fikrlash jarayonidagi ishtirokini ham saqlashni anglatadi (Holmes et al., 2019; Selwyn, 2019).

### 2.2. Generativ SI va akademik halollikning yangi chegaralari

Akademik halollik ta’lim va ilmiy faoliyatda rostgo‘ylik, ishonch, adolat, hurmat, mas’uliyat va jasorat kabi qadriyatlarni amaliy xulq-atvorga aylantirishni anglatadi (ICAI, 2021). Generativ SI bu tamoyillarni bekor qilmaydi, biroq akademik xiyonat shakllarini murakkablashtiradi. An’anaviy plagiat boshqa muallifning tayyor matnini o‘zlashtirish bilan bog‘liq bo‘lsa, generativ model yangi, lekin talabaning o‘zi

yaratmagan matn ishlab chiqishi mumkin. Natijada “original matn” va “mustaqil akademik ish” tushunchalari bir-biridan ajralib qoladi.

Perkins (2023) yirik til modellari akademik halollik tushunchasini qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi, chunki mavjud qoidalar matnning kelib chiqishini emas, ko‘pincha o‘xshashligini nazorat qilishga qurilganini qayd etadi. Eaton (2023) “postplagiarism” tushunchasi orqali generativ texnologiyalar davrida mualliflik, yordam va akademik mas’uliyatning an’anaviy chegaralari qayta shakllanishini ko‘rsatadi. Cotton et al. (2024) esa akademik halollikni faqat aniqlash texnologiyalariga tayanib himoya qilish yetarli emasligini, baholash va pedagogik dizaynni qayta ko‘rib chiqish zarurligini asoslaydi.


Muammoning yana bir jihati shundaki, bir xil SI vositasidan ham foydali, ham akademik halollikka zid maqsadlarda foydalanish mumkin. Masalan, matnni grammatik tahrir qilish, murakkab tushunchani izohlash yoki ilmiy qidiruvni tizimli rejalashtirishni o‘rganishni qo‘llab-quvvatlashi mumkin. Xuddi shu vosita esa imtihonda yashirin yordam olish, topshiriqni to‘liq generatsiya qilish yoki soxta adabiyotlar yaratish uchun ham qo‘llanishi mumkin. Shuning uchun SI bo‘yicha etik siyosat vosita nomiga emas, foydalanishning maqsadi, konteksti, hajmi va oshkorligiga asoslanishi lozim.

SI-detektorlar ushbu muammoni to‘liq hal qilmaydi. Ular noto‘g‘ri ijobiy va noto‘g‘ri salbiy natijalar berishi mumkinligi sababli akademik qarorlar uchun yagona dalil sifatida ishonchli emas. Bu holat faqat nazoratga tayanishdan ko‘ra, etik savodxonlik, jarayonni baholash, og‘zaki himoya, reflektiv izoh va oshkorlik kabi oldini olish choralariga ko‘proq e’tibor qaratishni talab qiladi. Natijada akademik halollik siyosati “qo‘lga tushirish” mantig‘idan “mas’uliyatli foydalanishni o‘rgatish” mantig‘iga siljiydi.

### 2.3. Institutsional SI siyosati va tadqiqot bo‘shlig‘i

Oliy ta’limda sun’iy intellektdan foydalanishni tartibga solishda uchta asosiy yondashuv shakllanmoqda. Birinchi yondashuv SI’dan foydalanishni keskin cheklashga asoslanadi. Ikkinchi yondashuv undan keng foydalanishga ruxsat beradi, biroq talaba yoki o‘qituvchi SI’dan foydalanganini ochiq ko‘rsatishi talab etiladi. Uchinchi yondashuv esa SI’dan foydalanish qoidalarini fan, topshiriq va ta’lim maqsadiga qarab belgilashni nazarda tutadi.

Hozirgi vaqtda ko‘plab universitetlar aynan uchinchi, ya’ni moslashuvchan yondashuvga o‘tmoqda. Chunki tibbiyot, dasturlash, chet tillari, iqtisodiyot yoki ijodiy fanlarda SI’dan foydalanish imkoniyatlari va cheklovlari bir xil bo‘lishi mumkin emas. Shu sababli umumiy universitet siyosati bilan bir qatorda, har bir fan va topshiriq uchun aniq foydalanish qoidalarini belgilash muhim hisoblanadi. Chan (2023)




ham SI siyosatini universitet miqyosidagi umumiy qoidalar, fan darajasidagi ko‘rsatmalar va SI’dan mas’uliyatli foydalanish bo‘yicha pedagogik savodxonlik bilan birgalikda tashkil etishni taklif qiladi.

Xorijiy universitetlar tajribasi SI’dan foydalanishni samarali boshqarish uchun bir nechta muhim qoidalar zarurligini ko‘rsatadi. Avvalo, SI’dan qaysi holatlarda foydalanish mumkinligi va qaysi holatlarda taqiqlanishi aniq belgilanishi kerak. Shuningdek, foydalanuvchi SI’dan foydalanganini ochiq ko‘rsatishi, maxfiy ma’lumotlarni himoya qilishi va o‘qituvchiga topshiriq xususiyatidan kelib chiqib foydalanish chegaralarini belgilash imkoniyati berilishi lozim.

Bundan tashqari, talabalar va o‘qituvchilarning SI savodxonligini rivojlantirish, baholashda faqat yakuniy natijaga emas, balki ish jarayoni, og‘zaki tushuntirish va talabaning shaxsiy hissasiga ham e’tibor qaratish muhimdir. SI texnologiyalari tez o‘zgarib borayotgani sababli universitet siyosati ham muntazam ravishda yangilanib turishi kerak. Bearman va boshqalar (2023) ta’kidlaganidek, oliy ta’limda SI bir tomondan katta imkoniyat sifatida, ikkinchi tomondan esa muayyan xavflar manbai sifatida qaralmoqda. Shu sababli universitetlarda SI’dan foydalanishni na to‘liq cheklaydigan, na nazoratsiz qoldiradigan, balki imkoniyat va xavflar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlaydigan boshqaruv tizimi zarur.

O‘zbekiston uchun muammo SI bo‘yicha umumiy normativ asoslar va universitet darajasidagi

kundalik amaliyot o‘rtasidagi masofada namoyon bo‘ladi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi, “Shaxsga oid ma’lumotlar to‘g‘risida”gi va “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonunlar, PF-158-sonli “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi, PQ-358-sonli SI strategiyasi hamda 284-mh-son etika qoidalari institutlar uchun umumiy huquqiy va etik yo‘nalishni belgilaydi. Biroq ushbu tamoyillarni topshiriq, sillabus, ilmiy ish, xizmat hujjati va ma’lumotlarni qayta ishlash darajasiga tushiruvchi amaliy mexanizmlar muassasa tomonidan ishlab chiqilishi kerak.

Mavjud tadqiqotlarning katta qismi ingliz tilidagi va G‘arb universitetlari kontekstiga tegishli. O‘zbek tilidagi akademik muhit, mahalliy normativ talablar, xususiy va xalqaro yo‘naltirilgan universitetlarning rivojlanishi hamda SI vositalaridan foydalanish tezligining etik savodxonlikdan ilgarilab ketishi mahalliy empirik tadqiqotlarga ehtiyoj tug‘diradi. Shu sababli ushbu maqola uchun asosiy tadqiqot bo‘shlig‘i - muassasa siyosatining normativ sifati bilan universitet jamoasining xabardorligi, qadriyatlari va amaliy xulq-atvori o‘rtasidagi bog‘liqlikning O‘zbekiston kontekstida yetarlicha empirik baholanmaganidir.

**1-jadval**

**Tadqiqotning konseptual doirasi**

| Tamoyil / yo‘nalish | Nazariy mazmun | Universitet amaliyotidagi ifodasi |
|---|---|---|
| Inson markazliligi | SI insonning agentligi va ta’lim maqsadlarini qo‘llab-quvvatlaydi | SI yordamchi vosita; talabaning mustaqil fikrlashi saqlanadi |
| Shaffoflik | SI ishtiroki yashirilmaydi | Foydalanilgan vosita va qo‘llangan qism oshkor qilinadi |
| Mas’uliyat | Yakuniy javobgarlik foydalanuvchida qoladi | SI natijalari mustaqil tekshiriladi |
| Maxfiylik | Shaxsiy va xizmat ma’lumotlari himoyalanadi | Maxfiy ma’lumot ochiq platformaga yuklanmaydi |
| Akademik halollik | Mualliflik va mustaqil intellektual hissa saqlanadi | Topshiriqni SI’ga to‘liq bajartirish va yashirish taqiqlanadi |
| SI savodxonligi | Imkoniyat va cheklovlarni tushunish | Trening, fan darajasidagi qoidalar va tanqidiy tekshiruv |

## 3. METODOLOGIYA

Tadqiqot amaliy yo‘naltirilgan institutsional holat tahlili (case study) asosida olib borildi. Unda ikki asosiy usul birgalikda qo‘llanildi: birinchisi - hujjatlarni o‘rganish va qiyosiy tahlil qilish, ikkinchisi esa respondentlar o‘rtasida miqdoriy so‘rovnoma o‘tkazish.

Ushbu yondashuv universitetda qabul qilingan me’yoriy hujjatlarda qanday talablar belgilanganini hamda talabalar va xodimlar bu talablarni qanchalik bilishi, qabul qilishi va amalda ularga rioya etishini o‘zaro taqqoslash imkonini beradi. Shu orqali rasmiy siyosat bilan real amaliyot o‘rtasidagi mavjud tafovutni aniqlash mumkin.

Hujjatli tahlilda Xalqaro Nordik Universitetining “Sun’iy intellektdan foydalanish tartib-qoidalari to‘g‘risidagi yo‘riqnoma”si asosiy birlamchi manba sifatida o‘rganildi. Yo‘riqnomaning 11 bobi mazmunan kodlanib, besh asosiy mezon bo‘yicha tahlil qilindi: akademik halollik, mas’uliyat va inson nazorati, maxfiylik, ochiqlik/shaffoflik hamda qonunchilikka muvofiqlik. Mazkur elementlar UNESCO, OECD, ICAI/ENAI, EU AI Act yondashuvlari va O‘zbekistonning 284-mh-son etika qoidalaridagi tamoyillar bilan qiyoslandi.

Empirik qismda 318 nafar respondent ishtirok etdi. Tanlov tarkibiga 210 nafar talaba (66,0%), 78 nafar professor-o‘qituvchi (24,5%) va 30 nafar ma’muriy xodim (9,5%) kiritildi. Respondentlarning 186 nafari (58,5%) ayol va 132 nafari (41,5%) erkak bo‘lgan. SI’dan foydalanish tajribasi bo‘yicha 121 respondent (38,1%) bir yildan kam, 142 respondent (44,6%) 1-2 yil, 55 respondent (17,3%) esa ikki yildan ortiq tajribaga ega bo‘lgan. Tanlov universitetning turli fakultet va bo‘linmalaridan qatlamli tasodifiy usulda shakllantirildi.

Ma’lumotlar elektron so‘rovnoma orqali ixtiyoriy va anonim tarzda yig‘ilgan. So‘rovnoma demografik blokdan tashqari jami 19 ta Likert tipidagi savoldan iborat bo‘lib, besh konstruktni o‘lchagan: SI etik me’yorlaridan xabardorlik (4 savol), akademik halollikka sodiqlik (4 savol), SI bilan bog‘liq xavflarni idrok etish (4 savol), SI’dan foydalanishni oshkor qilish amaliyoti (3 savol) va institutsional siyosatni qo‘llab-quvvatlash (4 savol). Javoblar 1 - “mutlaqo qo‘shilmayman”dan 5 - “mutlaqo qo‘shilaman”gacha bo‘lgan shkala asosida baholangan.

O‘lchov vositasining ichki ishonchliligi Kronbax alfa koeffitsiyenti orqali baholangan. Barcha konstruktlarda $\alpha$=0,87-0,91 oralig‘idagi qiymatlar kuzatilgan, bu savollar o‘rtasida yuqori ichki uyg‘unlik mavjudligini ko‘rsatadi. Tahlilda tavsifiy statistika - o‘rtacha qiymat (M), standart chetlanish (SD), foiz taqsimotlari - va maqom bo‘yicha guruhlararo qiyoslash qo‘llanildi. Ushbu tadqiqotda inferensial statistik testlar qo‘llanmagani sababli, ushbu maqolada guruhlararo farqlar statistik ahamiyatli deb talqin qilinmaydi; ular tavsifiy tendensiya sifatida izohlanadi.

Etik nuqtai nazardan, so‘rovnoma ixtiyoriy va anonim ishtirok asosida tashkil etilgan. Shaxsiy identifikatsiya qiluvchi ma’lumotlarni tahlil qilish mazkur maqolaning maqsadiga kirmaydi. Tadqiqot dizayni siyosat hujjatining normativ mazmunini respondentlarning subyektiv qarashlari bilan bog‘laydi; shu sababli natijalar “institutsional holatni empirik baholash” sifatida talqin qilinadi.

**2-jadval**
**Respondentlarning demografik tavsifi (N=318)**

| Ko‘rsatkich | Guruh | Soni | Ulush, % |
|---|---|---|---|
| Maqom | Talabalar | 210 | 66,0 |
| Maqom | Professor-o‘qituvchilar | 78 | 24,5 |
| Maqom | Ma’muriy xodimlar | 30 | 9,5 |
| Jins | Ayol | 186 | 58,5 |
| Jins | Erkak | 132 | 41,5 |
| SI tajribasi | 1 yildan kam | 121 | 38,1 |
| SI tajribasi | 1-2 yil | 142 | 44,6 |
| SI tajribasi | 2 yildan ortiq | 55 | 17,3 |

# 4. NATIJALAR

## 4.1. Institutsional yo‘riqnomaning hujjatli tahlili

Xalqaro Nordik Universitetining SI’dan foydalanish bo‘yicha yo‘riqnomasi 11 bobdan iborat bo‘lib, umumiy qoidalar, asosiy tushunchalar, foydalanish tamoyillari, professor-o‘qituvchilar, talabalar, tadqiqotchilar va ma’muriy xodimlar uchun alohida qoidalar, ruxsat etilgan va taqiqlangan platformalar, oshkorlik, javobgarlik va yakuniy qoidalarni qamrab oladi. Hujjatning strukturaviy kuchli tomoni - foydalanuvchi guruhlari bo‘yicha differensiallashgan mas’uliyatni aniq belgilashidir. Talabalar uchun mustaqil o‘rganish va akademik halollik, professor-o‘qituvchilar uchun pedagogik mas’uliyat va baholash xolisligi, tadqiqotchilar uchun ilmiy halollik va ma’lumotlar himoyasi, ma’muriy xodimlar uchun esa xizmat ma’lumotlari maxfiyligi ustuvor vazifa sifatida qo‘yilgan.

Yo‘riqnomaning besh asosiy tamoyili - akademik halollik, halollik va mas’uliyat, maxfiylik, ochiqlik va shaffoflik, qonunchilikka muvofiqlik - xalqaro va milliy etik doiralar bilan mazmunan uyg‘un. Hujjat shaffoflikni umumiy deklaratsiya sifatida emas, amaliy talab sifatida ifodalaydi: SI ishtirokida tayyorlangan ishda vosita nomi, SI yordamida bajarilgan qism va natijalar muallif tomonidan mustaqil tekshirilgani ko‘rsatilishi kerak. Bu mexanizm tamoyilni amaliy qoidaga aylantirgani bilan ahamiyatli.

Ruxsat etilgan va taqiqlangan foydalanish holatlari ham aniq ajratilgan. Matnni tahrirlash, g‘oya ishlab chiqish, manba izlash, murakkab mavzuni tushuntirish va konspektlash kabi yordamchi amaliyotlar maqbul deb ko‘riladi. Topshiriqni to‘liq SI’ga bajartirib o‘z nomidan topshirish, imtihonda yashirin foydalanish, maxfiy ma’lumotlarni ochiq platformaga yuklash, soxta manba yaratish va SI’dan foydalanganini yashirish esa taqiqlangan. Mazkur farqlash SI’ni “o‘rganishni qo‘llab-quvvatlovchi vosita” sifatida saqlab qoladi, biroq uni “talaba o‘rniga bajaruvchi” vositaga aylantirishni cheklaydi.

Javobgarlik qismida qoidabuzarlik darajasiga mutanosib choralar - ogohlantirishdan akademik halollik komissiyasiga yuborishgacha - nazarda tutilgan. Hujjat har bir holatni xolislik va adolat asosida alohida ko‘rib chiqishni belgilashi jazolovchi va tarbiyaviy yondashuv o‘rtasida muvozanat yaratadi. Umuman, hujjatli tahlil yo‘riqnomaning mazmuni va me’yoriy tuzilishi yetarlicha keng qamrovli ekanini ko‘rsatadi. Shunga qaramay, hujjatning haqiqiy samaradorligi foydalanuvchilar uni qanchalik bilishi va amalda bajarishiga bog‘liq.

**3-jadval**
**Universitet yo‘riqnomasining asosiy amaliy mexanizmlari**

| Yo‘nalish | Yo‘riqnomadagi mexanizm | Kutiladigan etik natija |
|---|---|---|
| Shaffoflik | SI vositasi va undan foydalanilgan qismni ko‘rsatish | Mualliflik va yordam chegarasini aniqlashtirish |
| Mas’uliyat | SI natijasini foydalanuvchi mustaqil tekshiradi | Uydirma yoki xato natija uchun javobgarlikni saqlash |
| Maxfiylik | Shaxsiy va xizmat ma’lumotlarini ochiq platformaga yuklamaslik | Ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash |
| Akademik halollik | Topshiriqni to‘liq SI’ga bajartirishni cheklash | Mustaqil intellektual hissani saqlash |
| Moslashuvchanlik | Foydalanuvchi guruhi va faoliyat turiga qarab qoidalar | Kontekstga mos va tushunarli boshqaruv |

## 4.2. SI’dan foydalanish chastotasi va yo‘riqnomadan xabardorlik

So‘rovnoma natijalari SI vositalari universitet jamoasining kundalik faoliyatiga chuqur kirib kelganini ko‘rsatadi. Talabalarning 61,4 foizi va professor-o‘qituvchilarning 52,6 foizi SI’dan har kuni yoki haftada bir necha marta foydalanishini bildirgan. Har kuni foydalanish talabalarda 34,3 foiz, professor-o‘qituvchilarda esa 21,8 foizni tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkichlar SI etikasi universitet uchun nazariy yoki kelajakdagi masala emas, balki allaqachon mavjud amaliy boshqaruv masalasi ekanini tasdiqlaydi.

Yo‘riqnomadan xabardorlik esa foydalanish intensivligiga nisbatan pastroq. Respondentlarning 65,4 foizi hujjatdan to‘liq yoki qisman xabardor, 22,0 foizi u haqida eshitgan, biroq o‘qib chiqmagan, 12,6 foizi esa umuman xabarsiz. Maqom bo‘yicha tafovut aniq: professor-o‘qituvchilarning 82,1 foizi va ma’muriy xodimlarning 80,0 foizi yo‘riqnomadan to‘liq yoki qisman xabardor bo‘lsa, talabalarda bu ko‘rsatkich 59,5 foizni tashkil etadi. Talabalarning 14,8 foizi yo‘riqnomadan butunlay xabarsiz bo‘lib, bu uch guruh ichidagi eng yuqori xabarsizlik darajasidir.

Mazkur natija siyosatni qabul qilish va siyosatni joriy etish o‘rtasidagi muhim farqni ko‘rsatadi. Universitetda batafsil yo‘riqnoma mavjud, biroq foydalanuvchilarning sezilarli qismi uning mazmunini yetarli darajada o‘zlashtirmagan. Ayniqsa SI’dan eng faol

foydalanayotgan talabalar orasida xabardorlik nisbatan pastligi institutsional xavfni oshiradi.

**4-jadval**

**Yo‘riqnomadan xabardorlik darajasi (maqom bo‘yicha)**

| Xabardorlik darajasi | Talabalar, % | Professor-o‘qituvchilar, % | Ma’muriy xodimlar, % |
|---|---|---|---|
| To‘liq yoki qisman xabardor | 59,5 | 82,1 | 80,0 |
| Eshitgan, lekin o‘qimagan | 25,7 | 12,8 | 13,3 |
| Xabarsiz | 14,8 | 5,1 | 6,7 |

### 4.3. Asosiy konstruktlar: qadriyatlar, xabardorlik va oshkorlik

Besh asosiy konstruktning tavsifiy statistikasi institutsional muhitda etik qadriyatlar ijobiy qabul qilinganini ko‘rsatadi. Eng yuqori o‘rtacha qiymat institutsional siyosatni qo‘llab-quvvatlashda qayd etilgan ($M=4,12$; $SD=0,86$; $\alpha=0,91$). Akademik halollikka sodiqlik ham yuqori ($M=3,98$; $SD=0,91$; $\alpha=0,89$). SI bilan bog‘liq xavflarni idrok etish M=3,67, etik me’yorlardan xabardorlik M=3,42 darajasida. Biroq SI’dan foydalanishni oshkor qilish amaliyoti M=2,91 bilan barcha konstruktlar ichida eng past natijani ko‘rsatgan.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, respondentlar universitetdagi qoidalar va akademik halollik tamoyillarini yuqori darajada qo‘llab-quvvatlaydi. Biroq bu munosabat SI’dan kundalik foydalanishda har doim ham amaliy xatti-harakatga aylanmayapti. Ayniqsa, SI’dan foydalanganini ochiq ko‘rsatish darajasi nisbatan past. Ushbu holatni “qadriyat–amaliyot uzilishi” deb izohlash mumkin. Ya’ni respondentlar akademik halollikni muhim deb hisoblasalar-da, SI’dan foydalanganini muntazam ravishda oshkor qilish amaliyoti bunga to‘liq mos kelmaydi.

Shu bilan birga, barcha konstruktlarda Kronbax alfa koeffitsiyentlarining 0,87 dan yuqori bo‘lishi o‘lchov bloklarining ichki barqarorligini ko‘rsatadi. Bu natija past oshkorlik darajasi faqat ayrim savollarga berilgan tasodifiy javoblar bilan bog‘liq emasligini, balki bir nechta savolda izchil kuzatilgan umumiy tendensiyani aks ettirishini ko‘rsatadi.

**5-jadval**

**Asosiy konstruktlarning tavsifiy statistikasi (N=318)**

| Konstrukt | M | SD | Cronbach α |
|---|---|---|---|
| Institutsional siyosatni qo‘llab-quvvatlash | 4,12 | 0,86 | 0,91 |
| Akademik halollikka sodiqlik | 3,98 | 0,91 | 0,89 |
| SI bilan bog‘liq xavflarni idrok etish | 3,67 | 0,98 | 0,88 |
| SI etik me’yorlaridan xabardorlik | 3,42 | 1,07 | 0,90 |
| SI’dan foydalanishni oshkor qilish amaliyoti | 2,91 | 1,18 | 0,87 |

### 4.4. SI’dan foydalanish usullari va u bilan bog‘liq xavflar

Respondentlar SI’dan yordamchi maqsadda foydalanish bilan mustaqil akademik faoliyatni almashtiruvchi foydalanish o‘rtasidagi etik chegarani, umuman olganda, to‘g‘ri farqlagan. Matnni tahrirlashni 88,4 foiz, g‘oyalar ishlab chiqishni 79,2 foiz, manba qidirishni 74,5 foiz va murakkab mavzu bo‘yicha tushuntirish olishni 71,1 foiz respondent maqbul deb baholagan. Buning aksicha, insho yoki kurs ishini SI’ga to‘liq yozdirish faqat 9,7 foiz, imtihonda foydalanish esa 4,7 foiz respondent tomonidan maqbul deb topilgan.

Akademik halollik xavflari ichida eng yuqori ulush soxta manba va havolalar yaratishga berilgan (76,4%). Keyingi o‘rinlarda topshiriqni SI bilan to‘liq bajartirish (72,0%) va mustaqil fikrlashning susayishi (68,6%) turadi. Bu natijalar respondentlar xavfni faqat “plagiat” yoki “qoidabuzarlik” sifatida emas, bilimning ishonchliligi va sifati - ishonchli manba va mustaqil tafakkur - bilan ham bog‘layotganini ko‘rsatadi.

Oshkorlik talabining tamoyil sifatida qo‘llab-quvvatlanishi ham yuqori. Professor-o‘qituvchilarning 87,2 foizi, ma’muriy xodimlarning 86,6 foizi va talabalarning 74,8 foizi SI’dan foydalanilganini ko‘rsatish talabini qo‘llab-quvvatlaydi. Demak, oshkorlikning past amaliy darajasini talabning prinsipial rad etilishi bilan tushuntirish qiyin. Aksincha, mavjud ma’lumotlar ushbu tafovut xabardorlik darajasi, amaliy ko‘nikmalar, yagona oshkorlik shaklining yetarlicha joriy etilmaganligi va SI’dan foydalanganini tan olish bilan bog‘liq psixologik noqulaylik kabi omillar ta’sirida yuzaga kelishi mumkinligini ko‘rsatadi.

**6-jadval**

**SI foydalanish ssenariylari va xavflarning idrok etilishi**

| Ko‘rsatkich | Natija, % |
|---|---|
| Matnni tahrirlashni maqbul deb baholaganlar | 88,4 |
| G‘oya ishlab chiqishni maqbul deb baholaganlar | 79,2 |
| Manba qidirishni maqbul deb baholaganlar | 74,5 |
| Tushuntirish olishni maqbul deb baholaganlar | 71,1 |
| Insho/kurs ishini to‘liq SI’ga yozdirishni maqbul deb baholaganlar | 9,7 |
| Imtihonda SI’dan foydalanishni maqbul deb baholaganlar | 4,7 |
| Soxta manba/havolani jiddiy xavf deb baholaganlar | 76,4 |
| Topshiriqni SI’ga to‘liq bajartirishni jiddiy xavf deb baholaganlar | 72,0 |
| Mustaqil fikrlash susayishini jiddiy xavf deb baholaganlar | 68,6 |

# 5. DISKUSSIYA

### 5.1. Asosiy topilmalarni ilmiy talqin qilish

Tadqiqot natijalari Xalqaro Nordik Universitetida SI etikasi va akademik halollik uchun normativ baza shakllanganini, biroq siyosatning amaliy singdirilishi bir xil darajada kechmayotganini ko‘rsatadi. Bir tomondan, institutsional siyosatni qo‘llab-quvvatlash va akademik halollikka sodiqlik yuqori. Ikkinchi tomondan, oshkorlik amaliyoti o‘rta darajadan past. Ushbu qarama-qarshilik institutsional boshqaruv nuqtai nazaridan muhim: muammo qadriyatlarning mavjud emasligida emas, ularni kundalik amaliyotga o‘tkazuvchi mexanizmlarning yetarli darajada standartlashmaganida.

Bu holat generativ SI siyosatini faqat normativ hujjat yaratish vazifasi sifatida ko‘rish yetarli emasligini ko‘rsatadi. Chan (2023) ta’kidlaganidek, SI siyosati ta’lim dizayni, savodxonlik va institutsional qo‘llab-quvvatlash bilan integratsiyalashgandagina samarali bo‘ladi. Mazkur tadqiqot bu tezisni mahalliy kontekstda qo‘llab-quvvatlaydi: universitetda batafsil yo‘riqnoma bor, ammo talabalarning 40,5 foizi hujjatdan to‘liq/qisman xabardor guruhga kirmaydi; aynan talabalar esa SI’dan eng faol foydalanayotgan guruhdir. Shunday qilib, “siyosatning mavjudligi” va “siyosatning amaliyotga singdirilishi” tushunchalarini ajratish zarur.

Oshkorlikning pastligi alohida tahlilni talab qiladi. SI’dan foydalanganini ko‘rsatish akademik shaffoflikning amaliy ko‘rinishi bo‘lib, u foydalanuvchini jazolash uchun emas, o‘qituvchiga talabaning mustaqil intellektual hissasini to‘g‘ri baholash imkonini berish uchun xizmat qiladi. UNESCO (2023), akademik halollik bo‘yicha zamonaviy yondashuvlar va ilmiy nashriyot amaliyoti SI ishtirokini oshkor qilishni hisobdorlik mexanizmi sifatida ilgari surmoqda. Tadqiqotda oshkorlik talabining barcha guruhlar tomonidan yuqori darajada qo‘llab-quvvatlanishi, biroq amaliyotning M=2,91 bo‘lishi oshkorlik talabini qo‘llab-quvvatlashning o‘zi amaliy xatti-harakatni o‘zgartirish uchun yetarli emasligini ko‘rsatadi.

“Qadriyat–amaliyot uzilishi”ni uchta asosiy sabab bilan izohlash mumkin. Birinchidan, ayrim foydalanuvchilar SI’dan foydalanganini qachon va qanday ko‘rsatish kerakligini yetarlicha bilmasligi mumkin. Ikkinchidan, barcha fan va topshiriqlar uchun yagona, sodda oshkorlik shakli mavjud bo‘lmasa, bu talab foydalanuvchilar tomonidan ortiqcha rasmiyatchilik sifatida qabul qilinishi mumkin. Uchinchidan, universitet muhitida SI’dan foydalanganini ko‘rsatish qoidabuzarlikni tan olish emas, balki akademik shaffoflik va mas’uliyatning bir qismi sifatida qaralishi lozim.

### 5.2. Baholash usullari, SI savodxonligi va akademik halollik

Tadqiqot natijalari nazorat va aniqlashga haddan tashqari tayanishdan ko‘ra, baholashni qayta loyihalash zarurligini ham ko‘rsatadi. Talabalar SI’dan tez-tez foydalanayotgan sharoitda uyda bajariladigan umumiy esse yoki standart nazariy topshiriqlarni SI yordamida to‘liq bajarish osonlashadi. Bunday vaziyatda akademik halollikni faqat SI-detektorlar orqali nazorat qilish barqaror yechim emas. Cotton et al. (2024) va generativ SI bo‘yicha kengroq pedagogik adabiyotlar baholashni jarayonga, refleksiyaga va talabaning og‘zaki asoslashiga yaqinlashtirishni taklif qiladi.

Xalqaro Nordik Universiteti uchun bu yondashuv amaliy jihatdan bir necha shaklga ega bo‘lishi mumkin: topshiriqning bosqichma-bosqich topshirilishi, ishning dastlabki variantlari, qisqa og‘zaki himoya, ishlatilgan promptlar yoki SI’dan foydalanish haqida qisqa ma’lumot, shaxsiy/amaliy misol asosidagi tahlil va natijani mustaqil tekshirish talabi. Bunday dizayn SI’ni taqiqlamaydi, biroq talabaning intellektual hissasini ko‘rinadigan qiladi. Bu muhim, chunki respondentlarning 68,6 foizi SI’ga ortiqcha tayanish mustaqil fikrlashni susaytirishini jiddiy xavf deb bilgan.

SI savodxonligi ham texnik prompt yozish ko‘nikmasi bilan cheklanmasligi kerak. U kamida to‘rtta ko‘nikmani qamrab olishi lozim: modelning imkoniyat va cheklovlarini tushunish; natijalarning to‘g‘riligini va foydalanilgan manbalarni tekshirish; ma’lumotlar maxfiyligini saqlash; SI yordamining akademik ishda qanchalik va qanday oshkor qilinishini bilish. Tadqiqotdagi etik xabardorlikning M=3,42 darajasida qolishi aynan ushbu ko‘nikmalarni tizimli rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Professor-o‘qituvchilar uchun SI savodxonligi ikki karra ahamiyatga ega: ular bir vaqtning o‘zida SI foydalanuvchisi hamda talabaning undan foydalanish chegaralarini belgilovchi o‘qituvchidir. O‘qituvchi SI’dan foydalanish bo‘yicha topshiriq darajasida noaniq ko‘rsatma bersa, hatto kuchli institutsional yo‘riqnoma ham real baholash vaziyatida yetarlicha ishlamaydi. Shu bois sillabuslarda SI siyosati bo‘yicha standart bo‘lim va har bir yirik topshiriqda “ruxsat etilgan SI yordami” ko‘rsatmasi bo‘lishi maqsadga muvofiq.

### 5.3. Institutsional boshqaruv uchun taklif etilayotgan mexanizm

Empirik natijalar va hujjatli tahlil asosida institutsional SI boshqaruvini oltita o‘zaro bog‘liq bosqichdan iborat uzluksiz sikl sifatida ko‘rish taklif etiladi: siyosatni belgilash → xabardorlikni ta’minlash → SI savodxonligini rivojlantirish → oshkorlikni standartlashtirish → baholash usullarini moslashtirish → monitoring va qayta ko‘rib chiqish. Mazkur siklning afzalligi shundaki, u siyosat hujjatini yakuniy mahsulot emas, boshqaruv jarayonining boshlang‘ich nuqtasi sifatida talqin qiladi.

Birinchi bosqichda umumiy etik va huquqiy qoidalar saqlanadi va muntazam yangilanadi. Ikkin-

chi bosqichda hujjat har semestr boshida barcha manfaatdor guruhlarga qisqa, foydalanuvchi uchun qulay formatda yetkaziladi. Uchinchi bosqichda talabalar va xodimlar uchun SI savodxonligi modullari tashkil etiladi. To‘rtinchi bosqichda barcha yozma topshiriqlarda SI’dan foydalanishni ko‘rsatish uchun yagona va sodda shakl joriy qilinadi. Beshinchi bosqichda SI yordamida to‘liq bajarilish ehtimoli yuqori topshiriqlar qayta ko‘rib chiqiladi. Oltinchi bosqichda xabardorlik, oshkorlik, qoidabuzarliklar, foydalanuvchi tajribasi va yangi texnologik xatarlar bo‘yicha davriy monitoring amalga oshiriladi.

Ushbu model Xalqaro Nordik Universiteti doirasida ishlab chiqilgan tavsiyalarni tizimlashtiradi, biroq boshqa O‘zbekiston OTMlari uchun ham moslashtirilishi mumkin. Ayniqsa, 284-mh-son milliy etika qoidalari umumiy normativ ramka sifatida qabul qilinib, har bir OTM ushbu ramkani o‘z ta’lim modeli, fanlar xususiyati va axborot xavfsizligi imkoniyatlariga mos institutsional mexanizmlarga aylantirishi mumkin.

**7-jadval**

**Taklif etilayotgan “Institutsional SI va akademik halollik sikli”**

| Bosqich | Asosiy harakat | Monitoring ko‘rsatkichi |
|---|---|---|
| 1. Siyosat | SI bo‘yicha umumiy qoidalarni belgilash va yangilash | Hujjatning yangilangan sanasi va qamrovi |
| 2. Xabardorlik | Semestr boshida majburiy tanishtirish | Yo‘riqnomadan xabardorlar ulushi |
| 3. SI savodxonligi | Talaba va xodimlar uchun trening/modul | Trening qamrovi va bilim natijalari |
| 4. Oshkorlik | SI’dan foydalanishni ko‘rsatish uchun yagona shakl | Oshkorlikka rioya qilish darajasi |
| 5. Baholash usullari | Bosqichma-bosqich baholash, og‘zaki himoya va talabaning mustaqil hissasini ko‘rsatadigan topshiriqlar | Qayta ko‘rib chiqilgan topshiriqlar ulushi |
| 6. Monitoring | So‘rov, qayta aloqa va davriy audit | Qadriyat-amaliyot uzilishi dinamikasi |

### 5.4. Tadqiqot cheklovlari va keyingi izlanishlar

Natijalarni talqin qilishda bir necha cheklovni hisobga olish zarur. Birinchidan, tadqiqot bitta universitetda o‘tkazilgan; shu sababli natijalarni O‘zbekiston oliy ta’lim tizimining barcha turlariga avtomatik umumlashtirish mumkin emas. Xalqaro Nordik Universitetining xususiy, xalqaro yo‘naltirilgan va raqamli amaliyotga faol universitet sifatidagi xususiyatlari boshqa OTMlardan farq qilishi mumkin.

Ikkinchidan, so‘rovnoma o‘z-o‘zini baholashga asoslangan. Akademik halollik normativ jihatdan ijobiy qadriyat bo‘lgani uchun respondentlarda ijtimoiy maqbul javob berish moyilligi bo‘lishi ehtimoli mavjud. Shu sababli “sodiqlik” ko‘rsatkichini bevosita real xulq-atvor o‘lchovi sifatida qabul qilish kerak emas. Aksincha, aynan oshkorlik amaliyotining pastroq natijasi normativ fikr va amaliy xatti-harakat o‘rtasidagi tafovutni ochishga yordam beradi.

Uchinchidan, tadqiqot kesma dizaynda bo‘lib, siyosat joriy etilishining vaqt bo‘yicha ta’sirini baholamaydi. Keyingi izlanishlarda longitudinal dizayn, bir necha universitetlar o‘rtasidagi qiyosiy tadqiqot, fokus-guruh va chuqurlashtirilgan intervyular, shuningdek inferensial tahlil yordamida xabardorlik, savodxonlik, institutsional qo‘llab-quvvatlash va oshkorlik xulq-atvori o‘rtasidagi bog‘liqlikni sinash maqsadga muvofiq.

## 6. XULOSA

Mazkur tadqiqot oliy ta’limda generativ SI’dan foydalanish etikasi va akademik halollikni institutsional boshqaruv masalasi sifatida tahlil qildi. Nazariy tahlil shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy yondashuv SI’ni to‘liq taqiqlashga emas, inson markazliligi, shaffoflik, mas’uliyat, maxfiylik, akademik halollik va SI savodxonligiga tayangan moslashuvchan boshqaruvga asoslanmoqda. O‘zbekistonning shakllanayotgan normativ bazasi ushbu tamoyillarni milliy darajada qo‘llab-quvvatlaydi, biroq real samaradorlik muassasa darajasidagi amaliy mexanizmlarga bog‘liq.

Xalqaro Nordik Universitetining 11 bobli SI yo‘riqnomasi hujjatli tahlili uning xalqaro va milliy etik yondashuvlar bilan mazmunan uyg‘un, foydalanuvchi guruhlariga moslashtirilgan va amaliy mexanizmlarga ega ekanini ko‘rsatdi. Ayniqsa, ruxsat etilgan va taqiqlangan foydalanish holatlarini ajratish, ma’lumotlar maxfiyligini himoyalash, SI natijalarini mustaqil tekshirish hamda foydalanishni oshkor qilish tartibining belgilanishi hujjatning kuchli tomonidir.

318 nafar respondent ishtirokidagi empirik tadqiqotda institutsional siyosatni qo‘llab-quvvatlash (M=4,12) va akademik halollikka sodiqlik (M=3,98) yuqori bo‘lgan. Biroq SI’dan foydalanishni oshkor qilish amaliyoti M=2,91 bilan eng past natijani qayd etgan. Respondentlarning faqat 65,4 foizi yo‘riqnomadan to‘liq yoki qisman xabardor bo‘lishi, ayniqsa talabalardagi xabardorlikning 59,5 foizda qolishi siyosat mazmunini tushuntirish va foydalanuvchilarga yetkazish mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, oshkorlik talabini barcha guruhlarning katta qismi qo‘llab-quvvatlashi o‘zgarish uchun ijobiy institutsional asos mavjudligini bildiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, universitetda SI’dan foydalanish bo‘yicha aniq etik qoidalar mavjud bo‘lishi muhim, ammo buning o‘zi yetarli emas. Akademik halollikni ta’minlash uchun ushbu qoidalar foydalanuvchilarni xabardor qilish, SI savodxonligini oshirish, SI’dan foydalanishni ochiq ko‘rsa-

tish, baholash usullarini takomillashtirish va muntazam monitoring bilan birga olib borilishi kerak. Shu sababli universitet uchun muhim vazifalardan biri belgilangan qadriyatlar bilan ularning amaldagi bajarilishi o‘rtasidagi farqni kamaytirishdan iborat.

Amaliy tavsiyalar quyidagicha umumlashtiriladi: yo‘riqnomani semestr boshida tizimli tanishtirish; SI’-dan foydalanishni oshkor qilish uchun yagona va sodda shablon joriy etish; talabalar va xodimlar uchun SI etikasi va savodxonligi bo‘yicha qisqa majburiy modullar tashkil etish; har bir sillabusda SI’dan foydalanish darajasini belgilash; og‘zaki himoya, ish jarayonini bosqichma-bosqich baholash va talabaning mustaqil hissasini ko‘rsatadigan topshiriqlar ulushini oshirish; siyosat samaradorligini kamida yiliga bir marta so‘rov va monitoring orqali qayta baholash. Bunday yondashuv SI’dan foydalanishni cheklash emas, uni ta’lim sifati va akademik halollikka xizmat qiladigan boshqariladigan resursga aylantirish imkonini beradi.

## TASHAKKURNOMA

Muallif tadqiqot so‘rovnomasida ishtirok etgan talabalar, professor-o‘qituvchilar va ma’muriy xodimlarga, shuningdek tadqiqotni amalga oshirish jarayonida ko‘maklashgan Xalqaro Nordik Universiteti jamoasiga minnatdorlik bildiradi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Bearman, M., Ryan, J., & Ajjawi, R. (2023). Discourses of artificial intelligence in higher education: A critical literature review. Higher Education, 86, 369-385.

2. Chan, C. K. Y. (2023). A comprehensive AI policy education framework for university teaching and learning. International Journal of Educational Technology in Higher Education, 20, 38.

3. Cotton, D. R. E., Cotton, P. A., & Shipway, J. R. (2024). Chatting and cheating: Ensuring academic integrity in the era of ChatGPT. Innovations in Education and Teaching International, 61(2), 228-239.

4. Dwivedi, Y. K., et al. (2023). Opinion paper: “So what if ChatGPT wrote it?” Multidisciplinary perspectives on generative AI. International Journal of Information Management, 71, 102642.

5. Eaton, S. E. (2023). Postplagiarism: Transdisciplinary ethics and integrity in the age of artificial intelligence. International Journal for Educational Integrity, 19, 23.

6. European Union. (2024). Regulation on Artificial Intelligence (Artificial Intelligence Act). Official Journal of the European Union.

7. Floridi, L., & Cowls, J. (2019). A unified framework of five principles for AI in society. Harvard Data Science Review, 1(1).

8. Foltynek, T., Meuschke, N., & Gipp, B. (2023). ENAI recommendations on the ethical use of artificial intelligence in education. International Journal for Educational Integrity, 19, 12.

9. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2019). Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. Center for Curriculum Redesign.

10. International Center for Academic Integrity. (2021). The Fundamental Values of Academic Integrity (3rd ed.).

11. Jobin, A., Ienca, M., & Vayena, E. (2019). The global landscape of AI ethics guidelines. Nature Machine Intelligence, 1, 389-399.

12. Lo, C. K. (2023). What is the impact of ChatGPT on education? A rapid review of the literature. Education Sciences, 13(4), 410.

13. OECD. (2019, updated 2024). Recommendation of the Council on Artificial Intelligence (OECD AI Principles). Paris: OECD.

14. Perkins, M. (2023). Academic integrity considerations of AI large language models in the post-pandemic era. Journal of University Teaching & Learning Practice, 20(2).

15. Selwyn, N. (2019). Should Robots Replace Teachers? AI and the Future of Education. Polity Press.

16. UNESCO. (2021). Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence. Paris: UNESCO. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000381137

17. UNESCO. (2023). Guidance for Generative AI in Education and Research. Paris: UNESCO. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000386693

18. O‘zbekiston Respublikasi. (2020). “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, O‘RQ-637, 23.09.2020. Lex.uz.

19. O‘zbekiston Respublikasi. “Shaxsga oid ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonun. Lex.uz.

20. O‘zbekiston Respublikasi. “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonun. Lex.uz.

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023). “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida, PF-158-son Farmon, 11.09.2023. Lex.uz.

22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2024). “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, PQ-358-son qaror, 14.10.2024. Lex.uz.

23. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi. (2026). “Sun’iy intellektga asoslangan yechimlarni yaratish, joriy qilish va ulardan foydalanish bo‘yicha etika qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”, 284-mh-son buyruq, 24.02.2026 (Adliya vazirligida 14.03.2026 kuni 3787-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan).

24. Xalqaro Nordik Universiteti. (2025). Sun’iy intellektdan foydalanishning tartib-qoidalari to‘g‘risidagi yo‘riqnoma. Universitet Kengashining 12-sonli qarori, 1-ilova. Toshkent.

# Nordic scientific-practical e-journal

## Volume- 7

# Nordik ilmiy-amaliy elektron jurnali

## 7-son

**ISBN: 3030-3400**

Bosishga ruxsat etildi 2026-yil __.__.
Qog‘oz bichimi 60x84 $^{1}/_{8}$ «Montserrat, Poppins» garniturasi.
Shartli bosma tabog‘i 5. Adadi 50 nusxa.
Buyurtma raqami № ____, Baxosi shartnoma asosida.
“Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi” bosmaxonasida chop etildi.

**Manzilimiz:**
100143, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri,
Chilonzor tumani, Bunyodkor shox ko‘chasi, 8/2-uy
**+998 95 505 44 00 +998 91 215 56 44**


Crossref

doi

iD

Google
Scholar